Govmichcha (Hordeolum) kovoklar kiprikli kirrasining terisi ostidagi yog bezchalarining yiringli yalliglanishi.Kupincha yukori kovok kirrasining muayyan bir nuktasida cheklangan kizarish paydo bulib, avval uning tortilganga uxshash biroz yokimsiz ta'siri seziladi. 20 - 24 soatdan sung bu joyda shish paydo bulib, terisi taranglashadi, kizarish zurayadi va ogrik paydo buladiG` kovok ogirlashib biroz osilib koladi, kuz xam biroz kizaradi va yaxshi ochilmay koladi. Yalliglanish borgan sari zurayib, 2-3 kundan keyin yiring paydo buladi va govmichchaning urtasida nayzaga uxshab sargayib kurinadi. Ba'zida jarayonning 3-4 kunida uzi yorilib, yiring chikib ketadi. Govmichcha organizm kuvvatsizlangan turli surunkali kasalliklar (kand kasalligi, kamkonlik, gastrit, gastroenterit, gepatit) natijasida modda almashinuvining buzilishi, avitaminozga uchragan odamlarda ularning kuz tirkishidagi infektsiyaning zurayib ustun kelishi natijasida paydo buladi va kupincha kayta - kayta chikaveradi.

Shuning uchun davolash kuzga dori tomizish (penitsillin, albutsid, levomitsetin) va bemordagi umumiy kasallikni aniklab, tegishli umumiy davolashdan iborat. Lekin govmijjada kuruk isitish usullari kuk, kizil lampochkalar, UVCh, albutsid xamda penitsillin eritmalarini 3-4 kun davomida tomchi va poroshogini ikki marta (kechasi uxlash oldidan va ertalab) sepish juda yaxshi ta'sir kilib, uni tuzatadi. Bular shillik parda orkali surilib, infektsiyani yukotadi. Agar shu usullarni kullamay bemor uzicha govmichchani sikib chikarsa, uni infektsiya konga utib venalar orkali kuz kosasi yoki miya kosasi ichiga kirib juda ogir asoratlar berishi va kishi xayotiga xam putur etkazishi mumkin.

Blefarit (Blepharitis) - kovoklar kiprikli kirrasining yalliglanishi. Blefarit anchagina kup tarkalgan kasallik bulib, surunkali davom etadi. Klinik kurinishi uch xil:

Oddiy blefarit, bunda kovoklar kiprikli kirrasining terisi birozki zaradi, achishib kichishadi.kovoklarning chakka tomon birikmasi oldida kupikka uxshash chikindi paydo buladi. Ukish, yozish paytida kuz tez charchaydi.

Pustlokchali blefarit (Blepharitis squamosa), bunda kovoklar kirrasi borgan sari kuprok kizaradi, biroz shishadi, terisidan kepakka uxshash ok – kulrang bulakchalar kuchaveradi va yana kuprok achishib kichishadi. Kepakchalarni urnidan kuzgatganda ular ostidagi terining yana yupkalashib kizargani ma'lum buladi. Chang, shamol, yorur nur kuzga salbiy ta'sir etib bezovta kiladi.

Yarali blefarit (Blepharitis ulcerosa), kipriklar ildizi atrofida sargish yiring paydo bulib, ularni bir - biriga yopishtiradi, yiring kotadi. Uni urnidan kuchirganda kipriklar xam urnidan kuchib chikadi, konaydi va juda ogriydi. Yiringlagan kiprik kopchigi va bezchalari urnida mayda – mayda chandiklar paydo bulib, kovoklar kirrasi xolatini uzgartirib, kipriklarning notugri joylashuviga va ularning ichiga buralishiga olib borishi va xatto kipriklar butunlay tushib ketishi xam mumkin. Yarali blefarit juda uzok davom etadi. Kovoklarning bunday ogir surunkali kasalligi kupincha yoshlarning balogatga etish davrida teri moy bezchalari faoliyatining uzgarishi natijasida, ulardagi bezchalardan chikadigan loyka sekret kuz yoshi bilan aralashib kupikka uxshash chikindining paydo bulishiga sabab buladi. Eshlar organizmining balogat davrida xolsizlanishi, oshkozon -ichaklarining surunkali kasalliklari, vitamin va boshka modda almashinuvining buzilishi, kamkonlik, gijja va allergik kasalliklar xam sabab buladi. Tashki muxitdagi chang, tugun, kimyoviy moddalar xam ta'sir etadi. Eng asosiy sabablardan yana biri kuz refraktsiyasining nomutanosibligi - gipermetropiya, astigmatizmda uz vaktida tegishli kuzoynak takmay yurib, kuz va kovoklarning ortikcha zurikishidir. Shuning uchun

blefaritni davolash birinchi navbatda unga sabab bulgan nuksonlarni topib tuzatishdan iborat. Bu tegishli kuzoynak takish, umumiy kasalliklarni aniklab davolash va tashki muxit salbiy ta'siridan saklanishdir. Blefarit boshlanishida kipriklar ildizini mustaxkamlash, yog bezchalari vazifasini yaxshilash, ya'ni u erda kon aylanishini yaxshilash uchun 1-2 xafta davomida massaj kilib, antibiotiklarning poroshok va malxamlarini ishlatish zarur. Massajdan sung 10% li brilliant yashili eritmasi kovok kirralariga surtiladi.Yarali blefaritni davolash kon'yunktiva bushligidan (ekma, posev) olib, unda bor mikroorganizmlarni aniklab, tegishli antibiotiklar ishlatishdan iborat. Kortikosteroidlarni kuzga tomizish mumkin.

Xalazion (Chalasion) - bu surunkali proliferativ yalliglanishdir. Meybomiy bezchalari maxsuloti okib chikib ketadigan yullarning bekilib kolishi sabab buladi. Bunda asta -- sekinlik bilan proliferativ yalliglanish vujudga keladi va kovokning urta «togay» varagida mayda tuguncha paydo bulib, U borgan sari kattalashib nuxotday buladi, tugunchani palpatsiya usuli bilan tekshirganda bemor xech ogrik sezmaydi, uning kovok togayiga yopishganligi aniklanadi. Uning ustidagi terisi uzgarmagan, yopishmagan bulib, kul tegizganda xech ogrimaydi.Davolash kuzga dezinfektsiyalovchi dori - suriltiruvchi dori tomizish, UVCh berishdan boshlanadi.Agar surilmay, kattalashaversa, jarroxlik usulida olib tashlanadi.

S a r a m a s (Ericipelas) utkir yukumli kasallik. Kovok terisiga yuz terisidan utadi. Bunda uziga xos chizma bilan chegaralangan kip - kizil shish paydo buladi, yalliglanish belgilari vujudga kelib, ba'zida pufakcha paydo buladi yoki nekroz beradi va organizmni zaxarlab ogirr axvolga soladi. Davolash asosan streptokokka karshi joyli va umumiy dori kullash usulida olib boriladi. Kuchli antibiotiklarning katta dozasidan va sulfanilamidlardan parenteral yuborib, kovoklar va kuzga ularning malxamidan kuyish zarur. Bu dorilarning kuruk poroshogidan ertalab va kechkurun yaraga ikki marta sepib davolash yaxshirok naf beradi. Kortikosteroid va virusga karshi dorilardan xam berish kerak.Kovoklarning kamdan - kam uchraydigan yana bir ogir kasalligi - u ch u k pa tologiyasidir. Herpes Symplex, herpes Zoster shular katoriga kiradi. Birinchisi herpes simplex kovok terisida pufakchalar paydo bulishi va ularning tez orada yorilib, kattik ogrik bilan eroziya berishi, sungra bitib ketishi bilan utadi. Ikkinchisi herpes Zoster esa kupincha yukori kovok va uning atrofida nervus ophthalmicus ta'minlaydigan yuzning fakat yarmiga yoyilib kattik ogrik bilan paydo buladi, pufakchalarning xiralanib yiringlab pustulaga aylanishi, yorilishi, urnida chandikchalar kolishi bilan xarakterlanadi. Bu herpes Zoster ophtalmica kupincha kuz pardalariga xam utib uzok davom etadi, kiyinchilik bilan tuzalgach, uzok vakt davomida

shu joyda giposgeziya koldiradi, Kovoklar terisining bunday turli -tuman yalligli kasalliklarining kiskacha ta'rifi umumiy vrachga diagnoz kuyish va kuz mutaxassisiga bemorni davolanish uchun uz vaktida kechiktirmay yuborishiga yordam beradi.

KO’Z SHILLIK PARDASINING YALLIGLANISH PATOLOGIYASI

Kuz shillik pardasi conjunctiva dir. Bu parda pastki va yukori kovoklarning ichki satxini bekitib, yopishib yotadi. U kovoklarning kiprikli kirrasidan boshlanadi va uch kismdan iborat. Bu kovok kismi va utuvchi burma xamda kuz sokkasi satxini bekitadigan kismlardir. Kovok shillik pardasi conjunctiva palpebralis ning togay satxini bekitib yotgan kismi juda yupka.Uning utuvchi burmali kismi anchagina kalin. Chunki bu kismda adenoid varak, kadaxsimon xujayralar, kushimcha Krauze kuz yosh bezlari bor. Kovoklar satxidan kuz sokkasi satxiga utar joyida burma bulib, u chukur arikchaga uxshaydi, uni fornix conjunctiva deyiladi. Kuz sokkasi satxiga utgach, yupkagina shillik parda conjunctiva bulbi deyiladi.

Gistologik jixatdan kon'yunktiva epiteliy va uz shaxsiy tukimasidan tashkil toptan. Epiteliy kovoklar kirrasiga yakin joyda silindr xujayralar, utar kismida silindr va kubsimon, kuz sokkasi satxida esa kubsimon va kuprok yassi xujayralardan iborat. Bu epiteliy kup kavatli yassi xujayralar sifatida shox pardaning ustiga xam utadi.

Kovoklar shillik pardasi -- kon'yunktivaning yalliglanishi kon'yunktivit (conjunctivitis) deyiladi. Kon'yunktivitlar utkir kechadigan va surunkali xilda buladi. Ularning paydo bulish sabablari juda kup va turlicha bulib, kuyidagi jadvalda keltirilgan.

bemorlar uz kuzlarida sanchik sezadi, yot jism tushgandagi kabi sezgi buladi, yoshlanish va kovoklar kirrasining yopishuvi kabi nokulayliklarni sezadilar. Kupincha kuz sokkasi kon'yunktivasining kon tomirlari kengayadi.Bu kon'yunktival in'ektsiya deyiladi. Mikroblar, viruslar va allergiya ta'siridan paydo buladigan kon'yunktivitlarning uz belgilari xam bor.

BAKTERIAL O’TKIR KON'YUNKTIVITLAR

Bu kon'yunktivitlarni kuzgatuvchi agentlar turlicha bulsa xam bir xil belgilari uzaro o’xshab turadi.

Utkir epidemik kon'yunktivitni Kox va Uiks diplobatsillasi vujudga keltiradi. Bu kasallik kuprok Iarkaziy Osieva tropik iklimli erlarda uchraydi. Bizning iklimda bu kon'yunktivit aprel may oylaridan boshlanib, orada anchagina kamayib, yana avgust sentyabrda

respublikaning chekka viloyatlarida paydo bulib, xuruj kilishi mumkin, chunki bu issikda terlash, chang vaktida kul yuvmaslik, umumiy sochik, yostik jildi va pashshalar orkali yukib odamdan - odamga utaveradi. Ayniksa kuprok bolalar va kariyalar kasallanishi mumkin. Bu kon'yunktivit avval bir kuzda boshlanib, keyin tezgina ikkinchi kuzga utadi.Kasallikninguch asosiy klinik belgisi bor.

Shillik parda juda kup kizarib,shishib,kalinlashadi. Kuz sokkasi kon'yunktivasi xam shunchalik shishadiki,u ikkala kovok orasida kisilganda, uning, kon tomirlari torayib, rangi okaradi. Shuning uchun shox pardadan burun va kulok tomonda u ikkita rangi okargan uchburchak sifatida kurinadi.

Ikkinchi simptomi 10 - 12 soatdan sung kuzdan juda kup kuyuk yiring chika boshlaydi va uchinchi simptomi kuz yukori segmenti kon'yunktivasi ustida mayda – mayda kon kuyuladi. Kovoklar xam shishadi.Bemorning organizmi kuvvatsiz bulsa, uning umumiy axvoli ogirlashib isitmasi kutariladi, a'zoyi badani ogrib loxaslanadi.Shu belgilarni kurgan umumiy vrach diagnoz kuya oladi. Chunki bu kasalning yana bir belgisi bemor ertalab uykudan turganda uning kovoklari kotib kolgan yiring bilan yopishib kolgani uchun u kuzini ocholmagani xam uziga xos belgi buladi.

Bemor uz vaktida davolalanmasa, kasallik 2-4 xaftagacha chuzilib, uning kuz shox pardasi zararlanib yaralanish asoratini berib, kurlikka olib borishi

mumkin. Bemor batsilla tashuvchi bulib kolishi mumkin.Bu kasalga Ibn Sino Osiyo oftalmiyasi deb nom bergan.

Gonoblenoreya (Honoblenorea) kupincha chakaloklarda va katta odamlarda xam uchrashi mumkin. Chakaloklar tugilish paytida kasal onadan (Neisser gonorhoe) yuktiradi va 2 - 3 kundan sung uning kuzi kizaradi, kovoklari kattik shishadi va kuzidan kizgish yuvindi

(gusht ivindisiga uxshash) suyuklik chika boshlaydi, uning kovoklari kattik shishgandan kukimtir tue oladi va juda taranglashib ochilmay koladi, Ularning ikkala kuz shillik pardasi xam juda kizarib shishadi va tez konaydigan buladi. Shu vaktda chakalokning axvoli juda ogirG` isitmasi baland, emmaydi, uxlamay gingshib chikadi. 3 -- 4 kundan keyin kovokning shishi kamayib, u yumshab salkib koladi va kuzdan juda kup sargish, kuyuk yiring chikaveradi. Ba'zida bunday shish shox pardaga tazyik berib, unda modda almashinuvini buzadi, epiteliysi yiring bilan tirnalib, xiralanadi va xattoki yaralanishi xam mumkin. Bu yara bitib tuzalgan takdirda shox pardada chandik paydo bulib, kuz kurmay koladi yoki uning urtasida paydo buladigan sap - sarik yiringli yara yorilib, infektsiya kuzning ichiga xam kiradi. Bunda kuz ichki pardalari yalliglanib, endoftalmit panoftalmitga aylanishi mumkin.Esh bolalarda xam klinik kurinish shu tarika bulib, yana ogirrok bulishi mumkin. Katta odamlar kuziga infektsiya ularning gigienaga axamiyat bermaganidan utadi. Bular esa bu kasallikdan yana kuprok kiynalishadi. Kupincha ularda isitma kutariladi, butun a'zoi badani ogrib, yuragi xam zararlanadi, kul - oyoklari kattik ogriydi.Kuz zararlanishi klinikasi oldingilarnikiga uxshasa xam, lekin ogirrok utib, shox pardada chandik yoki u yorilib kuz puchayib kolishi mumkin. Diagnoz kuyish kasal kuzining klinik kurinishi va bakteriologik tekshirib gonokokkni aniklash asosida buladi. Davolash kuzni marganets tuzi eritmasi, furatsillinning eritmasi bilan xar soatda yuvish, kuzga penitsillinning (500000:1,0 g suvga) eritmasini, 30% sulfatsil natriy eritmasini tez - tez tomizish, kechalari esa ularning kuruk poroshogini bir marta sepaverish bilan davolanadi. Chakalok, yosh bola va kattalarga parenteral penitsillin, linkomitsin va boshkalarning katta dozasini kullash kerak va umuman bosh ogrigi, isitmani tushiruvchi dorilar, vitaminlar beriladi.Kuzning bu ogir kasalligi kancha erta aniklanib, davolash tezlik bilan boshlansa, asorat kam buladi. Profilaktika uchun xozirgi vaktda yangi tugilgan bola kuziga tezlik bilan 30% albutsid yoki penitsillinning (500000:1,0 g suvga) eritmasidan tomizish zarur. Xomilador ayollarni esa ayollar maslaxatxonasida obdon tekshirib davolash shart.Umuman profilaktika keng kullanganidan bu kasallik xozir juda kam uchraydi.

Difteriyakon'yunktiviti- Leffler batsillasi kuzgatadi.Kupincha u kuzga tomok, burundan utadi. Isitma kutarilishi va atrof limfa bezlarining ogrib kattalashuvi katorida kovoklar shishib kizaradi, taranglashib ogriydi. Kuz tirkishidan kulrang loykalangan ingichka ipchalari bor suyuklik chikadi. Kovok kirralari va shillik pardasining kurinishi mumkin bulgan kismiga uziga xos kulrang - kukimtir kalin kavat yopishgan buladi. Bu kavatni ozgina yulib olinganda, uning urnidagi kip - kizil shillik parda konay boshlaydi va borib - borib shu joylarda nekroz paydo bulib, ostida yiring yigilgan buladi va bu 2 - 3 xaftadan

keyin chandiklanish bilan tugaydi, simblefaron xam paydo buladi. Kattik shilimshik - yiringli suyuklik chikib engil utishi bilan xarakterlanadi. Bu 5 - 6 kun davom etib, bemor 10 - 15 kunda tuzalib ketadi.Pardali kurinishi anchagina kamrok uchraydi. Pardachasi nozik, ok - kulrang bulibG` tortganda urnidan beozor kuchaveradi.Difteriyadan farkli ularok rangi kukimtir bulmaydi.Lekin ba'zida bir oz konashi mumkin. Bunda shox pardada mayda - mayda nukta shaklidagi infiltrat paydo buladi - yu, tez surilib ketadi.Folikulli kurinishida kon'yunktivaning togay va kuz sokkasiga utadigan joyida follikullar paydo buladi. Kupincha bu follikullar mayda - mayda bulib, kovok kon'yunktivasining bir oz kizarib shishgan ichki va tashki burchagida joylashadi. Ba'zida esa katta katta yarim tinik, yaxnasimon follikullar kon'yunktivada va uning kuz sokkasiga utar joyida kup buldi. Lekin buning traxomadan farki shundaki, bunda follikullar kizgish va chetlari anik ma'lum kirrali buladi va traxomali bemorda isitma, tumov bulmaydi.

Epidemik (virusli) keratokon'yunktivitni juda kontagioz 8 - serotip virus kuzgatadi.Inkubatsion davri davomli.Kupincha katta odamlarga yukadi. Odamdan odamga umumiy ishlatiladigan buyumlar, zararlangan kuz tomchisi va tomizgichlari, kulini yuvmagan tibbiy xamshiralar va boshkalar orkali yukibG` butun bir oila a'zolari yoki turli ishchilar jamoasi kasallanadi.Kasallik tumovga uxshab sovuk tushgan faslda tez vakt ichida boshlanib, bemorlar uz kuzida xalakit, yoshlanish, kizarish sezadi, ozrok shilimshik - yiring chikadi.Sinchiklab tekshirganda bundam oldingi kon'yunktivitdagiga uxshab uzgarishlar topiladi. Bunda pastki kovok shillik pardasida va uning kuz sokkasiga utar joyida kup mayda - mayda, tinik va kizgish follikullar paydo buladi. Ba'zida juda nozik pardacha bulishi mumkin va kuzda ozgina yiringsiz chikindi buladi kulok oldi va iyak osti limfa bezlari kattalashadi, ogriydi. Bemorning boshi ogrishi, uykusizlik bulishi mumkin. Biron xaftadan sung umumiy axvoli yaxshilanib, shox pardada kup tarkalgan, tartibsiz joylashgan kup sonli mayda -mayda xiralanish nuktalari paydo bulishi, kuz yoshi okishi, kuz kamashuvi bilan boshlanadi. Shox pardaning sezgirligi kamayadi. Bu xolat 1-2 xafta davom etib, 7 -8 xaftadan keyin asoratlarsiz tuzalib ketadi va immunitet koldiradi.Viruslarga karshi dorilar florenalning 0,1% li eritmasi 4 -- 5 marta, uning 0,5% li malxamidan kuniga 2-3 marta, 0,1 - 0,2% oksalin eritmasi va uning 0,25% malxami kuyiladi. Poludannin 4% eritmasidan 2-3 martadan tomiziladi. Bemorga umumiy kuvvat beradigan vitaminlar, aloedan 10 - 15 kun berish mumkin. Davolash viruslarga karshi dorilarni kuzga tomizishdan va antibiotiklar, vitaminlarni kullashdan iborat. Profilaktikasi shu kon'yunktivitni yuktirgan kasallarni va u bilan birga bulgan odamlarni boshkalardan ajratish, ularni davolash uchun ishlatiladigan asbob – uskunalarni ayrim saklab, obdon

sterillash lozim. Tibbiy xodimlar shaxsiy gigiena koidalariga juda kattik e'tibor berishlari zarur.

SURUNKALI KON'YUNKTIVITLAR

Angulyar blefarokon'yunktivit-kuz shillik pardasi, kovoklarning chakka tomondagi burchaklari terisi va kiprikli kirrasining

surunkali yalliglanishi. Kuprok erkaklarda uchraydi va yillab davom etishi mumkin Buni Moraks va Aksenfeldlar topgan diplobatsilla kuzgatadi. Odatda kuz juda achishadi, kichishadi va bemor chiday olmay kashiganda kovoklar chakka tomon burchagi terisida mayda - mayda yorilish va ishkalanish paydo buladi. Shu burchakda kaymokka uxshagan oppok modda paydo bulib, u paxta bilan artganda ipga uxshab chuziladi.Uz vaktida aniklab davolanmasa, kasallik oylab, yillab davom etib, natijada kovok kiprikli kirralari xam kizaradi, shishadi. Davolashda antibiotik va sulfanilamidlar kor kilmaydi, Rux sulfatining 0,5 1,0% eritmasidan boshlangich davrida tomizilsa kasallik tuzaladi.

Traxoma- kon'yunktiva va shox pardaning surunkali yukumli yalliglanishi. Buni Galbershtedter va Provachek topgan virus rikketsiylar kuzgatadi. Klinikasi kon'yunktivaning infiltratsiyasi, chukur joylashgan follikullar va nixoyat ularning chandiklanishi bilan, tavsiflanadi. Traxoma boshlanishi yukori kovokning kuzga ugar kismida kon'yunktivaning kalinlashuvi (profiliferatsiya), kizarishi va uning ichkarirogida chukur joylashgan katta - katta ok kulrang follikullar paydo bulishi bilan xarakterli. Bora -- bora bu uzga-rishlar, ayniksa follikullar juda kupayib kovok shilligi usti juda notekis buladi. Shuning uchun greklar bu xastalikka gadir - budur - trachys dan trachoma degan nom berganlar. Traxoma Shimoliy Afrika, Yakin Shimoliy - Shark, Janubiy Afrikada juda kup tarkalgan,

Kasallikning boshlanishidanok shox pardada pannus (parda) yuza joylashgan kon tomirli uziga xos 3 xil yalliglanish paydo buladi: 1) tomirli (pannus vasculosus), kasallik davrida zurayadigan 2) yupka (pannus tennus) va 3) muskulli (pannus crassus) shaklda chandik koldiradi. Shox pardani xiralashtirib kurishga xalakit beradi.Pannus xar bir bemorda xar xil buladi.Bu uning individual ximoya kuchiga boglik. Traxoma fakat kontakt vaktida yukadi va bunga sanitariya - gigiena koidalariga rioya kilmaslik sabab buladi. Inkubatsiya davri 14

kun. Kupincha bemorlar traxoma boshlanganini sezmaydilar.Lekin ba'zida ular kovoklari ogirlashganini, bir narsa xalakit berganini sezadilar.

Klinikasining 4 davri bor. Traxoma I - yukori kovokning kon'yunktivasi infiltratsiyadan shishadi va 4 - 5 tagacha va keyinchalik juda kup chukur urnashgan follikullar paydo buladi. Ikkinchi davri Trachoma II -- follikullarning bir kismi yorilib, yoki surilib urnida chandik koladi.Shox parda yukori yarmida kon tomirli pannus bulishi mumkin. Uchinchi davri - Trachoma III - bunda follikullar mikdori va infiltratsiya kamayib, kupincha chandiklar va pannus zurayadi. Turtinchi davri Trachoma IV - da follikullar va infiltratsiya yukolib fakat okishrok chandiklar koladi.

Traxomaning asoratlari uning eng yukumli III davridan boshlanib, shox pardada yara paydo bulishi, iridoktsiklit, banal infektsiyadan kon'yunktivit, dakriotsistit va boshkalar.

Traxomaning okibatlari ildiz ostida chandiklanish natijasida kipriklarning notugri usishi (Trichiasis), shillik varakning keng chandiklanishidan kovok kirrasining ichkariga buralishi (Entropion), kovok shillik varagining kuznikiga yopishuvi (Symblepharon), kuz yoshi bezi yulining chandikdan bekilishi natijasida kuz shillik varagi va shox pardaning kakrashi (Xerosis conjunctivae et sogpeae) natijasida kuz kur bulib koladi. Ilgari traxoma kasalligi boshlanganidan 30 - 40 yilgacha davom etib, kuz kovoklarni betartib va badbashara xolga keltirgan, chunki u vaktlarda XX asrning boshida na kuz mutaxassislari, na dori - darmon va na kuz shifoxonasi bulmagan. Shuning uchun traxoma kuz ojizligining asosiy sabablaridan biri bulgan.

1960 yillargacha umumiy va majburiy, xattoki pulsiz davolash, tez - tez tekshirib oldini olish tufayli traxomami yoppasiga yuk kilishga erishildi.

Traxomani davolash uchun VOZ ekspertlari tetratsiklin va eritromitsinning 1 % li eritmasi va malxamini tavsiya kilganlar, Bu dorilar bemor kuziga 3-4 oydavomida tomiziladi, ertalab va kechkurun malxami kuyiladi. 2-3 kundan sung ular naf beradi, shuningdek eritromitsin xam kullaniladi. Agar shunda xam butunlay tozalanmasa, unda follikullarni ma'lum usul bilan sikib chikarib, etazol yoki albutsidni talkonsimon sepib davolash mumkin.Bemor dorilarni batartib kabul kilsa, traxomami 6 - 8 oy ichida davolash mumkin. IV davrga utgandan keyin xam uning takrorlanishiga karshi tomchi va malxam bilan davolab, sungra 3 yil vrach nazoratida tekshirib turiladi. Mamlakatimizda traxoma bulgan kasallarni 100% ruyxatga olish, statsionarda davolash, pulsiz dori - darmonlar berish, kaytalanishining oldini olish tufayli u yoppasiga yuk kilindi.

Profilaktika uchun axolini sanitariya -- gigiena bilimlarini oshirish, xamma oilalarni vakti - vaktida tekshirib turish, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash zarur.

Paratraxoma-bu okulourogenital (oculourogenitalis) sindromning kuzda paydo buladigan simptomlariga asoslangan kovoklarda paydo buladigan follikullyar traxomadagiga uxshaydi, lekin bunda ular yukori kovokda emas, asosan pastki kovok shillik pardasining kuzga utar kismida joylashadi va xech kachon chandiklanmaydi va ogir okibatlari xam bulmaydi.

Paratraxomani xam u Chlamydia halprovia vujudga keltiradi.Bu kasallik ilgari xavza kon'yunktiviti deyilar edi.Chunki kupincha xavzalarda chumilgan yoshlarda 2-3 kundan keyin paydo bular edi.

Davolash kuzga dezinfektsiyalovchi dorilardan avval 8-10 martagacha 1-2 tomchidan tomiziladi, sungra bir oz kamaytirib 5-3 martagacha tushiriladi.Penitsillin, kanamitsin, etazol talkonidan kechkurun yotish oldidan va ertalab sepiladi. Bu juda yaxshi ta'sir kilib, kasallik tez tuzaladi.Traxoma okibatlaridan trixiazni Sapejko usuli bilan operatsiya kilinadi. Notugri usgan kipriklar ildizini tozalab, kovokning kiprikli va kipriksiz chiziklari urtasini kesib, shu joyni kengaytirib bajariladi. Shu soxaga bemor pastki labidan olingan shillik, parda kiyigi kuyib tikiladi.

Entropionni tuzatish yukori kovok, terisini kirrasidan 2 mm narida kesib, togayni tozalab, undan uzun uchburchak shaklida olib tashlab, tikiladi.Pastki kovok (entropion) ichiga burilganda uning terisidan tasma olib tashlanadi, terisini tikkanda muskul xam kushib tikiladi.

Surunkali kataral kon'yunktivit bulgan bemorning kuzlari achishadi, kum tikilganday buladi, kitob ukiganda tez charchash sezadi.Kon'yunktiva bir oz kizaradi, yuza joylashgan follikullar paydo buladi, lekin kuzdan shilimshik juda kam chikadi.

Sabablari: atrof - muxitdagi chang, tutun, gazlarga nisbatan sezgirlikning oshganligi, kuz yoshi yullarida, burun bushligi va uning atrofidagi bushliklarda, meybomiy bezlarida infektsiya borligi va modda almashinuvi, ovkat xazm kilishning buzilishi xisobga olinadi. Ba'zida astigmatizmning uz vaktida kuzoynak bilan ta'minlanmaganining xam axamiyati bor. Bunday bemorlarni obdon tekshirilib, kasallik sababini aniklab davolash zarur.Chunki sababi aniklanmagan bundam bemor oylab, yillab kiynalishi mumkin.

Allergik vaautoimmunkon'yunktivitla r. Paydo bulish sabablari 2 xil: tashki muxit omillari (ekzogen) va organizmdagi modda almashinuvida paydo buladigan nomutanosib jarayonlar yoki infektsiya toksinlari ta'siri (endogen) dir. Kishi nerv sistemasiva ichki a'zolaridagi sezgirlikning oshib ketishi ularga javoban patomorfologik uzgarishlar berib, klinik patologiyani keltirib chikaradi.

Ekzogen baxor kon'yunktiviti- ilk baxorda uta sezuvchanlikdan boshlanadi.Bunga kuyoshning ultrabinafsha nurlar sochishi, xavoda chang paydo bulishi yoki ilk baxor kukatlari sababchi ekanligi taxmin kilinadi.Bizning iklimimizda kupincha yosh va uspirin ugil bolalarda paydo buladi. Odatda kuzni yorug nur bezovta kiladi, kuzlar kichishadi, yoshlanadi, yumilishga moyil buladi Ochib karalganda yukori kovok togayi ustidagi shillik kavat kalinlashib, unda burda - burda ok pushtirok dumbokchalar paydo buladi. Ular follikulni eslatadiyu, lekin tuzilishi anik, chegaralangan, bir oz yasen, katta - kichik va tartibli joylashgani kayrok tosh terilgan yulni eslatadi. Shunday uzgarish shox pardada limbning atrofi va burun tomonida xam paydo bulishi mumkin. Kasallik uzok (balogatga etguncha) davom etib, xar baxor vaezda xuruj kiladi. Bemor konida askorbin kislotasining ancha kamayishi aniklangan. Shu vitaminlar va allergiyaga karshi dorilar kullaniladi.

Pollinoz (Pollen - gul changi) kon'yunktiviti baxorda usimliklar, daraxtlar gullagan davrida boshlanadi.Tusatdan kuzlarda juda kuchli achishish, kichishish paydo buladiG` kuz yoshlanishi, ochilmay kolishi, kupincha aksirish, yutalish va kuz - burundan yosh va suv kelishi kuzatiladi. Xar yil baxorda vaezda turli usimlik bargi va gulidan shamol bilan uchadigan xid va chang - - tuzonlar shunday allergiyaga sabab buladi.

Antibiotiklarga allergiya.Kuzga antibiotiklardan birining eritmasi tomizilsa yoki poroshogi kuyilsa, kon'yunktiva kip - kizarib, pastki kovok kon'yunktivasi shishadi, follikullar paydo buladi, kovoklar terisi kizaradi.Kuz yoshlanadi, achishib kichishadi.Juda kamdan -- kam, ayniksa bolalarda shu xolat atropin yoki dionin tomchisi tomizilganda xam buladi.Bunda kuzg akortikosteroid tomchilaridan tez - tez tomiziladi.Kaltsiy glyukonati ichiriladi.

Endogen sabab.Tuberkulyozga allergiya (fliktenali kon'yunktivit). Upkasi va boshka a'zolari tuberkulyoz bulgan odamning konida toksinlar paydo bulib, shular kuzga ichki - autoallergen sifatida ta'sir kiladi. Bu xolat ayniksa uzok ogrib, yaxshi davolanmagan bemorlarda buladi. Kupincha yosh bolalar va usmirlarda uchraydi. Avval bir kuz zararlanib tusatdan yoshlanaveradi, sanchiydi, yorugga karay olmay, kovoklari kisilib bemor yuzini bekitib utiradi.U kuzini ochib Karaganda kon'yunktivasida bir necha katta • kichik tugunchalar paydo bulgani kuzatiladi. Bu fliktena, pufakcha emas, balki proliferativ gigant

limfotsit va epitelial xujayralardan paydo bulgan yallpglangan tugunchalaridir. Kuzning xakikiy tuberkulyozdan farki shundaki, bunda bemor kuzida tuberkulyoz tayokchalari

topilmaydi va kazeoz parchalanishi bulmaydi. Shuning uchun bu yukumli emas, lekin uzok davom etib tugunchalar yorilib bemorni kiynaydi. Xozirgi vaktda tuberkulyozga karshi choralar xamma tomonlama keng yulga kuyilib, dispanserlar soni oshganligi va tugri davolash tufayli bu kasalliklar bilan kasallanish soni kamaytirilgan.

KO’Z YOShI A'ZOLARINING YALLIGLANISh PATOLOGIYASI

Ko’z yoshi a'zolari-yosh ishlab chikaradigan va uni okizib chikaradigan kismdan iborat. Kuz yoshi bezi glandula lacrimalis kuz kosasi yukori devori chakka tomom kirrasi ostidagi chukurcha (fossa glandulae lacrimalis) da joylashgan. Bu bez orbital va palpebral kismlardan iborat. Bezning orbital kismida ishlab chikariladigan kuz yoshi palpebral kismiga tushib, sungra 10 - 12 yosh chikaruvchi naychalar orkali okib, keyin kon'yunktiva bushligining chakka tomoniga tushadi va shu joydagi Krauze nomli kushimcha kuz yoshi bezlaridan xam ishlanib chikkan kuz yoshi bilan kushilib, kuz sokkasining ustidan utib, pastki kovokning kirrasi buylab yunalib, burun tomonga utadi va kuz yoshi kuli (lacus lacrymalis) da yigiladi. Kuz yoshining tarkibida 97,8% suv, 1,8% tuz va juda kam mikdorda oksil, yog moddasi va mukopolisaxaridlar, shuningdek lizotsim degan ferment bor. Bu ferment fagotsitoz vazifasini bajarib kuz tozaligini saklaydi.

Kuz yoshi okib chikadigan yullar kovoklarning burun tomon burchagidagi kuz yoshi kuliga botib yotgan kovoklar kirrasidagi kuz yoshi nuktalari (punctum lacrymals) dan boshlanadi. Bu nuktalar orkali kuz yoshi kanalchalari canaliculi lacrymalis ga utib, ba'zida ikkala kanalcha birga, ba'zida esa ayrim - ayrim xolatda kuz kosasi burun tomon devorining pastidagi chukurchaga joylashgan kuz yoshi xaltasiga tushadi Kuz yoshi xaltasining uzunligi 10 - 12 mm, kengligi 3-4 mm, xajmi esa 0,7 mm va bosimi 7 -10 mm simob ustuniga teng va turli anatomik variantlari xam bulishi mumkin. Kuz yoshi xaltasidan yosh suyak ichidagi yul (ductus nasolacrymalis) ga utib burunning pastki yuliga tushadi.Suyak ichidagi kanal ayollarda erkaklardagiga nisbatan tor bulgani uchun kuz yoshi xaltasining yiringli yalliglanishi ayollarda kuprok uchraydi.Kovok aylana muskulining aloxida bir kismi (m. Horneri) kuz yoshi yullari, kanallari, kuz yoshi xaltasining kengayib - torayishiga yordam beradi.Shuning uchun kuz yoshi xech kanday kiyinchiliksiz uz yullaridan okib utib,

burunga bemalol tushaveradi.Kuz yoshi kuz satxini doim xullab turib, uni kakrab kolishdan saklaydi.Kuzni mayda jismlardan tozalab, yuvib chikaradi.Kuzni bir oz sovukdan xam saklaydi.Kuz yoshi yulining biror joyida tusik paydo bulganda kuz doim yoshlanib kishini juda kiynab kuyadi.

Ko’z yoshi bezi va kuz yoshi yullarining yalliglanishi kupincha surunkali buladi. Mikroblar, bakteriya, virus va zamburuglar ta'siri ostida vujudga keladi. Bularga organizmning umumiy surunkali kasalliklari va kuz yoshi yullarining torayishi sabab buladi.

Kuz yoshi bezining kamdan kam uchraydigan o’tkir yalliglanishi dakrioadenit (dacrioadenitis acuta) organizmning zotiljam, suzak, kattik shamollash va grippdan kuvvatsizlangan odam yoki yosh bolalarda tepkidan bulishi mumkin.Bunda yukori kovok chakka tomonining uchdan bir kismida kizarish, juda ogrikli shish paydo buladi.Badanning umumiy kakshashiG` isitmaning kutarilishi, bosh ogrishi bilan boshlanadi. Yukori kovokning shakli uzgarib, kalinlashadiG` kattalashadi, kuz sokkasini uz urnidan biroz siljitib bekitadi.Laboratoriya tekshirishlari kondagi (SOE, leykotsitoz, limfotsitoz) uzgarishlari uchrashi mumkin bulmagan, fakat klinikasi uxshash usmadan farklab yalliglanish diagnozini kuyishga yordam beradi.yalliglanishga karshi davolash kuzga va umumiy antibiotiklar, sulfanilamidlar, issik kullash bilan utkazilib, 3-4 xaftadan keyin tuzaladi.

Kuz yoshi bezining surunkali yalliglanishi esa (dacrioadenitis chronica) juda kam uchraydigan, asta - sekin boshlanib, umumiy kuvvatsizlik, bezning kattalashuvi, shishuvi bilan davom etadi, Sabablari -- asosan tuberkulyoz, zaxm va boshkalar. Klinik - laboratoriya tekshirishlari (Mantu va Vasserman reaktsiyalari) kilinadi. Davolash kasallikning kelib chikish sababiga asoslanib umumiy dori -- darmon kullash va simptomatik usul Bilan buladi. Agar kuz yoshi bezi yalliglanishi sulak bezlari yalliglanishi bilan bir vaktda va ikki tomonlama bulsa, uni sistemali Nikulin kasali deyiladi.

KO’Z YOShI YO’LLARINING YALLIGLANIShI

Bunday bemorlarning asosiy shikoyati kuzdan yosh okishidir. Asosan sovukka chikkanda, shamol va chang bulganda kuz yoshi okishi zurayadi, kuzdan tuxtamay yosh okib turishi

kuz sokkasini xam, pastki kovok terisini xam biroz kizartiradi, achishtirib bezovta kiladi. Sababi kuyidagi usullar yordamida aniklanadi. Bunday bemorlarning kuziga 3% li kollargol tomizib Karaganda kuz yoshi nuktasining surib olish kobiliyati saklangan bulsa, bir - ikki dakikadan sung kuzdagi buyok -- kollargol surilgan buladi, demak kollargol kuz yoshi nuktasi va kanalchalari orkali kuz yoshi xaltasiga utgan buladi. Agar kollargol kuz yoshi nuktasidan tez surilib ketmasa natija aksincha buladi.Bu kanallarni tekshirish usuli deyiladi. Agar kuzga kollargol tomizish bilan birga burunga kiskich bilan kaynatilgan paxtadan tikib tekshirilsa, unda 3-4 dakikdan sung paxtada buyok (kollargol) paydo bulishi kerak, agar aksincha bulsa, kuz yoshi sistemasi bekilib kolganidan darak beradi. Shu usul yordamida butun kuz yoshi okib chikish sistemasining ishi aniklanadi. Kuz yoshi okib chikish yullarini klinik usul bilan yaxshirok aniklash uchun odatda shpritsga dori olib, uning ingichka va biroz tumtoklangan ignasi kuz yoshi nuktasidan kanalchaga yuborilib yuviladi. Agar yul ochik bulsa, engashib utirgan bemorning burnidan dori okib chikadi. Agar utmasa yoki chala utsa, unda shu nukta orkali kontrast dori (yodolipol) yuborib rentgen surati olinadi va shunga karab oftalmolog jarroxlik rejasini tuzadi.

Kuz yoshi nuktasining torayishi uning kayrilib notugri joylashuvi (kariyalarda) yoki chandiklanishdan buladi, u yalliglanganda kuz yoshi okib kizaradi, shishadi.Oftalmolog shu usulga moslashtirilgan 4 • • 5 ta turli yugonlikdagi ignalar - zondlar yordamida kuz yoshi nuktasini kegaytiradi yoki dori-darmon berib yoki operatsiya kilib davolaydi.

Kuz yoshi kanalining torayishi esa, uning urtasida yoki ichki uchida bulishi mumkin.Uning xammasi torayishi xam mumkin.Bunda dori - darmon bilan birga 3 -4 ta uziga moe zondlar bilan kengaytiriladi yoki kon'yunktivada dakriotsistotomiya operatsiyasi kilinadi.

Kuz yoshi xaltasining yalliglanishi- dakriotsistit (dacriocyctitis), bemorning kuzidan fakat yosh emas, yiring xam chikadi. Kuz tirkishining burun tomonidagi yukori va pastki kovoklar birikmasi ostida yumshok, ogriksiz shish paydo buladi. Kuz yoshi xaltasi shaklidagi bu shish bosilganda kuz yoshi nuktalaridan shilimshik yoki yiring aralash kuz yoshi chikadi. Kuz yoshi xaltasining bunday surunkali yalliglanishi kupincha ayollarda kuz yoshi - burun kanalining erkaklarnikiga nisbatan torligidan va kupincha shamollash kabi sabablardan yuli tusilib kolishidan buladi. Kanal ichida yoshning utmay tuxtab kolishi undagi shillik pardaning zararlanishi va infektsiya paydo bulib, yalliglanishi asta - sekin avj olib dakriotsistit vujudga keladi. Kuz yoshi xaltasi tobora kengayib kattalashib, devorining yupkalashganidan u teri ostidan kukimtir bulib kurinadi, bu xolat kuz yoshi xaltasining istiskosi (hydrops) deyiladi. Pastki nukta orkali shprits bilan dori yuborib yuvilganda

suyuklik burunga tushmay, yukori nuktadan kaytib chikadi, surunkali yiringli dakriotsistit bulganda yiring doim kuz tirkishiga chikib turgani uchun undagi mikroblar (streptokokk, stafilokokk va pnevmokokk) kuz shox pardasiga zarar etkazib unda yara paydo kilishi mumkin. Shuning uchun yiringli dakriotsistit erta aniklanib operatsiya usuli bilan davolanishi kerak.

Kattalar dakriotsistorinostomiyasi ogir operatsiya.Bunda kuz yoshi xaltasi ustidagi terini kesib, undagi yumshok tukimalarni chetga surib kovoklar burmasi kesilib, ostidagi suyak tozalanadi. Suyakdan 2,5 sm li kismi olib tashlanadi. Operatsiyaning asosiy printsipi kuz yoshi xaltasi bilan burun yukori bushligi urtasida yul ochib, kuz yoshini tuppa - tugri burunga tushishi ta'minlanadi. 60 yoshdan oshgan odamlarda esa, shox pardani yiringli yalliglanishdan saklash uchun yiringli kuz yoshi xaltasi olib tashlanadi, chunki karilarda suyakni arralash ogir va xavflidir.

Kuz yoshi xaltasining flegmonasi (phlegmona sacci lacrimalis).Bu utkir yiringli peridakriotsistitdir.Bu infektsiyaning yosh xaltasidan atrofdagi tukimalarga utishi natijasida paydo buladigan shiddatli flegmonoz yalliglanishidir. Bunda utkir yalliglanishning asosiy belgilari: shish, kizarishlar kovoklarga, burun va iyakningtegishli shu tomoniga utib ketadi. Bemorning isitmasi kutariladi, boshi ogriydi, umumiy loxaslik paydo buladi.2-3 kundan keyin yo flegmonaning uzi yoriladi, yoki uni oftalmolog statsionarda ochib, yiringini chikarishi, kerakli dori - darmon bilan davolashi zarur.3-4 oydan keyin dakriotsistorinostomiya operatsiyasini kilish mumkin.

Chakaloklarda dakriotsistit (dacriocystitis neonatorum) kamdan - kam uchraydi.Bunga kuz yoshining burun yuli pastki kismida odatda tugilishdan oldin surilib ketishi kerak bulgan nozik membrananing uz vaktida surilmay kolishi sabab buladi. Bola tugilgach 2-3 kun davomida kuzlari yoshlanib, yiringlagani ma'lum buladi. Umumiy klinik belgilar kattalar dakriotsistiti belgilaridan fark kilmaydi.Chakaloklar dakriotsistiti xam uz vaktida davolanmasa, flegmonaga aylanishi mumkin.Davolashning birinchi kismi - kuz yoshi xaltasini massaj kilinadi.Buning uchun kuz tirkishi burun tomoni burchagini shifokor barmoklari bilan asta - sekin yukoridan pastga tomon silaydi. Bunda xaltadagi kuz yoshi kuz burun kanali orkali uning pastki kismidagi membranaga tazyik beradi va natijada u yorilishi mumkin. 2 - 3 kun davomida kilingan massaj usuli yordam bermasa, unda ikkinchi usul bola kuz yoshi yukori nuktasini zond bilan bekitib pastkisidan shpritsdan dezinfektsiya kiladigan dorini katta bosim bilan yuborish kerak. Bunda suv uz vaktida surilib ketmagan membranami teshib chikishi mumkin.

SHOX PARDANING YALLIGLANISH PATOLOGIYASI

Ma'lumki, normada shox pardaning 5 xil asosiy belgilari bor: bu tiniklik, yaltiroklik, shaklining burtikligi, uta sezgirlik va kon tomirlari yukligidir. Patologiyada esa loykalanish, xiralanish, burtiklikning kupayishi yo kamayishi, sezgirlikning zurayishi yo pasayishi va keraksiz kon tomirlar paydo bulishi kuzatiladi. Bu belgilar kasallikning paydo bulish sabablariga kura turli kurinishda buladi. Yalliglanish asosan mikroblar streptokokk, pnevmokokk, stafilokokk, ba'zida viruslar va zamburuglarning ta'siri ostida paydo buladi. Tashki muxitdagi ekzogen ta'sirlar va turli surunkali umumiy kasalliklar (tuberkulyoz, zaxm, toksoplazmoz, gerpes va revmatizmlar) keratitlarni paydo kiladi. Bular kisman utkir tarzda, ba'zan esa sezilmay asta - sekin boshlanadi. Kanday boshlanishidan kati nazar shox pardada infiltrat paydo buladi. Infiltrat turlicha - yuza yoki chukur joylashgan buladi, u mayda - mayda yoki katta buladi, Uning rangi nim tinik kulrang, nim tinik kizgish, sargish yoki kulrang • sargish pufakcha, dumbokcha, tugunchaga uxshash yoki yapalok bulishi mumkin. 2-3 kundan keyin shox parda epiteliysi emirilsa, uning yaltirokligi yukoladi, sezgirligi kupincha kuchayadi. Yangi paydo bulgan kon tomirlar esa infiltrat joylashuviga karab yuza, chukur buladi. Shox parda shakli kupincha yakunlovchi davrda uzgaradi, ya'ni uzok davom etganda yalliglanish uni biroz yassilaydi (applanatio cornea). Kalin, dagal chandik paydo bulsa, uni burttirishi mumkin. Shox parda kiyasining radiusi juda kattalashib, uning shakli sharsimon (keratoconus) bulishi mumkin. Shox parda shaklining tugma uzgarishlari shundan iboratki, juda kattalashib ketsa - megalo-sogpea va aksincha, kichrayib ketsa -- miscrocornea deyiladi. Bunday uzgarishlar asosan bolalar va usmirlarda, ayniksa shimoliy xududlarda yuz beradi. Bunga birlamchi distrofiya sabab buladi.

Surunkali ichki a'zolar tuberkulyozida toksinlar ta'sirida bir kuz shox pardasi engil keratoglobus, yuzagina nuktali xiralanish bilan namoyon bulgan. Yakindan kurish tugma miopiyaning kjori darajasida xam keratoglobus vujudga kelishi mumkin.

Shox pardaning yalliglanish patologiyasi tusatdan utkir boshlanishi va asta -sekin sezilmay surunkali bulishi mumkin. Utkir keratitlarning boshlanishi yoruglikka karay olmaslik, noma'lum narsa xalakit berishi, kuzning yoshlanishi, kovoklarning kisilishi (blefarospazm) va shox parda atrofidagi xalkali kon tomirlarning reaktiv kengayishi -

perikorneal in'ektsiyalar paydo bulishi bilan xarakterlanadi. Bu belgilar yigindisi shox parda sindromi deyiladi. Sekin boshlanadigan surunkali keratitlar esa kupincha engil perikorneal in'ektsiya va yoshlanish bilan yuzaga chikadi.

Shox parda yalliglanishi (keratitis) ning turli kurinishlarini bir tizimga solish uchun prof. P, F. Arxangelskiy uz tasnifini tavsiya kilgan. Bu hifokorlar uchun juda kulay, chunki bunda kasallikning kuzga kurinib turgan belgilariga karab diagnoz kuyiladi.

Keratitlar

Yarali keratitlar		**Yarasiz keratitlar**
Atrofda joylashgan yuza yarali keratilar	Uchuk yarali keratit	Chukur joylashgan yarasiz tuberkulyoz keratit
Suriluvchi (emaklovchi) yara	Eroziya	Chukur joylashgan yarasiz zaxm keratiti
Gonoblenoreya yarali keratit	Virus yarali keratit	Chukur joylashgan yarasiz toksoplazmoz keratiti
Korachechak yarali keratit	Zamburug yarali keratit	Chukur joylashgan yarasiz epidemik virusli keratiti
Difteriya yarali keratit	Keratopatiya yarasi	

ShOX PARDANING YIRINGLI YARALI KERATITLARI

Kuz shox pardasi chetlarida joylashadigan yarali keratit kupincha kari odamlarda uzok davom etadigan surunkali kon'yunktivitdan keyin paydo buladi. Shox pardaning limbga yakin kismida 1 - 2 mm kattalikdagi infiltratlar paydo bulib, keyin ular yarachalarga aylanadi. Bularning juda yuza joylashgan kon'yunktivit yoki blefarit ta'sirida vujudga kelganidan darak

beradi, Bunga kokk infektsiya va boshkalar sabab buladi. Antiseptik tomchi va malxamlardan tuzaladi. Ogir asorat bermaydi.

Shox pardaning suriluvchi yara si (ulcus cornea serpens) Bu shox pardaning ogir yallig yaralanishi. Odatda tusatdan kuzda kuchli sanchish, yoshlanish va ogrik bilan shox pardaning urtasida dumalok sargsh - kulrang infiltrat paydo bulishi bilan boshlanadi. Uning satxidagi epiteliy bir oz notekis buladi. Infiltrat tezda yorilib, yara paydo buladi. Yara atrofida shox parda xiralanadi. Asosiy belgilari shundan iboratki, yaraning kuz tirkishi yunalishidagi bir tomoni anchagina chukurlashib, sapsarik yiring boylaydi va tobora chukurlashib 1 - 2 kun ichida pardaning tinik tomoniga surilib ketaveradi. Yaraning ikkinchi, regressiv tomoni esa yiringdan tozalanadi va epiteliysi paydo buladi. Yalliglanish jarayoni kuchayib yiring tez orada kuz ichiga tomon xam suriladi.

Kuz oldingi kamerasida yiring - gipopion (hypopion) paydo bulishi bilan birga, undagi suyuklik xam yiringli loykalanadi. Rangdor parda yalliglanishi mumkin.Yara borgan sari chukurlashib kupincha yoriladi va rangdor parda undan kisilib chikadi. Gipopion kupayib va kuyuklashib, butun kamera yiringga tuladi. Suriluvchi yara tez fursatda aniklanib statsionarda davolansa, shox pardada ok chandikcha (Leucoma cornea) paydo bulishi bilan chegaralanadi. Xozirgi vaktda bu kasallik kam uchraydi va u kuchli antibiotiklar (linkomitsin, gentamitsin, seporin,kefalgin va boshkalar)dan birining kukuni yaraga kechkurun yotish oldidan sepilsa, uning novokaindagi eritmasi kon'yunktiva ostiga xar kuni 50 000 TB № 3 yuborilsa va kuzga tez - tez tomizilsa, sulfanilamid tabletkalaridan bemorga (1 tab x 3) ichirilsa kasallik tuzaladi, chunki bu yarani kuzgatuvchi pnevmokokk, streptokokk, stafilokokk, xatto Moraks - Aksenfeld diplobatsillalari bu kuchli antibiotiklar ta'siriga dosh berolmaydi.

Diagnozni uz vaktida kuya olish goyat muxim vazifa. Yukoridagi infektsiyalar kupincha ezda va kuzda shox parda epiteliysining juda kichik, xatto bemor uchun sezilmagan tirnalib zararlanishi natijasida uni yalliglantiradi. Bunday xolat ayniksa kuruvchilarda, tosh va marmar bilan ishlovchilarda va urmonchilarda, shuningdek surunkali yiringli dakriotsistit bilan ogrib yurganlarda uchrashi mumkin.

Kasallikning oldini olish uchun shaxsiy gigienaga amal kilish, kulni sovunlab yuvmay kuzga tegizmaslik, ishchilarni extiyotkorlikka urgatish, oftalmolog kuzga tushgan mayda yot jismni olib tashlagach dezinfektsiyalovchi dorilar tomizish zarur. Shox pardaning suriluvchiyarasi uz vaktida davolanmasa, u oylab davom etib yara yorilishi, rangdor parda bilan yopishib kuzda katta chandikli ok. (leucoma corneae adherens) paydo kilishi mumkin. Ayni vaktda infektsiya ichkariga surilib endoftalmit (ichki pardalar yalliglanishi) va panoftalmit (yalpisiga yalliglanish) va ftizis (phtisis) berib, kuz bujmayib koladi. Natijada bemor ojiz bulib koladi.

Shox pardaning gonoblenoreyali yiringli yarasi chakaloklarda odatda blenoreya kon'yunktiviti paytida yiring shox parda epiteliysini mayin tirnashi natijasida (matseratsiya) kupincha uning kok urtasida paydo buladi. Gonokokk juda toksinli bulgani uchun chakalokning murgak organizmini bushashtiradi va shu sababli yara juda tez kattalashib, shox pardani emirib yuboradi va kuz teshilib okib, keyinchalik juda katta chandik paydo kiladi. Katta odamlarda esa kon'yunktivaning shishuvi va blefarospazm natijasida shox pardanita'minlovchi kon tomirlari torayib, uning limbga yakin kismida yarachalar paydo buladi va bemor davolanib, tuzalgach yarachalar urnida gir aylana shaklidagi ok paydo buladi.

Tekshirganda shu yara yiringidan gonokokk topiladi, chunki katta yoshdagi odamlarda jinsiy gonoblenoreya bulganda ularning extiyotsizligi va gigienaga rioya kilmasligi okibatida ularda ogir kon'yunktivit boshlanadi.

Davolash umumiy sulfanilamid va antibiotiklarni kullash, kuzni furatsilin eritmasi bilan tez - tez yuvish, penitsillin, levomitsetin eritmalaridan tomizish va penitsillinning kuruk, poroshogidan sepish, malxam kuyish bilan olib boriladi.

Shox pardaning difteriyadan yalliglanish klinikasining umumiy belgilari shundan iboratki, kovoklar shishadi, yiring chikishidan tashkari difteriya toksinlari kizarib shishgan kovok kon'yunktivasi ustini tuk kul rang kukimtir nekroz parda bilan koplaydi. Bu parda zich yopishgan bulib, ajratganda kattik konaydi. Shunday parda bemorning tomogida, burnida xam bulishi mumkin.

Shox pardada infiltratlar paydo bulib, yoriladi, yaralanadi, nekroz paydo buladi va kalin chandik koldiradi. Kupincha yaralar yorilib, kuz puchayib koladi. Bemorning umumiy axvoli ogir bulib, isitmasi chikadi, boshi ogriydi, yakindagi limfa bezlari kattalashib ogriydi. Bunday ogir axvol profilaktikadan utmagan (zardob olmagan) bolalarda buladi. Xozirgi vaktda bu kasallik juda kamdan - kam uchraydi yoki butunlay uchramaydi.

Davolash antibiotiklar, difteriyaga karshi zardobni sxema bilan kullash va kuzga simptomatik dorilardan tomizishdan iborat.

Korachechakdan paydo buladigan shox parda yarasi limb oldida bir nechta yiringli pufakchalarga uxshagan infiltratlar paydo kilib, ular tez orada kupayib, shox pardada yara xosil kiladi, u yoriladi va chandik koldirib, ikkala kuzni ojizlikka olib boradi. Xozirgi vaktda mamlakatimizda chechak va uning okibatlari emlash yordamida yukotilgan.

Difteriya va chechakning umumiy ogir kasallik ekanligini va kuzga beradigan asoratlarini nazarda tutib, bu kasalliklarga karshi emlashni uz vaktida kat'iy reja bilan bajarish zarur.

Zamburugli keratitlar (Keratomycosis) keyingi yillarda antibiotik va kortikosteroidlar kup k,ullanishining natijasidir. Zamburuglar kuz tirkishiga tashkaridan shaxsiy gigienaga rioya kilmaslik okibatida (turli zamburuglar Candida Fusarium, Aspergillius)G` sabzavot va mevalardan (uzum, anor) xam tushishi mumkin. Ular shox parda markazida joylashib yara xosil kiladi (Ulcus cornea mycotica seu keratitis mycotica ulcerativa). Kulrang sargish yoki kulrang, duppayib turgan infiltrat anik chegaralangan dumalok shaklda bulib kurukrok satxi urtasidan yorilib, yaraga aylanadi. Tomirli parda ta'sirlanib gipopion paydo buladi. Suriluvchi yaradan farki shundaki, bunda yalliglanish jarayoni juda sekin kechadi. Progressiv va regressiv kirralari bulmaydi. Antibiotiklar xech foyda bermaydi. Anik diagnoz bakteriologik tekshiruvdan sung kuyiladi.

Davolash. Yodning spirtdagi 5% eritmasidan surtish, nistatinning 3000 TB 1,0 g eritmasi, levorinning 200 TB 1,0 g eritmasini tomizishG` 3 % nistatin malxami, levorinning 5% malxamini 3 maxaldan kuzga kuyish yordam beradi. Trixolizin tabletkasi (50000 TB) 3 maxal beriladi. Keratit va shox pardaning turli yaralaridan sung paydo buladigan ok chandiklarni operatsiya kilish mumkin. Chunki ular kuzni kurish xususiyatidan maxrum kiladilar. Bu

muammoni xal kilish akademiklar V, P. Filatov va N. A. Puchkovskayalar tomonidan mukammal ishlab chikilgan. V. P. Filatov shox parda chandigini markazidan kisman kavatma - kavat 3 -4 mm va 3 - 4 mm xamma varaklarini tamomila olib tashlab, urniga murdadan olingan va konservatsiya kilingan shox pardadan kuyib, kuzning kurish kobiliyatini tiklagan, shuningdek chandikli shox pardaning kok urtasiga sun'iysini kuyishga muvaffak bulgan. Xozirgi vaktda bu operatsiyalar respublikamizda xam amalga oshiriladi.

S h O X P A R D A N I N G Y I R I N G S I Z Y A R A L I K E R A T I T L A R I

Gerpesli keratitlar (keratitis herpetica). Gerpesni vujudga keltiradigan virus 1912 yilda aniklangan. Bu virus insonning bolalik davridayok onadan umumiy koshik bilan ovkatlantirilganda, bolani upib erkalashdan sulak orkali utadi va bir umrga koladi. 90% odamlarda bu virus organizm tukimalaridagi xujayra protoplazmasida joylashib olib, xech kanday belgi bermay

yotadi va kuchli titrli antitelolar xosil kiladi. Bu virusning faollashuviga turli shamolash kasalliklari, tomok ogrigi yoki kuzning yuza shikastlanishi va boshkalar sabab buladi.

Virus birinchi marta kuzga tushganda 7 -- 8 kundan keyin keratit paydo buladi. Epiteliyda yara paydo bulishi natijasida birlamchi va yuza joylashgan keratit, kovok chetlarida gerpes pufakchalari paydo buladi va atrofdagi limfa bezlari kattalashadi. Shox parda epiteliysi shishadi, mayda - mayda yarim tinik gerpes pufakchalari va yarachalari daraxt shoxchasiga uxshaydigan shaklni oladi va kuzda xiralanish paydo buladi. Ba'zida aftoz stomatit kuzatilishi xam mumkin va kasallik 18 - 20 kungacha davom etadi. Shox pardaning sezgirligi yukoladi, chunki virus neyrotrop nerv tolalarini zaxarlaydi. Belgilari juda xarakterli bulgani uchun umumiy shifokor xam diagnoz kuyishi mumkin. Yaxshi davolanmasa kup marta kaytariladi va shox parda chetlarida yiringiz yarachalar paydo buladi.

Yukorida aytilgan yuza keratitlar bilan birga chukur joylashgan virusli keratitlar xam buladi. Bu oldingi klinik kurinishdan fark kilib, shox parda urta varaklarida joylashgan yara kulrang doyra shakliga utadi. Atrofidagi epiteliy shishadi, destsemet varagida kat - kat chizikchalar paydo buladi, kon tomirlar vujudga kelmaydi. Rangdor parda va kipriksimon tana xam yalliglanib, gerpetik keratoiridotsiklitga aylanadi.

Davolash viruslarga karshi karatilib kuzga florenalning 0,1% li eritmasi, 0,5% malxami, oksalinning 0,1% eritmasi, 0,25 % malxami, bonafton, interferon kabilardan

qator gardishga o‘xshash burmachalar paydo bo‘ladi. Qorachiq torayganda esa burmachalar tekislanib,

o‘rni aylana tasmaga o‘xshab turadi. Rangdor pardaning eng yupqa 0,2

mm ga teng joyining kipiksimon tanaga o‘tishi chegara qismdir. Ko‘zga tushadigan yorug4 nurlarni

rangdor parda qorachig‘I o4zining torayish va kengayish xususiyati bilan nazorat qiladi, shuning uchun rangdor pardani ko‘zning tabiiy diafragmasi deb ataladi. Rangdor parda sezuvchi nerv tolalari n. Trigemi dan, vazomotor tolalari tsiliar tugunning simpatik nerv shoxchalaridan va harakatga keltiruvchi n.oculomotoriusdandir.

Ikkinchi kismi - kipriksimon tana (corpus ciliaris) - ko‘z soqqasi gardishi, oqsil parda qavati ichidagi bir butun halqa kengligi 8 mm - (burun tomoni 5,8 mm, chakka tomoni kengligi 6,7 mm) tasmaga

o‘xshab yotadi (114-rasm). Tomirli qavatning oldi qismi rangdor parda bilan orqa qismi xorioideyalar oraligida kipriksimon tana joylashgan. U shu pardaning eng qalin qismi boiib, rangdor parda bilan

chegaralangan joyining qalinligi 2 mm ga teng, chunki shu yerda uning muskulchasi m. Ciliaris joylashgan. Uning xorioideyaga o‘tish chizigi (ora serrata) esa kungiralidir. Kipriksimon tana sathi ikki xil tuzilishga ega. Uning rangdor pardaga yaqin - oldingi qismining ichki sathi ko‘z ichiga bo‘rtibroq chiqqan kiprikka o‘xshash tolalardan tuzilgan (processus ciliaris) juda ko‘p tolali (70 ga yaqin) tasmani eslatadi. Buni odatda kipriksimon chambarak (corena ciliaris) deyiladi. Tananing orqa, xorioideyaga o‘tish qismi bora-bora tekislanib yupqa gardish (orbiculus ciliaris) deb ataladi. Kipriksimon tanani meridian

yo'nalishida kesib qaraganda uchburchakli kesma paydo boiadi. Uchburchakning birinchi - ustki sathi oldingi - rangdor parda o‘zagi tomonga, ikkinchisi - orqa sathi xorioideyaga va uchinchi - to‘mtoq

sathi esa ko‘zgavhari tomonga qaragan boiadi. Kipriksimon tananing chambaragi ko‘z gavharini o‘rab olgan. Ular orasida kengligi o‘zgarib turadigan gavhar atrofi bo‘shlig‘i (sratium circum lental) bor.

Kipriksimon tananing oldingi sathidan boshlanadigan boylamchalar - Sinn boylamchalari (ligamentum Zinni) ko‘z gavhari ekvatorining orqa sathiga, uning orqa qismidan boshlanadigan boylamchalar

gavhar ekvatorining oldingi sathiga borib birikadi. Natijada gavhar atrofida bir-biri bilan kesishgan TSinn boylamchalari orasida Kloket kanaii (spatium Cloketi) paydo boiadiki, bunda kipriksimon tanadan

chiqqan suyuqlik - ko‘z ichi suyuqligi girdoblanib oqadi. Kipriksimon tanada ham birinchi- mezodermal varagi boiib, u ≪adashgan≫ to‘qima, muskul tolalari va juda ko‘p qon tomirlarga ega. Uning

ikkinchi (pigmentli) ektolermal varagi va to‘r pardaning o‘rta – optic qismidan rangdor pardaga qarab yo‘nalgan va ulaming orqa sathini yopgan ikkinchi ektodermal epitelial qismlari bor.

Demak, kipriksimon tanada ham, rangdor pardada ham ektodermal varaq bir juftdan. Rangdor pardada esa ikkita ektodermal va epitelial pigmentli varaqlar juda ko‘p pigmentli hamda qop-qora boigani uchun nur o‘tkazmaydi va ko‘z ichki pardalariga haddan tashqari ko‘p yorug‘ nurlar o‘tishidan saqlaydi.

Kipriksimon tanadagi mayin silliq muskullar uch xil - meridianal, radial va

tsirkulyar yo‘nalishlidir. Meridianal tolalar qisqarganda xorioideyani oldinga tortadi va bu m.chorioidea

deyiladi. Radial tolalar esa oqsil parda o ‘siqchasidan kipriksimon tana kiprikli va kipriksiz gardishlariga borib birikadi. Tsirkulyar tolalar esa ayrim-ayrim bog‘ichlar shaklida kiprikli qismda joylashgan. Kipriksimon tanada uch xil yo‘nalgan muskullar to‘plami ayrimayrim qisqarib akkomodativ

vazifani bajaradi. Kipriksimon tananing muskulli qatlami ostida tomirli qatlam o‘rin olgan. Bunda qon tomirlardan tashqari siyrak biriktiruvchi to‘qima, clastik tolalar va pigment hujayralari ko‘p.

Ko‘zning orqa qutbidan tomirli parda bilan oqsil parda orasidagi nozik bo‘shlig‘i spatium suprachoriodeadan kipriksimon tananing uzun arteriyasi o4ib kelib, kipriksimon tananing oldingi limbga yaqin yotgan arteriyasi bilan anastomozlab, rangdor pardaning kipriksimon tanaga o‘tish joyida ularning katta qon aylanish doirasini tashkil qiladi. Doiraning tolalari kipriksimon tana kiprikli qismini qon tomirlar bilan boyitadi. Bu esa kipriksimon tananing ko‘z ichi suyuqligi ishlab

chiqarishiga katta imkoniyat beradi. Kipriksimon tanadagi muskullar akkomodatsiya jarayonini ta’minlasa, uning kiprik epiteliysi ko‘z ichi

suyuqligi ishlanishini ta'minlaydi. Kipriksimon tanadagi qon tomirli qatlam ostida juda yupqa

shaklsiz, asosiy qatlam joylashgan, uning ostida esa pigmentli epiteliy va undan keyin pigmentsiz epiteliy qavatlari qatma-qat bo‘lib yotadi. Keyingi ikki-pigmentli va pigmentsiz qavatlardan biri- pigmentsizi to‘r

pardaning ko‘rmaydigan (optik emas) qismidir. Kipriksimon tanada nerv tolalari chigali yotadi. Uning sezuv nervi tolachalari uch tarmoqli nervning birinchi tolasidan, qon tomirlami kengaytirib-toraytirib

turuvchi va radial muskullarni harakatlantiruvchi tolalar esa simpatik nerv tolasidagi va aylana muskullarni harakatlantiruvchi tolalar - ko‘zni harakatlantiruvchi nerv (n.oculomotorius) tolalaridandir.

Uchinchi qism - xorioideya (chorioidea) - tomirli pardaning eng orqa qismi bo‘lib, u oqsil pardaning ichki sathiga suyanib yotadi Qalinligi 0,2-0,4 mm ga teng. Uning sathi kungirali chiziqdan to

ko‘ruv nervi diski qirrasigacha boigan masofaga teng va faqat shu

ikki o‘rinda oqsil pardaga yopishgan boiadi. Xorioideya gistologik 5 qatlamdan iborat (115-rasm).

1. Supraxorioideya - qon tomirlaming ustki qatlami juda yupqa

endoteliy bilan qoplangan ko‘p tolali pigment hujayralari bilan

ta’minlangan biriktiruvchi to'qimadan iborat.

2. Yirik diametrli arteriya va vena qon tomirlar qatlami.

3. 0 ‘rta diametrli arteriya va vena qon tomirlar qatlami.

4. Mayda - xoriokapillyar qon tomirlar qadami.

5. Brux membranasi - shishasimon tiniq, silliq va nafis parda, xoriokapillyar varag‘i bilan to*r parda pigment epiteliysi orasida yotgan membrana.

Xorioideya to‘r pardaning optik qismi bilan jipslashib yotadi. Xorioideyada sezuv nerv tolalari yo*q. Ko'zning orqa qutbidagi siliar arteriyasi qon tomirlaming 6-8 ta orqa qisqa tolalari xorioideya

qatlamlariga kirib, bir-biri bilan anastomozlangan holda uni arteriya qoni bilan ta’minlaydi. Xorioideya bilan to‘t pardaning hamkorligi ko'zning ko‘rish jarayonini yaxshilaydi, chunki xorioideyaning eng

ichki xoriokapillyar qatlami to‘r pardani qon bilan ta’minlab, unda moddalar almashinuvini tartibga solib turadi.

TOMIRLI PARDANING YALLIG ‘ LANISH

PATOLOGIYASI

Iridotsiklitlar. Ko‘z tomirli qavatning rangli pardasi (iris) yalliglanganda iritis, kipriksimon tana (corpus ciliaris) yallig‘langanda ciclitis va uning xususiy qismi (chorioidea) yalliglanganda chorioiditis deyiladi. Ko‘z soqqasi tomirli pardasining dastlabki ikki qismining tomirlari yagona va ta’minlanishi umumiy boigani uchun ko‘pincha o ‘tkir va tez boshlanadigan irit, 2-3 kun orasida siklit ham boshlanib, iridotsiklit

paydo bo‘ladi, lekin yalligianish jarayoni uning uchinchi qismi - xorioideyaga tezlik bilan olmaydi, chunki u boshqa qon tomirlar sistemasidan ta’minlanadi. Keyinchalik yalligianish unga ham oiganda iridociclohGrioiditis deyiladi. Ilgari ko‘z soqqasining tashqi qavati sklerani olib tashlab qaraganda ko‘z ko‘ruv nerviga osilib turgan bir dona qora tut (uvea) ni eslatgani uchun tomirli parda (uvea) deyilgan, iridotsikloxorioiditni qisqaroq qilib panuveitis deyilgan. Iridotsiklitni oldi uveit, xorioiditni orqa uveit ham deyilgan. Panuveitning sabablari ko‘pincha **endogen** sil, toksoplazmoz, zaxm, revmatizm, uchuq, gripp, allergiya, immun va autoimmune jarayonlardir. Shu munosabat bilan ko‘zga tushgan infektsiyalar

tomirU parda ichiga asta-sekin anafilaktik ta’sir oikazib surunkali uveitga sabab boiadi. Aseptik iridotsiklitlar ham bo‘lib, ular keratitlar ta’siri ostida vujudga

keladi. Masalan, loyqalangan ko‘z gavhari membranasi orqah siqadigan fakolitik toksinlar ta’siridan paydo boladigan surunkali iridotsiklit autoimun iridotsiklit hisoblanadi.

Ekzogen sababar.- viruslar, ko‘z shikastlanganda paydo boladigan banal infektsiyalar (strepto- stafilo- pnevmokokklar) o‘tkir iridotsiklitga olib keladi. Bunda paydo boladigan yalligianish

jarayoni ekssudatli, fibrinli, yiringli va gemorragik bolishi mumkin. Iridotsiklitlarning klinik belgilari - ko‘zning yoruglikka qaray olmashgi, ko‘zda sanchiq turishi, uning yoshlanishi, ko‘z tirqishlning

refleks sababli qisilib torayishi, perikorneal va aralash in’ektsiyalaming paydo bo‘lishidadir. Shuningdek, rangdor parda rang-tusi va naqshlari jilosining o‘zgarishi, qorachiqning torayishi bilan namoyon boiadi.

Bunda klinik simptomlarning asosida yalliglanishning 5 klassik belgilaryotadi: og‘riq, giperemiya (qizarish), shish paydo bo‘lishi, ko‘z issiqlik darajasining ko‘tarilishi va iris faol faoliyatining yo‘qolishidir.Shu belgilar sababli to‘qroq noaniq rang, ko‘k rang va qo‘y ko‘z rangli

irislar zanglagan buyumga o‘xshash qizg'ish sariq tus oladi. Paydo bolgan shish esa iris jiloli naqshlarni yo‘q qiladi va qorachiqning osongina kengayish-torayish faoliyatini susaytiradi va bora-bora

so‘ndiradi. Natijada torayib qolgan qorachiqning qirralari (infiltrate sababli) gavhar oldi sathi membranasiga nuqta-nuqta shaklida yopishib sinexiya (synechia) beradi. Agar iriodotsiklit sil yoki toksoplazmozdan boisa, keng va chuqur plastik yopishiqlarni uzib, qorachiqni kengaytirish uchun ko'zga

atropin tomiziladi, ba’zan sinexiyalardan bir-ikkitasi uzilmasa, qorachiqning shakli buzilib, uning markaziga nisbatan qop-qora ingichka nayzachaga yoki nayza tortganga o‘xshab qoladi.

Yalligianish zo‘raygan sari qorachiq qirrasining hammasi yopishib, aylana sinexiya (seclusio), ekssudatsiya yana ko‘paygach, qorachiq qizglsh-sariq rangga kirib, ekssudat bilan butunlay bekiladi. Bu occlusio pupilae deyiladi. Natijada ko‘z

ichi suyuqligi o'tish yollari bekilib, ko‘z bosimi ko‘tariladi, rangdor parda qorachiq atrofida bir oz do‘ppayib (iris bombe) iris bombaga o'xshab do‘ppayib qoladi va

ikkilamchi glaukoma paydo boiadi. Ba’zan ko'z oldi kamerasi tubida qon ko‘rinishi mumkin.

Yalligianish irisdan kipriksimon tanaga o‘tganini ko‘zning *lo ‘qillab og ‘riy boshlaganidart bilinadi.* Bu og4riq kechasi juda zo‘rayib bemorni juda bezovta qiladi. Atrofdagi qon tomirlar aralash

in’ektsiyasi qalinlashib binafsha rang tus oladi. Ko‘zni palpatsiya bilan tekshirganda bemor qattiq og'riq sezadi. Ko‘z ichi bosimi esa normadan pastga tushgan boiadi. Shox pardaning orqa sathida

cho‘kma donachalar (precipitat) paydo boiib, ularning maydaroq, yengilroqlari yuqoriroqda (markazga yaqin) va yirikroq, oglrroqlari pastroqda (limbga yaqin) qator terilib yotib , o‘tkir

cho‘qqili uchburchak shaklidagi o’ziga xos ko‘rinishni beradi. Sil va toksoplazmozli iridotsiklitda bu cho‘kma donachalar yirik va tolaroq sarglsh tusli boiadi. Revmatizm sababli iridotsiklitda esa

bu donachalar maydaroq, yupqaroq va ba’zan pigmentli boiadi. Ko‘z oldi kamerasida steril (mikrobsiz) yiring- gipopion (hypopion) paydo boiadi.

Yuqorida yozilgan simptomlar yiglndisi asosida iridotsiklit diagnozi qo‘yiladi. Bunday bemorlar zudlik bilan statsionargajoylashtirilib, toliq klinik laboratoriya tekshiruvlari o‘tkazilishi

lozim. Kasallik kelib chiqishining asosiy sababi aniqlangach, umumiydori-darmon va ko‘zga tegishli dorilar: dezinfektsiyalovchi,so‘riltiruvchi dorilar bilan bir qatorda, qorachiqni kengaytiruvchi

atropin, skopolaminning 1 foizli eritmasidan qorachiqni tezroq vayaxshiroq kengaytirish uchun tomiziladi.

Umuman *ekssudativ - yopishqoq (plastik) iridotsiklitlar*

tuberkulyozga taalluqli boiib, bunda odatda surunkali o‘tadiganyalligianish tezlik bilan ichkariga surilib, toliq panuveitga aylanadi.Agar tuberkulyoz iridotsikliti organizmida umumiy immuniteti bor

bemorda paydo boisa, u asta-sekin rivojlanib rangdor pardada

tuguncha (116-rasm) va juda quyuq katta-katta priyetsipitlar bilanko‘rinish beradi. Tugunchalar qizg‘ish-sariq bo‘lib, ular atrofida difTuzshish ham paydo bo‘ladi. Bir hafta - 10 kun ichida ular so‘rilib ketib,

o'mida va atrofida yanayangilari chiqaveradi va shu tariqa simmkaliuzoq davom etaveradi. Lekin sil iridotsiklitinin ikkala xilida ham qalinpretsepitatlar, ekssudat bo‘lib, yopishqoqlik (sinexiya, seklyiiziolar)

kuchli boladi. Ikkala ko‘z ham navbatma-navbat kasallanaveradi.Bunda to‘g‘ri diagnoz qo‘yish va davolash ishlarini puxta olib borishzarur. Ko‘z kasalliklarining og‘ir o‘tishini va o‘z vaqtida to‘g‘ri

davolanmasa odamni ojizlikka olib borishini inobatga olib,respublikamizning hamma viloyatlari va hududlarida tuberkulyozdispanserlari faoliyat ko‘rsatib kelayapti.

Toksoplazmoz iridotsiklitlari ko‘pincha toksoplazmozning hayotdayuqtirilgan turi bilan kasallangan odamlarda ham uchraydi.Toksoplazmalar qonga yoki ko‘zga tushganda shox parda, rangdor

parda va kipriksimon tananing o‘tkir yallig‘lanishi, ko‘zda yoshlanish,og‘riq berish va perikorneal in’ektsiya bilan boshlanib, rangdorpardadagi tugunchalar yoki diffiiz yopishqoq yallig‘lanish tezlik bilan

kipriksimon tanaga o‘tadi va proliferativ jarayon boshlanadi va judaog‘ir davom etadi. Cho‘kma donachalar yuzaga kelib, ko‘kimtirsarg‘ish ekssudat qorachiqni bekitib qo‘yadi va ikkilamchi glaukoma

kelib chiqadi. Ba’zan yiring shishasimon tanaga o‘tib endoftalmit yokipanoftalmit berib, 3-4 hafta ichida ko‘z xira tortib qoladi. Yallig‘lanishjarayoni shu tariqa surunkali davom etib, ikkinchi ko‘zni ham kasalga

chalintiradi. Bunday bemorlarning ko‘z ichi suyuqligidantoksoplazmani topish mumkin. Ko‘z yaqin atrofidagi limfa bezlaridag‘allanib kattalashadi va og'riqli bo‘ladi. Diagnoz, difTerentsial

diagnoz qo‘yish uchun anamnezning ham roli katta. Bemorningqaynamagan sut iste’mol qilishi, pishmagan qiymadan tatib ko‘rishi,qushxonada ishlashi yoki kasal mol, kuchuk, mushukni boqishi,shaxsiy gigiyenaga e’tibor bermasligi va boshqalar bu kasallikni yuqtirishga sabab bo‘ladi

KLINIK MASHXULOT

Oftalmoskopiya - ko‘z tubini tekshirib to‘r parda. tomirli parda va ko‘z ko‘ruv nervi diskining holatini maxsus asbob – oftalmoskop yordamida o‘rganish usulidir

Oftalmoskopiya usulini o‘rganishdan oldin ko‘z tubining normal holati bilan, oftalmoskop va uning paydo boish tarixi bilan qisqacha tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, ko‘z tubini ikkita asosiy qavat - to‘r parda va tomirli parda tashkil etadi. Normada oftalmoskopiya yordamida faqat to‘r pardaning qismlari aniq ko‘rinadi, patologiyada esa, tomirli

pardadagi o‘zgarishlar ham namoyon bo‘ladi. Normada ko‘z tubining asosan uch qismi bor. Uning birinchisi - ko‘rish nervi diski - dumaloq, rangi och-pushti va chegaralari aniqdir.

Diskning ortasidagi to‘r parda markaziy arteriyasi kirib, to ‘r pardada shoxlanadi va markaziy vena shoxlari ham yonma-yon yotadi, shu arteriya va vena tomirlari kalibrining o‘zaro nisbatan

2:3 boladi. Ikkinchisi - sariq dog`, bu ko‘z tubining o`rtasiga joylashgan, rangi biroz kul rang sarg‘ish bo‘lib, o‘rtasida pushti rang markaziy chuqurchasi bor. Bu yerda asosan kolbachasimon

hujayralar bo‘lib, normada qon tomirlar yo`q. Uchinchi qismi – bu ko`z tubining cheti- atrofi tekis qizil rangli va qon tomirlar shoxlari yoyilgan qismidir . Ko`z tubini tekshirishda

oftalmoskopning ahamiyati katta. Buning eng sodda xilini 1850 yilda Gelmgolts ixtiro qilib, oftalmologiyaning ikkinchi ≪yorug`lik≫ yokin≪nurli≫ davrini boshlab bergan. Chunki qadim zamonlardan - oftalmoskop ixtiro qilingan davrgacha oftalmologlar ko`z tubini ko‘rolmaganlar. Shu sababli u davr ≪qorong`i davr≫ deyilgan.

Shifokor odatda ko`z tubini oftalmoskop yordamida tekshirishni ko‘rish nervi diskidan boshlab, so`ngra sariq dog` va nihoyat to`r parda chetlarini qarab yozib chiqadi.

Oftalmoskopiyaning ikkita usuli bo'lib, birinchisi teskari oftalmoskopiya va ikkinchisi to‘gri oftalmoskopiya deyiladi. Hozirgi zamonda takomillashtirilgan elektr oftalmoskop, binoklli

oftalmoskop va oftalmoxromoskoplar bor

. 

Biomikroskopiya

Tayyorgarlik

-qorongu xonada bajarish

-Tekshirishdan oldin bemorni tayyorlash, tekshirish o’tkazish to’g’risida bemorga tushuntiriladi

Kerakli jihozlar:stul, predmet

O’tkazishtexnikasi

Bemor mikroskop stuliga o’tirgan holda, hakim bemorning ro’parasida turadi Bemor boshini qimirlatmasdan turib, qaraydi

Biomikroskopiya usulida ko`zning tubigacha bo`lgan qism ko`rinadi.
Biomikroskopiya ko`zni 5-60 martagacha kattalashtirib ko`rsatadi

Bu usul orqali ko’z olmasining tashqi va uchki qismlari tekshiriladi

11-Mavzu Gavxar kasalliklari (asoratlangan katarakta)

Mashqulot vaqti-	Talabalar soni: 10 nafar
Mashqulot shakli	Amaliy mashғulot

Mashqulot rejasi	1.Katarakta kasalligi xakida tushuncha 2. Katarakta dif diagnostikasi. 3. Katarakta kasalligini zamonaviy davolash usullari.
O’quv mashqulotining maqsadi:	Talabalar bemorning umumiy axvoliga ob’ektiv baxo berish uchun kuz-a’zolarini ko’rish va tekshirish usullarini o’zlashtirish bo’yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish.
Ta’lim berish usullari	Multimediya.Interfaol usul:
Ta’lim berish shakllari	Jamoaviy
Ta’lim berish vositalari	Uquv-uslubiy ishlanma,elektron darsliklar,kompyuter
Ta’lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baxolash	

11 Amaliy mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
	Kirish	5 minut
	Talabalarni dastlabki bilimini tekshirish a) og’zaki suxbat b)interaktiv usullar yordamida va boshqalar	10 minut 15 minut
	Amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirish a)qabul bo’limi hujjatlari va ularni to’ldirish qoidalari bilan tanishish	10 minut 25 minut
	Talabalar bilim darajasini baholash	10 minut

	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
		80 minut

Klinik mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

№	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
1	Kirish	5 minut
2	Bemorlar kuratsiyasi	30 minut
3	Bemorlarni kasallik tarixi bilan tanishish	10 minut
4	Jamoa bilan bemorlar taxlili	10 minut
5	Amaliy ko’nikma	10 minut
6	Retsept yozish	10 minut

7	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
Jami:		80 minut

KO‘Z GAVHARINING PATOLOGIYASI

Koz **gavhari (Lcnscristallina)** aylana shaklidagi, ikki sathi bo‘rtiqlinzani eslatadi. Ko‘z gavhari qorachiqning orqasida joylashganbo‘lib, kipriksimon tanadan chiqib, ko‘p sonli juda nozik sinn

boylamlari uning ekvatoriga kelib yopishadi va o‘z o‘rnida ushlabturadi.

Gavharning oldi va orqa sathi va o‘ziga xos oldingi va orqakapsulasi bor. Ularning bir-biriga o‘tish chegarasi ekvator deyiladi.Gavhar ikki sathining qoq o ‘rtasi, uning oldi va orqa qutbi

hisoblanadi. Bu qutblar o‘rtasidan o‘tadigan chiziq gavharning o‘qi

deb ataladi .Ko‘z gavhari katta odamlarda bolalardagiga nisbatan bir ozsarg‘ishroq, lekin juda tiniq va musaffo bo‘lgani uchun o‘zidanyorug* nurlarni o‘tkazadi va ularni 18-20 dptr gacha sindirish

qobiliyatiga ega. Koʻz gavharining qaliniigi 3,5 mm ga, diametri 9-10 mm ga teng. Gavharning qobigʻi juda nafis va elastik boʻlib, uningichida tolalar, yadro va kortikal qatlamlar joylashgan. Gavhar

kapsulasining elastikligi koʻrish jarayonida uning qabariqliginingkoʻpayishi, kamayishi va qalinligining oʻzgarishiga imkon beradi.Uning bu xususiyati koʻz akkomodatsiyasiga mansubdir. Koʻz

gavhari oldi qobigʻining ichki sathi bir qavat silindrsimon epiteliybilan qoplangan. Bu epiteliy hujayralari betartib joylashgan boʻladi.Faqat uning ekvator qismida bu hujayralar bir qator boʻlib, tartib

olmaydi. Bu holat koʻz qariligi (Presbyopia) deyiladi. Koʻz gavharidaqon tomirlar yoʻq. Shuning uchun unda moddalar almashuvi ko*zichi suyuqligidagi eng sifatli moddalar hisobidan b o ʻladi.

Patologiyada koʻz gavhari faqat loyqalanishi mumkin.Koʻz gavhari kipriksimon tana bilan birga k o ʻz ichidagidiafragmani tashkil qiladi. Bu diafragma koʻz boʻshligʻini bir-biriga

teng boʻlmagan, oldingisi kichikroq va orqadagisi kattaroq ikkiqismga boiadi.Gavhar ko4zning xususiy qon tomirsiz qismlaridan biri boʻlganiuchun unda modda almashinuvi asosan koʻz ichi suyuqligi hisobidan

boʻladi. Qon tomirsiz gavharda yallig'lanish jarayoni va oʻsma-shishham boʻlmaydi. Gavharning patologiyasi uning juda murakkabbioximiyaviy tarkibidagi modda almashinuvida oz b o ʻlsada

oʻzgarishlar paydo boʻlganda vujudga keladi. Gavharning koʻp qisminisuv tashkil etib, chaqaloq va juda yosh bolalarda u 73%, kattaodamlarda 60-65% dir. Yuqori sifatli oqsil moddasi (a-kristallin,

albumin, P-kristallin) gavhar hajmining 35%, umumiy oqsili 17%,lipidlar (xolesterin, letsitin) 2% ni tashkil etadi. Minerallardan temir,sulfatlar, fosfatlar bor. Oksidlanishni aktivlashtiruvchi tarkibiy qismlar

-xloridlar- K, Ca, Na va magniy, mis, rux ham bor. Normada askorbinkislotasi inson yoshiga qarab 44,2% dan 4,2% gacha bo‘ladi.Glyutation, riboflavin, ATFlar gavharda ko‘p bo‘ladi, lekin yosh

oshgan sari unda suv, askorbin kislotasi, glyutation, riboflavinlarkamayaveradi. Lipidlardan esa letsitin kamayib, xolesterin ko‘payadi,Na, Ca, fosfor ko‘payib, K kamayadi. Kislorod va vodorodning

kontsentratsiyasi glyutation, sistein, glitsinning aktivligiga bog‘liq.Modda almashinuvida ulami roli katta.

Demak, ko‘z gavhari o‘z tuzilishi, murakkab tarkibi va juda nozikfizik-kimyoviy xossalari bilan xarakterlanadi. Bunday muhimjarayonning normal kechishi yosh va sog‘lom odamlarda bo‘ladi.

Lekin 60 yoshdan so‘ng borgan sari organizmda fizik-kimyoviyo‘zgarishlar vujudga keladi va ayniqsa,organizmning umumiykasalliklari natijasida gavharda patologiya paydo bo‘lsa, uningnormal tarkibida loyqalanish vujudga keladi. Gavharningloyqalanishi katarakta deyiladi. Ko‘z gavhari loyqalanib kataraktabo‘lganda qorachiq och kulrang tus oladi.

Abu Ali Ibn Sino ko‘z anatomiyasini o‘rganib, ko‘z gavhariningtuzilishi va ko‘z uchun ahamiyatini tasvirlagan. Ko‘p asrlardanbuyon gavhar va uning patologiyasi olimlarning diqqat markazida

bo‘lishiga qaramay hozirgi paytgacha kataraktaning patogenezihaqida juda aniq bir ma’lumot yo‘q.

Oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra yapon olimi Ogino (1957) kataraktaxinon moddalarining ta’siridan paydo boladi degan. 1979 yilda esa,Piri va van Geyningen katarakta paydo bo‘lgan ko‘zda xinon moddasini

topmagan. Keyingi vaqtlarda olib borilgan ilmiy ishlarda kataraktaningpaydo bolish sabablari membranologiya nuqtai nazaridan qaraladi.Shu asosda, kataraktaning boshlanishi gavhar kapsulasidagi va gavhartolalari membranasidagi lipidlarning oksidlanishi jadallanishmahsulotining ta’siridan kelib chiqishi

aniqlangan. Chunki normalgavharda perekis oksidlanishining bir qism mahsulotlari paydo bo‘ladiyu,

lekin bu ko‘zning o‘zidagi antioksidant mexanizmi moddalari tizimitomonidan zararsizlantirilaveradi. Biror nojo‘ya sabab (qattiq hayajon,vitamin va fermentlaming, oqsil yoki mineral moddalaming almashinuviyoki ular o‘zaro munosabatining o‘zgarishi) ta’siri ostida gavhardagi

antioksidantlar tizimining buzilishidan, lipidlarning perekis oksidlanishimahsulotlari yig‘ilib qolib, gavharga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kataraktaboshlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bemor ko‘zida kataraktaendigina boshlangan davrda antioksidantlar - askorbin kislotasi,riboflavin, vitamin B, ATF, glyukozalardan qollab davolansa patologikjarayonni to‘xtatish mumkin.

Katciraktalar tug'ma va hayotda orttirilgan **bo‘ladi.**

Tug‘ma kataraktalarda loyqalanishning qaysi qismgataalluqligiga qarab, oldi va orqa qutb kataraktasi (Cataracta polarisant. et posterior), kortikal katarakta (Cataracta corticalis), qavatmaqavat

(cataracta zonularis), qobiq kataraktasi (cataracta capsularis)va to‘liq katarakta (cataracta totalis) deyiladi Tug‘makataraktaning o‘ziga xos 3 asosiy belgisi bor: 1. Ikkala ko‘zda birvaqtda paydo bo'ladi. 2. Konsistentsiyasi yumshoq bo‘ladi. 3.

Loyqalanish avj olmay bir xilda turadi.

1. *Oldi va orqa qutb kataraktasi* gavharning oldi va orqaqutbi markazida ochko‘kimtir nuqtaga o\\shab turadi. Oldi qutbkataraktasi k o ‘zning ilk embrional davrida uning umumiy

ektodermadan ajralish jarayoni paytidagi patologiyadir. Orqa qutbkataraktasi esa, shishasimon tanaarteriyasi (a. hyaloidea) ninghomiladagi bola tug‘ilguncha so‘rilib ketishi lozim bo‘lgan jarayon

qandaydir sabab bilan o‘z vaqtidan kechroq tugaganida paydobo‘ladi. Bu ikki ko‘rinishdagi qutb kataraktasi kichkina (2-3 mm)bo‘lgani uchun ko^ning ko‘rishi ham 4-5 qatorga teng bo‘ladi va

uni operatsiya qilishga ehtiyoj qolmaydi .

TUG‘MA KATARAKTALAR

2. *Kortikal katarakta* - embrional yadro atrofida loyqalanishpaydo bo‘lishidan vujudga keladi, bunda gavhar onhko‘kimtir tusolib, diffuz loyqalanish bo‘ladi. Ko‘zning ko‘rishi pasayadi,operatsiya lozim bo‘ladi.

3.*Qavatma-qavat zonulyar katarakta* - gavhar markazidagi tiniqyadro va uning atrofidagi tiniq kortikal qismi orasida bir nechanotiniq qavatlar oralab yotadi. Bu holat qorachiqni kengaytirib,nur yordamida qaralganda juda yaxshi ko‘rinadi. Agar notiniqqavatlarda loyqalanish qalin bo‘lsa, ko‘zning ko‘rish qobiliyati hamancha pasayadi. Bunday bemorlarda gavharning o ‘rtasidaloyqalanish yupqaroq boMgani uchun u qizg‘ishroq va chetlari(ekvatorida) esa loyqalanish qalinroq bo‘lgani va ekvator qirrasidan

5-6 ta arra tishi shaklidagi ayrim-ayrim bo‘rtiqchalar chiqib turganio‘ziga xos ko‘rinish beradi. Bu bo‘rtiqchalar gavhar ekvatoriningustiga minib turgan ≪suvoriyni≫ eslatadi. Yonidan yoritibqaralganda bu shakllar och va to‘q kulrang bo‘lib ko‘rinsa, o ‘tuvchinurlarda tekshirilganda bular qizil refleks fonida qora bo‘libko‘rinadi. Bu kataraktada ekvator sohasidagi loyqalanish qalinroqbo‘lgani uchun u qoraroq, o‘rtasi yupqaroq bo‘lgani uchunqizg‘ishroq ko'rinib, teshik kulchani ham eslatadi.

4. Homila davrida gavharda modda almashinuvining buzilishiga,ayniqsa kaltsiy tuzlarining yetishmasligi sabab bo‘ladi. Bundaybolalarda raxit, spazmofiliya va tishlar patologiyasi ham bo‘ladi.

Bolaning ko‘rish qobiliyati juda past bo ‘lsa, operatsiya qilibloyqalangan massalar so‘rilib tashlanib, unga kontakt linza yoki ko‘zichiga linza qo‘yish tavsiya etiladi.5. Kortikal27 diffuz kataraktada gavharning hamma kortikalqismi bir xilda

loyqalanadi. Yonidan yorug‘lik tushirib qaralgandaqorachiq oq ko‘kimtir tusda ko‘rinadi. Gavhar notiniq boMganiuchun nur yurgizib ko‘rib bo‘lmaydi. Ko‘zning ko‘rishi juda pasayib,faqat yorug‘ni ko‘radi xolos. Shuning uchun kataraktaning bu turi

qancha vaqtli operatsiya qilinsa, shuncha natijali bo‘ladi, chunkibunday k o ‘z uzoq vaqt k o ‘rmay yurganda to ‘r pardadagihujayralarning faoliyatsizligidan ko ‘rish qobiliyati susayib

ambliopiyaga olib boradi

HAYOT DAVOMIDA ORTTIRILGAN

KATARAKTALAR

Hayot davomida orttirilgan kataraktalarning juda k o ‘puchraydigani qarilik kataraktasi **(Cataracta** senilis) dir. Bundan

Qarilik kataraktasining 4 klinik davri bor: 1. Boshlang'ich katarakta(Cataracta incipiens). 2. Yetilmagan katarakta (Cataracta nondummatura). 3. Yetilgan katarakta (Cataracta matura). 4. 0 ‘ta pishgan

katarakta (Cataracta hypermatura) (154-rasm, a,b,v,g). Qarilikkataraktasining gavhar kortikal qismidan boshlanadigan turi birinchidavrda loyqalanish gavharning periferik ekvatoriga, kortikal qavatning

oldi yoki orqa xaltasiga yaqin qismdau juda nozik nuqta yoki chiziqlarshaklida boslilanadi va radial yo‘nalish olib, gavharning oldi yoki orqaqutbida, keng tomoni esa eksvator tomonda yotadi. Bular qorachiqkengaytirilganda yonidan nur tushirib qaralganda oq kulrang nuqta vachiziqlarga o‘xshab ko'rinadi. Nur yurgizib qaralganda esa, qizg‘ishsatlida qora tus olib ko‘rinadi. Loyqalanish juda kamdan-kam qorachiqmarkazda - yadro oldi, yo orqasi, kortikal qavatlaridan birida paydobo‘ladi. Bunda diffuz oq kulrang boiib ko‘iinadi. Loyqalanishningekvatordan boshlanadigan variantida ko‘zning ko4rishi uzoq vaqtgachao‘zgannaydi, ikkiuclii yadro variantida esa ko'rish tez pasayadi va bemor

ko‘zi oldida yengil tuman paydo boladi. Hozirgi vaqtda gavhardaloyqalanishning birinchi variantini ko‘rgan oftalmolog tezlik bilan uniro‘yxatga olib, konservativ davolashni boshlashi zarur. Bemorga

boshlang‘ich katarakta to ‘g‘risida ma’lumot berib, ungaprofilaktikaning ahamiyatini tushuntirib bersa va bemor erta davolanaboshlasa natija yaxshi bo‘ladi. Hatto qarilik kataraktasining oldini olish

uchun 40 yoshdan oshgan odamlarda ambulator profilaktiktekshirishlarni o‘tkazish mumkin.

Ma’lum vaqt o4gach har bir bemorning immun holatiga qarab(2-4 yil ichida) kataraktaning birinchi boshlang‘ich davridagi ‘zgarishlar ma’lum darajaga yetgach, uning ikkinchi davripishmagan davriga o‘tadi. Loyqalangan chiziq - tolalar qalinlashib,bir-biri bilan aralashib qorachiq zonasiga yetib keladi va ular birozshishadi, yadro atrofiga tarqaladi va ko‘rishni pasaytiradi.Tolalarning shishuvi gavhar membranasining ko‘z ichi suyuqligidansuvni ko‘proq gavhar tarkibiga o‘tkazib suvlanishidan bo‘ladi. Bu2-davr - pishmagan kataraktaning klinik simptomlari, birinchidan*oldi kamera chuqurligining kichrayishi, ikkinchidan, gavharninghamma tola (kortikal qavati)larining to ‘liq loyqalanmaganimunosabati bilan yonidan nur tushirib qaraganda, qorachiq qirrasiostida o‘roqsimon soya paydo bo‘lishi, uchinchidan, ko‘rishninganchagina pasayishidadir. Ko‘rish 0,1-0.2 ga teng boMishi mumkin.***3-davr kataraktaning pishgan, yetilgan davri*** (cataracta matura)deyiladi. Bu davrda gavhar membranasi o ‘tkazuvchanligi teskari,tashqi tomonga yurib o ‘tib, undan suv qisman chiqib ketishi

natijasida gavharning hajmi biroz kichrayib, boshlang‘ich davridagio‘z holiga qaytadi. Shuning uchun oldi kamera yana normal holigakeladi. Gavharning to‘liq loyqalanganidan rangdor pardaga oidqorachiq qirrasi yonidagi o‘roqsimon soya ham yo‘qoladi. Ko‘zningbuyumlar shaklini ajrata bilish qobiliyati ham (gavhar to ‘liqloyqalanganidan) y o ‘qolib, k o ‘zning faqat yorug‘lik sezishqobiliyatigina saqlanadi. Odatda katarakta operatsiyasi gavharningto‘liq loyqalanish davriga to ‘g‘ri kelsa, massalar va yadrolarinigavhar qobig‘idan yuvib oson ajratib olsa bo‘ladi.

4-davr kataraktaning o'ta pishib yetilgan davri (cataractahypermatura) deyiladi. Bunda, birinchidan, loyqalangan tolalararalashib bir xil loyqalangan massa kulrang tusga kiradi.

Ikkinchidan, gavhar kichrayib, oldi kamera chuqurlashadi.Uchinchidan, ko‘z soqqasi harakatlanganda rangdor parda (gavharkichrayganidan) shamolda eshik pardasiga o ‘xshab silkinib

qimirlaydigan bo‘ladi. Bu iridodonesis deyiladi. Ko‘z kichrayganyadro yoni atrofidan ko‘ra boshlaydi. Bu katarakta o‘ta pishgandavri klinik simptomlari o‘zgarishining birinchi variantidir.

2-variantida esa gavhar suvlanib, tolalarining to ‘laloyqalanishidan so‘ng kortikal moddalar suyuqlanib, oppoq sutga

o ‘xshab qoladi. Uning yadrosi pastga cho‘kib tushib, k o ‘zqimirlaganda oq sujoiqlik ichida sarg‘ish yadro har yoqqa siljibyuradi.

OЧa pishib yetilgan kataraktaning bu ikkinchi varianti

oppoq, suyuq bolgani uchun **≪sut kataraktasi≫** deyiladi. Buni birinchimarta Morgan yozib chiqqani uchun Morgan kataraktasi deyiladi.Katarakataga mubtalo bo‘lgan bemorlar ko‘zi gavharning

kortikal moddalarida loyqalanib paydo bo‘lgan nayzalarningmarkazgacha o‘sgan ingichka uchlari qorachiq qirrasidan o ‘rtagapicha o‘tganda seza boshlaydilar. Ular ko‘ziga bir narsa halaqit

berayotgani uchun uni qayta-qayta artib, bu noxush sezgidanqutulmoqchi b o ‘ladilar. Lekin iloj bo4lmagach, oftalmologgamurojaat qiladilar. Oftalmolog odatdagi tekshirish usullarini qo‘llab,

sinchiklab tekshiradi va boshlang‘ich katarakta tashxisini qo‘yib,bemorni ro ‘yxatga oladi va davolash usullari rejasini bemorga

tushuntiradi.Kataraktaning *ikkinchi dovrida esa* bemorlar odatda ko‘zoynaklarsiz

yaqindan k o ‘radigan bo4lganiga hayron bo‘lib, oftalmologgaxursandchilik bilan xabar qiladilar. Vrach bemorga qarilik kataraktasigauchraganini tushuntirib dori-darmonlar tayinlaydi. Nima uchunkataraktaning 2-davrida bemor yaqindan ko‘radigan bo‘ladi? Chunkiuning ko‘z gavhari suvlanib qalinlashib fokusi qisqarganidan miopiyapaydo bo4ladi. Kataraktaning ikkinchi davrida loyqalanish gavharning

hamma joyida bir xil bo4lmaydi va nur sindirish qobiliyati ham turlichabo‘ladi. Shuning uchun monokulyar poliopiyam, ya’ni bir ko‘z bilanqaraganda lampaning 2-3 ta bo‘lib ko‘rishiga tushuna olmay bemoryana mutaxassisga boradi.

3-davrda esa, bemor ko‘zida xiralanish zo‘rayib ketadi va buyumlarhaklini ajrata olmay qoladi. Yaqin odamlarini ham, ulaming qoshko‘zini ham ajrata olmay qolgach juda hayajonlanadi. Bemor bundan

iztirob chekadi, ko‘pincha qattiq ta ’sirlanib, hatto qon bosimiko‘tariladi. Ayniqsa, agar ikkinchi ko‘zda ham katarakta boshlanibxiralangan bo‘lsa, xafsalasiz bemor davolanishga uncha shoshilmasdan

≪ikkinchi ko‘zim ko‘ryapti-ku≫ deb yuraversa, 4-davr boshlangach,yadro atrofi yupqalashib so‘rilgach, kataraktali ko‘rmaydigan ko‘zko‘ra boshlaydi. Unda bemor suyunib, biroz qiyshiqroq qarab ≪manako‘zim ko‘ryapti≫ deb yurishi ham mumkin edi.Lekin hozirgi vaqtda respubhkamizning hamma viloyat, shaharva tumanlarida yaxshi jihozlangan k o ‘z shifoxonalari, k o ‘z

kasalliklari kabinetlarida malakah shifokorlar ishlab turibdi. Agarbemorlar ko‘z kaseilliklari boshlanishi bilan kechikmay o‘z vaqtida

ularga murojaat qilsalar bunday xastaliklardan forig4 bo‘ladilar.Kortikald kataraktaning gavhar ekvatoridan boshlanib, uzoq davometib, ko4rishga tez vaqt ichida xalaqit bermasligidan bemorlar kechroq

xabar topadilar. Shuning uchun 40-50 yoshdan oshgan odamlarniprofilaktik nazoratdan o4tkazishni tashkil qilishning ahamiyati katta.

Patologiya oqibatida paydo bo‘ladigan katarakta Turli kasalliklar natijasida paydo bo'ladigan kataraktalar **asorat**

kataraktasi (catarakta complicata) deyiladi. Bunday kataraktalar.birinchidan, k o ‘z soqqasida bo‘ladigan uveit, uveapatiyalar,glaukoma, to ‘r pardaning siljishi, yuqori darajali miopiyalar

oqibatida bo‘lsa, ikkinchidan, umumiy kasalliklarda - qand kasali,ateroskleroz, gipertoniya oqibatida ham paydo bo‘ladi. Ko‘z ichidapaydo bo‘lgan patologiya oqibatidagi kataraktalarda loyqalanish

gavhar orqa qobig‘ining qutbi ostidagi kortikal qavatlarda paydobo‘lib, uning atrofi qalinroq, tovoqchaga o‘xshash shakl oladi.Shuning uchun buni chashkasimon katarakta deyiladi. Ba’zan bu

o‘zgarish uzoq vaqtgacha shunday qolaveradi, lekin ko‘pinchaloyqalanish ko‘payib, to‘liq kataraktaga o ‘tadi va rangi to‘q sariqbo‘ladi. Bu jarayon qarilik kataraktasiga nisbatan ancha tez o‘tadi.

Qand kasalligi kataraktasi catarakta diabetica farq qilinadi.Loyqalanish ikkala ko‘zda boshlanib, gavharning oldingi va orqaqobiqqa juda yaqin yotgan massalarida nuqta, tola va hatto vakuola

shaklida bo‘ladi va tez avj olib ketib, ko‘zning ko‘rishini pasaytiradi.Yadro ham xiralanib, katarakta sarg‘ish tus oladi. Diabetkataraktasining oldini olish uchun endokrinolog-oftalmolog hamma

diabetli kasallar ko‘zini reja bilan batafsil tekshirib yurib, uningboshlang‘ich belgilarini topgandan so‘ng, bemorni to‘liq (umumiykasallikni ham, ko‘zini ham) davolasa, bu jarayonni qaytarish hammumkin. Bunda umumiy dorilardan tashqari, ko‘zga senkatalin,katalin, kataxrom, vitalakorl va antioksidant dorilarda tashkiltopgan aralashma va kislorodning in’ektsiyalari bilan davolashdanatija yaxshi bo‘ladi. Agar konservativ davolashning vaqti o‘tganbo‘lsa, unda jarrohlik usuli qo‘llaniladi. Operatsiyadan oldin bemorniklinik va laboratoriya usullari bilan obdon tekshirish zarur. Buoperatsiyaning asoratlari: qon quyilishi, chandiq paydo boMishlardan

saqlaydi.Diabet kataraktasi ham ateroskleroz, gipertoniya oqibatida

bo‘ladigan kataraktalar ham anchagina tez rivojlanishi bilan ajralibturadi.

Qarilik kataraktasining boshlanishidagi patomorfologiko‘zgarishlar gavharning bir oz suvlanishi natijasida kapsula ostidagiqavatlarda vakuolalar paydo bo‘lishi, gavhar tolalari oraliqlarida

suv yig‘ilib, ularni bir-biridan qavatlarga ajratib oralarida suvlitirqishlar paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Keyinchalik gavhartolalari ham parchalanib, loyqalangan detrit paydo bo‘ladi. Borabora

suvlanish va suvli tirqishlar ko‘payib, modda almashinuvibutunlay izdan chiqqandan keyin loyqalangan tolalar parchalanadi,tirqish va vokuolalar loyqalangan detrit bilan to‘lib, umumiyparchalanishdan gavhar butunlay xiralanadi. Bunday

patoformologik jarayonning qarilik kataraktasidagi dinamikasiko‘pincha asta-sekin 4-6 yil davom etadi. Qand kasalligi, ateroskleroz

va gipertoniya sababli paydo bo‘lgan kataraktada turli umumiypatologiya bo‘lgani uchun, bu jarayonancha tez rivojlanib, 1-3 yildavomida ko‘zni ojizlikka olib boradi. Qavatlanish ham ko'payib,gavharning butun qobiq qismiga tarqaladi.

Shikastlanish kataraktasi. Shikastlanish kataraktasi (cataracta traumatica) k o ‘zshikastiangan paytda gavhar qobig‘ida juda kichkina bir teshik

paydo bo‘lgan taqdirda ham u fibrin bilan bekilib, shu joydankichkina oq nuqta shaklidagi loyqalanish hosil bo ‘ladi. Agarshikastlanish paytida gavharga kattaroq zarb yetib, unda yorilish

kattaroq - chuqurroq bo‘lsa, unda oldi kamera suyuqligining ta ’sirinatijasida gavhar tolalari shishadi va loyqalanadi. Loyqalanishningborgan sari ko'payishi bilan kortikal moddalarning hammasi

loyqalanib shishadi, qobiqning yorilgan joyidan oldi kameragaitarilib chiqib so‘rilaveradi. Yosh bolalar gavharida yadro bo'lmaganiuchun uning massalari so‘rila-so‘rila faqat qobig‘i qoladi. Buni

pardasimon katarakta deyiladi. Kattalarda esa so‘rilish jarayoni qiyinbo'ladi va yadro, uning atrofidagi massalar so‘rilmay qoladi. Agarko‘z shikastlanishi rangdor parda va kipriksimon tanada yalligianish

qo‘zg‘atgan bo‘lsa, unda ko‘zning ahvoli og‘irlashadi. Ba’zanshikasdanish ko‘zning oz-moz zarb yeyishi bilan chegaralansa (engilkontuziya) loyqalanish kuchli bo‘lmay, biroz vaqtdan keyin so‘rilibketishi ham mumkin. Ko‘z qattiq shikastlanib gavhar kuchli

loyqalanganda uni jarrohlik usuli bilan davolanadi. Nurlar ta’siridaham katarakta hosil bo‘ladi.

Nur kataraktasi

Nur kataraktasi gavhar tolalarining distrofik buzilishidan iborat.

Bunday distrofik-destruktiv o‘zgarish ultrabinafsha, infraqizil,rentgen radiy nurlarining ko‘zga, aniqrog'i ko‘z gavharining ekvatorqismiga ta’siri natijasida paydo bo‘ladi. Bunday nurlarning ko‘zgata ’siri atom elektrostantsiyasi, radiatsiyada, kimyoda, qishloq

xo‘jaligida, biologiya va tibbiyotda foydalanilgan ehtiyot choralarigava texnik xavfsizligiga rioya qilmaslik natijasida sodir bo‘lishimumkin. Nurning quwati 2500 g ga teng yoki undan ko'proq bo‘lsa,

gavhardagi epiteliy hujayralarning trofik funktsiyasi buzilib,degeneratsiyaga uchrashidan katarakta paydo bo‘ladi. Bundaykataraktani konservativ usul bilan davolash mumkin emas. Ularni

faqat operatsiya qilishga to ‘g‘ri keladi. Agar gavhar nurlarningkamroq dozasi (ko‘pi bilan 1000 g gacha)dan ta’sir olgan bo‘lsa,unda hujayralar ham ta’sirlanadi. Bunday hollarda zararlanishni

konservativ usullar bilan davolasa bo‘ladi.Nur kataraktasi klinikasi. Gavhar orqa qutbi kapsula osti tolalarinurlangandan keyin 3-5 oy o‘tgach katarakta boshlanadi. Bundadestruktiv jarayonning avj olishi 5 davrga bo‘linadi. 1. Gavharmarkaziy orqa kortikal qavatlarida loyqalanish nuqtalari va

vakuolalar paydo bo‘ladi. Ko‘zning ko‘rish faoliyati o‘zgarmaydi.2. Loyqalanish nuqtalari, vakuolalar ko‘payib metallga o‘xshashyaltiroq disk shaklini oladi. Ko‘rish biroz pasayib 0,7-0,8 ga tengbo‘ladi. 3. Bu davrda loyqalanish chetlari

uning markaziga nisbatanancha qalinlashib, o‘rtasi biroz yupqalanib tovoqchani eslatadi.Ko‘rish anchagina pasayadi.

4. Oldingi qobiq ostida ham ko‘p loyqalanish nuqtalari,vakuolalar paydo bo‘lib, uning qirralari nozik to‘r bilan o‘ralganshakldagi katta bir diskka aylanadi.

KLINIK MASHXULOT

Nur yurgizib tekshirish usuli.

1.**Ko’rsatma**: diagnostika maqsadida

2.**Kerakli jihozlar**: stul , stol, oftalmoskop, lampa

3.Tekshirishusulini o’tkazish to’g’risida tushuntirish

Bemor ko’ruv xonasida stulga o’tiradi.

Vrach bemorning qarama-qarshisida, 50sm masofada o’tiradi.

Lampadan oftalmoskop orqali nur olib,tekshiriluvchi ko’ziga qaraladi.

Ko’z tubidan o’z aksini topib qaytgan nurlar hisobidan, qorachiq qip-qizil tus oladi.

Ko’z ichidagi nur sindiruvchi qismlar , tinik bo’lmasa, qizil refleks rangi ochrok bo’ladi.

IzoxBu usul orqali ko’z tubi refleksi ko’rinadi, hamda nur sindiruvchi

a’zolarning tiniq yoki tiniqmasligi aniqlanadi.

Oftalmoskopiya - ko‘z tubini tekshirib to‘r parda. tomirli parda va ko‘z ko‘ruv nervi diskining holatini maxsus asbob – oftalmoskop yordamida o‘rganish usulidir

Oftalmoskopiya usulini o‘rganishdan oldin ko‘z tubining normal holati bilan, oftalmoskop va uning paydo boish tarixi bilan qisqacha tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, ko‘z tubini ikkita asosiy qavat - to‘r parda va tomirli parda tashkil etadi. Normada oftalmoskopiya yordamida faqat to‘r pardaning qismlari aniq ko‘rinadi, patologiyada esa, tomirli

pardadagi o‘zgarishlar ham namoyon bo‘ladi. Normada ko‘z tubining asosan uch qismi bor. Uning birinchisi - ko‘rish nervi diski - dumaloq, rangi och-pushti va chegaralari aniqdir.

Diskning ortasidagi to‘r parda markaziy arteriyasi kirib, to ‘r pardada shoxlanadi va markaziy vena shoxlari ham yonma-yon yotadi, shu arteriya va vena tomirlari kalibrining o‘zaro nisbatan

2:3 boladi. Ikkinchisi - sariq dog`, bu ko‘z tubining o`rtasiga joylashgan, rangi biroz kul rang sarg‘ish bo‘lib, o‘rtasida pushti rang markaziy chuqurchasi bor. Bu yerda asosan kolbachasimon

hujayralar bo‘lib, normada qon tomirlar yo`q. Uchinchi qismi – bu ko`z tubining cheti- atrofi tekis qizil rangli va qon tomirlar shoxlari yoyilgan qismidir . Ko`z tubini tekshirishda

oftalmoskopning ahamiyati katta. Buning eng sodda xilini 1850 yilda Gelmgolts ixtiro qilib, oftalmologiyaning ikkinchi ≪yorug`lik≫ yokin≪nurli≫ davrini boshlab bergan. Chunki qadim zamonlardan - oftalmoskop ixtiro qilingan davrgacha oftalmologlar ko`z tubini ko‘rolmaganlar. Shu sababli u davr ≪qorong`i davr≫ deyilgan.

Shifokor odatda ko`z tubini oftalmoskop yordamida tekshirishni ko‘rish nervi diskidan boshlab, so`ngra sariq dog` va nihoyat to`r parda chetlarini qarab yozib chiqadi.

Oftalmoskopiyaning ikkita usuli bo'lib, birinchisi teskari oftalmoskopiya va ikkinchisi to‘gri oftalmoskopiya deyiladi. Hozirgi zamonda takomillashtirilgan elektr oftalmoskop, binoklli

oftalmoskop va oftalmoxromoskoplar bor.

. 

Biomikroskopiya

Tayyorgarlik

-qorongu xonada bajarish

-Tekshirishdan oldin bemorni tayyorlash, tekshirish o’tkazish to’g’risida bemorga tushuntiriladi

Kerakli jihozlar:stul, predmet

O’tkazishtexnikasi

Bemor mikroskop stuliga o’tirgan holda, hakim bemorning ro’parasida turadi Bemor boshini qimirlatmasdan turib, qaraydi

Biomikroskopiya usulida ko`zning tubigacha bo`lgan qism ko`rinadi.
Biomikroskopiya ko`zni 5-60 martagacha kattalashtirib ko`rsatadi

Bu usul orqali ko’z olmasining tashqi va uchki qismlari tekshiriladi

12-Mavzu Glaukoma (tugma glaukoma, etiologiyasi, belgilari, erta tashxislash)

Mashqulot vaqti-	Talabalar soni: 10 nafar
Mashqulot shakli	Amaliy mashғulot
Mashqulot rejasi	1.Glaukoma kasalligi xakida tushuncha 2. tugma glaukoma, etiologiyasi, belgilari, erta tashxislash. 3.Glaukoma kasalligini zamonaviy davolash usullari.
O’quv mashqulotining maqsadi:	Talabalar bemorning umumiy axvoliga ob’ektiv baxo berish uchun kuz-a’zolarini ko’rish va tekshirish usullarini o’zlashtirish bo’yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish.
Ta’lim berish usullari	Multimediya.Interfaol usul:
Ta’lim berish shakllari	Jamoaviy

Ta’lim berish vositalari	Uquv-uslubiy ishlanma,elektron darsliklar,kompyuter
Ta’lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baҳolash	

Amaliy mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
	Kirish	5 minut
	Talabalarni dastlabki bilimini tekshirish a) og’zaki suxbat b)interaktiv usullar yordamida va boshqalar	10 minut 15 minut

	Amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirish a)qabul bo’limi hujjatlari va ularni to’ldirish qoidalari bilan tanishish	10 minut 25 minut
	Talabalar bilim darajasini baholash	10 minut
	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
		80 minut

Klinik mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

№	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
1	Kirish	5 minut
2	Bemorlar kuratsiyasi	30 minut
3	Bemorlarni kasallik tarixi bilan tanishish	10 minut
4	Jamoa bilan bemorlar taxlili	10 minut
5	Amaliy ko’nikma	10 minut

6	Retsept yozish	10 minut
7	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
Jami:		80 minut

TUG`MA GLAUKOMA

Birlamchi tug`ma glaukoma

Yuqori ko`z ichki bosimi bolada tug`ilgan zahoti yoki chaqaloq hayotining birnchi haftalarida rivojlanadi.

Sababi, tug`ma glaukoma juda kam uchraydigan kasallik bo`lib, odatda ikkala ko`z ham  har xil darajada zararlanadi. O`g`il bolalar  qizlarga nisbatan ko`p

kasallanadi.Odatda kasallik nasl suradi.Ko`zning rivojlanishi uchun alohida genlar javob beradi, hozirgi davrda glaukoma va boshqa genetik nuqsonlar keltirib chiqaradigan mutatsiyalar astoidil o`rganilmoqda, bu genlartidentifikatsiyasida yutuqlar qo`lga kiritilmoqda. Lekin bolalarda irsiyatga bog`liq bo`lmagan holatdagi tug`ma glaukoma ham uchrayapti.

Bolaning ona qornida rivojlanishi paytida ko`z ichki bosimining ko`tarilishi oldingi kamera burchagi va trabekulyar to`rning shakllanishi buzilishidan kelib chiqadi. Bunday yangi tug`ilgan chaqaloqlarda ko`z ichki suyuqligi normal oqmaydi. Uning ishlab chiqarilishi saqlanganda ko`z ichki suyuqligi ko`payib, ko`z ichki bosimining ko`tarilishiga sabab bo`ladi.

Ko`z ichki bosimi darajasiga qarab, ertami kechmi,ya'ni 1 haftadan, 1 oydan, hatto 1 yildan so`ng glaukomatoz zaralanish yuz beradi. Uning mexanizmi kattalarda yuz beradigan glaukoma mexanizmiga o`xshaydi.

Ko`ruv nervi zaralanishidan tashqari, ko`z olmasining ham kattalashuvi kuzatilib, bolalarda skleraning cho`ziluvchanlik xususiyati ko`pligidadir. Tug`ma glaukoma bilan kasallangan bolalarda ko`z olmasining kattalashuvi kuzatiladi. Shox parda ham cho`ziluvchanlik xususiyatiga ega, lekin uning hamma qavati etarli darajada elastik emas.Cho`ziluvchanlik katta bo`lmagan yoriqlarga olib kelib, shox parda xiralashishiga sabab bo`ladi.Ko`z ichki bosimi pasayishi bilan xiralashish ham qisman yo`qoladi.

Patogenez

Birlamchitug`maglaukoma (BTG)
tug`maglaukomaningengko`puchraydiganturibo`lsaham,
judakamuchraydigankasallikhisoblanadi. Kasallik 1:10000 chaqaloqlarda uchrab,

bemorlarning 65%i o`g`il bolalardan iborat. BTG ko`pin- cha sporadik holda uchraydi. Taxminan 10% hollarda kasallik noto`liq penet -rantlikka ega bo`lgan autosom resessiv holda nasldan- naslga o`tadi. Ko`zgid- rodinamikasi trabekulodisgenez sababli buzilgan bo`ladi. Alohida rivojlangan trabekulodisgenez trabekulalar va iridotrabekulyar birikishining noto`g`ri rivojlanishi bo`lib, og`ir darajali ko`z anomaliyalari bilan birga uchramaydi.

Klinik jihatdan trabekulodisgenez burchak retsessiyasining yo`qli gi va rangdor parda to`g`ridan-to`g`ri trabekulyar to`rga birikishi bilan xarakterlanadi. Rangdor pardaning bunday birikishi yassi yoki botiq bo`lishi mumkin.

1. Yassi birikish deb rangdor pardaning qalinlashgan trabekulalarga birikishiga aytiladi. Bu birikish sklera ponasi chizig`idan orqada yokiko`proq hollarda chiziq o`zida yoki undan oldinda bo`ladi. Rangdor parda sklera ponasi chizig`idan oldinda birikkanda ham siliar tana qismini ko`pincha ko`rish mumkin bo`ladi.

2. Botiq birikish deb rangdor pardaning yuzaki qavatining iridotrabekulyar birikish va trabekulalar ustida joylashishiga aytiladi. Rangdor pardasi yassi birikkan ko`zlardan farqli ravishda, botiq birikishda sklera ponasi va siliar tana yaxlit yoki shoxlanuvchi to`rdan tashkil topgan rang dor parda to`qimasi bilan to`silib turadi.

Rangdor parda botiq birikishi yassi birikishga nisbatan kamroq uchraydi.

Klinik o`zgarishlar kasallik boshlangandagi bemor yoshiga va KIB ga bog`liq bo`ladi. Ikkala ko`z 75% hollarda shikastlanadi, lekin og`irlik darajasi ko`pincha assimetrik bo`ladi.

Klassifikatsiya

Kasallik boshlangandagi bemor yoshiga ko`ra BTG quyidagi 3 turga bo`linadi:

1. Asl tug`ma glaukomada (40% hollarda) KIB tug`ilishdan oldin ko`tariladi.

2. Infantil glaukoma yoki bolalar glaukomasi (55% hollarda) bola tug`ilgan dan keyin 3 yil ichida namoyon bo`ladi. Ko`z ichki bosimining oshishi sababi tug`ma glaukomadagi sabablar singaridir. Lekin bu jarayon kechroq rivojlanadi, chunki oldingi kamera burchagi tug`ma glaukomaga nisbatan to`liqroq rivojlanadi. Ko`z ichki suyuqligining me'yoriy oqimi natijasida ko`z ichki bosimi bolalarning bir yoshgacha bo`lgan davrida normal bo`ladi. Lekin vaqt o`tishi bilan ko`tarilishi mumkin.

Infantil glaukomada tug`ma glaukomaning klassik belgilari uncha ifodalanmaydi. Ko`zlar kattalashmagan, epifora (ko`z yoshining haddan tashkari ko`p chiqishi), fotofobiya vashox pardaning xiralashishi kabi simptomlar kuzatilmaydi. Glaukomaning bu turi odatda, oddiy tekshirishda yoki naslida glaukoma borligi sababli tekshirilganda aniqlanadi.

3. Yuvenil glaukoma eng kam uchraydi. Yuvenil glaukoma (yuvenil- o`smir) maktab yoshidagi bolalar va o`smirlarda ko`z ichki bosimining ko`tarilishi bo`lib hisoblanadi.Oftalmolog qabulida oldingi kamera burchagining to`liq rivojlanmaganligining bilvosita belgilarini aniqlash va davolash uchun lazer goniotomiyasini qo`llash mumkin. KIB 3 yoshdan 16 yoshgacha bo`lgan davrda ko`tariladi. Bunday hollarda klinik o`zgarishlar BOBG ga o`xshashi

mumkin. Ba'zi bemorlarning ko`z burchagi gonioskopiyada normal ko`rinishga ega bo`ladi, boshqalarda esa trabekulodisgenez aniqlanadi.

Klinik o`zgarishlar

1. Shox pardaning yengil darajali xiralashishi ko`pincha ota-onalar bolalarda ko`radigan birinchi belgidir. Xiralashish yuqori KIB natijasida shox parda epiteliysining shishi va shox pardaning o`rta darajali xiralashishi sababli yuzaga keladi. Bunda ko`z yoshlanishi, fotofobiya va blefarospazm kuzatilishi mumkin.

2. Buftalm deb KIB yuqori bo`lishi sababli, 3 yosh gacha ko`zning kattalashishiga aytiladi . Kasallik og`ir darajali va bir tomonlama

bo`lmasa, ota-onalar odatda sezmaydi. Sklera kattalashgan sari yupqalashadi va ostidagi tomirli parda hisobiga ko`kimtir rangga kiradi. Shox parda kattalashishi davom etsa, oldingi kamera chuqurlashadi va og`ir hollarda Sinn (Zinn) boylamlari cho`zilib, gavhar sublyuksasiyaga rivojlanishi mumkin. Ko`z olmasining kattalashishi aksial miopiyaga sabab bo`lib, anizometropik ambliopiyaga olib kelishi mumkin.

3. Dessemet (Descemet) membranasining yoriqlari endoteliy dekompensatsiyasi rivojlanganda va ko`z ichi suyuqligi shox parda stromasiga birdaniga o`tganda kuzatilishi mumkin.

Stromaningsurunkali shishi shox pardada qaytmas chandiqlashishga sabab bo`lishi mumkin. Xaab (Haab) strialari bitib ketgan Dessemet membranasining yoriqlari bo`lib, noto`g`ri chiziq shakliga ega .

4. Ko`ruv nervi diskining ekskavatsiyasi chaqaloqlarda erta boshlanishi mumkin, ammo KIB normallashganda ekskavatsiya orqaga qaytishi mumkin. Sog` chaqaloqlarning ko`p qismida ko`ruv nervi diskining fiziologik ekskavasiyasi aniq ko`rinmaydi va juda kam hollarda EG`D>0,3 bo`la- di. BTG rivojlangan chaqaloqlarda ko`pincha EG`D>0,3bo`ladi. KIB yuqori bo`lgan katta odam ko`zidan farqli ravishda, KIB yuqori bo`lgan chaqaloq ko`zi kattalashishi

natijasida skleral kanal hamkattalashadi va lamina cribrosa tashqariga bo`rtib chiqishi mumkin. Chaqaloqlarda EG`D ko`rsatkichi nerv to`qimasining atrofiyasi, skleral kanal kattalashishi yoki ikkalasining hisobiga kattalashishi mumkin.

Differensial diagnostika

1. Shox parda o`rta darajali tug`ma xiralashishsabablari:

a) tug`ruq jarohati Dessemet (Descemet) membranasining yoriqlari hisobiga shox parda dekompensasiyasiga olib kelishi mumkin;

b) homiladorlik davrida yuqtirilgan qizilcha keratit hisobiga shox parda o`rta darajali tug` ma xiralashishiga olib kelishi mumkin.

Qizilcha bilan kasallangan 10% chaqaloqlarda BTG da bo`lgani kabi, burchak anomaliyasi sababli tug`ma glaukoma rivojlanishini aytib o`tish lozim. Mikroftalm- da ko`z kattalashishi yaqqol ko`rinmaganligi sababli glaukoma aniqlanmay qolishi mumkin;

v) mukopolisaxaridoz va mukolipidoz kabi metabolik kasalliklar.

2. Shox parda kattalashishi quyidagi hollarda ham bo`lishi mumkin:

a) megalokornea;

b) yuqori darajali miopiya (kam hollarda).

3. Ko`z yoshlanishi nazolakrimal yo`lning kech ochilishi sababli rivojlanadi.

4. Ikkilamchi infantil glaukoma quyidagi hollarda uchrashi mumkin:

a) retinoblastoma va yuvenil ksanto granulyoma kabi o`smalar;

b) birlamchi giperplastik shishasimon tananing qoldig`i;

v) chala tug`ilgan chaqaloqlar retinopatiyasi;

g) ko`z ichi yallig`lanishi;

d) jarohat;

e) gavhar ektopiyasi.

KLINIK MASHXULOT

Tonometriya

Ko’rsatma: davolash va diagnostika maqsadida

Kerakli instrumentlar: kushetka,0.5%dikain eritmasi,Maklakovtonometri,spirt, qog’oz, paxta, furatsilin

eritmasi.

Tekshirish usulini o’tkazish to’g’risida tushuntirish

O’tkazish texnikasi

Bemor chalkanchaholatda kushetkaga yotadi

Tekshiruvchi bemorning bosh tomonidan turadi

Ko’zni 0,5% dikain bilan og’riqsizlantiriladi 2-3 min davomida konnyuktival bo’shliqga tomiziladi.

Bemorni bir nuktaga tikilib turishi buyuriladi,bo’yoqga botirilgan 10gr toshlar shox parda markazidaquyiladi

Olingan surat spirt bilan artilgan qog’ozga yopishtiriladi va maxsus nomogramma yordamida o’lchanadi.

Izox Buusul yordamida ko’z ichki bosimi baland yoki pastligi aniqlanadi
Ko’z ichki bosimi normada 16-26mm.simob.ust.teng

Perimetriya -

Ko’rsatma: diagnostika maqsadida

Tekshirish usulini o’tkazish to’g’risida tushuntirish

O’tkazish texnikasi

Ko`rish maydonini tekshirish perimetriya deyiladi.



Ko`rish maydonini doimiy tekshirib borish bemorning vaqtini va kuchini oladi, lekin bu yo`qotilgan vaqt va kuchga bog`liqdir. Ko`rish maydonini tekshirish

uchun har xil programmalar mavjud bo`lib, ular afzalik va kamchiliklarga egadir. Tekshirishlar qancha uzoq davom etsa, natijalar ham aniqroq bo`ladi..

Ko‘ruvmaydoniko‘zlardanbiriningbirnuqtagaqarabturibatrofidagikengmasofaniko‘rabilishqobiliyatiyokiko‘zningo‘shamaydondagijaminuqtalaryigindisinibirvaqtdaqabulqilabilishfaoliyatidir. Ko‘rish maydonining masofasi ko‘zning pcriferik ko‘rish faoliyatiga bog‘liq va bunday vazifani to‘r pardadagi tayoqschasimonhujayralari bajaradi. Ko‘zning ko‘rish maydonini tekshirish usullari turlicha. Buning eng oddiysi nazorat usuli bo‘lib, bunda shifokor o‘z ko‘zining normal ko`rish maydoni bilan tekshiriluvchi sub’ekt ko‘rish maydoninisolishtirib o‘rganadi. Bunda yoruq‘dan yuz o‘girib o‘tirgan tekshiriluvchi bilan shifokor 1 m oraliqdaqarama-qarshi yoki ro‘para o‘tirb, ko‘zlarining har biri ayrim-ayrim tekshiriladi. Tekshiriluvchining o‘ng ko‘zi tekshirilayotganda shifokor chap ko‘zining ko‘rish maydoni bilan va uning chap kolzi tekshirilayotganda shifokorning o‘ng ko‘zi ko‘rish maydoni bilan solishtiriladi. Bunda shifokorning ko‘rsatkich barmog` yoki uning qolidagi ko‘rsatkich ob’ekt o‘ng, chap, yuqori va pastki tomondan asta-sekin markaz tomonga surilibko'rsatiladi. Agar tekshiriluvchi bilan shifokor ob'ektning maydonda paydo bo‘1ganini bir vaqtda sezib ko‘rsa natija to`g‘ri hisoblanadi. Shifokor ko‘zining ko‘rish maydoni normada bo‘lsa, ular ikkalasining ob’ektni bir xil masofadan ko‘rishdan uning me’yorida ekanligi ma’lum bo`ladi. Bu usul juda oddiy va o‘rnidan tura olmaydigan og`ir kasallar ko‘zini tekshirish uchun qulaydir.

Tekshirish natijalari normal bo‘lganda ham, o‘zgargan holatlami ham ancha to‘g‘ri ko‘rsatadi. Ko‘zning ko‘rish maydonini tekshirish uchun ilgari zamonlardan buyon turli asboblar kashf etilib, foydalanilgan. Purkinc 1825 yilda birinchi asbob perimetrni taklif etib, 1855 yilda Grefc uni amalda qo‘l1agan. 1857 yilda Ferster 1868 yilda Shultsc bu asbobni mukammallashtirgan. Hozirgi zamonda perimetrlarning tuzilishi va sifati juda yaxshi ishlangan proyektsion

perimetr, Goldmanning sferik pcrimetri va pcrigraflar bor.

Keyingi perimctrlarning ish tartibi avtomatlashtirilgan va ularni amaliyotda ishlatish osonlashtirilgan. Ilgaridan amaliyotda ko‘p ishlatilib kclingan Ferstcr pcrimctri yoyining qoq o‘rtasiga oppoq nuqta (0) joylashtirilgan. Bu yarim oy

yoyining markazi asbobning tcmir tanasiga nisbatan aylanish imkoniyatiga moslab biriktirilgan.

Ko‘rish maydoni tckshirilganda chegarasi qaysi meridianda va qaysi nuqtada ekanligini orqasida yozib qo‘yilgan. ≪0≫ dan ≪90≫ gacha bo Igan graduslarga qarab aniqlanadi. Asbobning moslashuv qismida engakni qo‘yib tekshirilayotgan ko‘zni markazdagi oq belgiga to‘ppa-to;g‘ri qarash imkoniyati yaratilgan. Tekshirish uchun ishlatiladigan oq ob’ekt diametri 3; 5; 10 mm lidir. Lekin qizil, yashil, zangori rangli ob’ektlar 1-3 mm bo‘lishi kerak. Hozirgi zamon oftalmologiyasini Ferster perimetri to'liq ta’minlamaydi. Shuning uchun ko‘z klinikasi va statsionarlarida avtomatlashtirilgan perimetrlar kasallarni tekshirib aniq tashxis qo‘yish, prognozlash yoiida muvaffaqiyat bilan ishlatiladi.Perimetrlar yordamida ko‘rish maydonining proyektsiyasi tekis sathda emas, balki ko‘z pardalarishakliga o‘xshab moslashgan yarim oy shaklidagi sathda oq va turlirangli ob'ekt bilan tekshiriladi. Ferster perimetri va uning ixcham stol ustiga qo‘yib ishlatiladigan turining qimmati shundaki u og‘ir emas, kichkina va uni istalgan tomonga olib qo‘yish va olib yurish mumkin. Lekin uning kamchiligi

- yoritish asbobi yo‘q.

- kichik nuqsonlami aniqlab topish juda qiyin.

Yangi asboblardagi diafragma va yoruglik filtrlari aniq me’yorda nurni susaytirish va kuchaytirish yoki turli rangdagi ob’ektlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Shu asosda ko'rish maydonini faqatsifatli emas, hatto miqdoriy hisobda aniqlash ham mumkin.

Sferik perimetming yana bir afzalligi shundaki, uning yoritish kuchini o‘zgartirib kunduzgi (fotopik), g'ira-shira vaqtdagi (mezopik) yoki qorong`ilikda (skotopik) ko‘rishga moslashtirib maydonni tekshirish mumkin. Bunda tekshirish natijalarini hisobga olishning moslashtirilgani, ishni yengillashtirib vaqtni tejaydi.

Pcrimetriya - ko‘rish maydoni chegaralarini tekshirish usulidir.

Bu qorong‘i uyda bajarilib, asbob tekshiriluvchining bo‘yiga moslanib, uning bog‘lanmagan ko‘zi yoy o‘rtasidagi oq ob’ektning ro‘parasida, kasalning engagi tirgakka joylashtiriladi. Ko‘rish maydoni oq rangli ob’ekt bilan tekshirilganda ob’ekt 3 mm li. Uchrashi mumkin bo‘lgan nuqsonlarni aniqlash uchun 1 mm libo‘ladi. Agar kasal ko‘zining nur sezish qobiliyati kamaygan bo‘lsa ob’ektni bir ozyoritib kattalashtirish ham mumkin (5; 10 mm gacha).

Ko‘rish maydonini ranglar bilan tekshirish uchun 1-3 mm li ob’ekt ishlatiladi. Odatda tekshiruvchi rangli ob’ektlarni bir soniyada 2-3 sm tezlikda atrofdan markazga yurg`izadi. Bunday tekshirish 8-12 meridianda 30-40 oralig'ida aylantirib bajarilganda tekshirish juda aniq bo‘lib, nuqsonlar oson topiladi. Tekshirishning turli kattalikdagi va har xil rangdagi ob’ekt bilan ketma-ket bajarilishi moslashtirilgan hisoblanib, bu miqdoriy yoki kvantativ tekshirish deyiladi. Bu usul juda sezgir bo`lgani uchun ko`zning turli kasalliklarida boshlang‘ich davrida qo‘llanilsa, yangi paydo bo`lgan o ‘zgarishlarni ko‘rsatib beradi va tashxis qo‘yishga yordam beradi. Ko‘rish maydonini rangli ob’ektlar bilan tekshirganda, ularni periferiyadan markazga yurg`izishdagi ranglari tovlanishlarini bilib chegarasini o‘sha tekshirilayotgan ranglarni kasal aniq ko‘ribaytgandagi shkaladan hisoblash kerak. Chunki ko‘rish maydonining eng periferiyasida axromatik zona bor va o‘shajoydan ko‘rsatilgan turli rangli ob’ekt kulrang bo‘lib ko‘rinadi va keyinchalik markazga surilgan sari o‘zgarib oxirida o‘z haqiqiy rangiga o‘tadi. Masalan, qizil ob’ekt avval kulrang, so‘ngra sariq, keyin zarg‘aldoq va oxirida o‘z qizil tusini oladi. Zangori rang esa kulrangdan havorangga , so‘ngra asta-sekin zangoriga o‘tadi.

Ko'rish maydonidagi ranglarning tovlanish faolligi avvalo zangoriga, keyin sariqqa, so‘ngra qizilga va oxirida ko‘k ranggaaylanib paydo bo‘ladi. Avtomatlashtirilgan perimetrlar kompyuter asosida ishlatiladi.

Avtomatlashtirilgan perimetrlarning grafik blankalari bor. Bu blankalarda ko'rish maydonining chizma shakli bo‘lib, bu markaziy nuqtalardan 10° oralab chizilgan aylanalar va ularga nisbatan chizilgan meridianal yo`llaridir.

Bu grafiklarda o‘ng ko‘zning ko‘rish maydoni sxemasi o`ng tomonga va chap ko‘zniki chap tomonga joylashtirilgan va oq turli rangdagi ko‘rish maydonining normal chegaralari yaqqol ko‘rinib turadi. Tekshirganda haqiqiy normal ko`rish maydonini aniqlab olish uchun xonada shovqin bo‘lmasligi, shifokor juda osoyishta harakat qilishi va normal yorug`lik bo‘lishi zarur. Bunda ob’ektlar rangi va katta-kichikligining ham ahamiyati bor .

OftaJmologikkasalliklarnianiqlash, tashxisqo‘yishvaprognozlashuchunko‘rishmaydoniholatiningamaliyahamiyatikatta dir.



Ko‘rishmaydoninijudaaniqtekshirishuning 8 yo‘nalishidabajariladivauningnormalchegaralariquyidagicha: chakkatomoni - 90, chakkapastkitomoni - 90* chakkayuqoritomoni - 70, pastki - 60, buruntomon - 60, burunyuqoritomoni - 55, burunpasttomonga 50, yuqoritomonga - 55.

Ko‘rish maydoni kengligini 8 yo‘nalishda tekshirib topilgan sonlarni yig‘ib, qo‘shib hisoblab-90+90+60+60+50+55+55+70=530° normani aniqlash mumkin.

Bu umumiy yig`ilgan sondan kam bo`lsa, qaytadan tekshirib toraygan meridianini aniqlash kerak.

Kampimetriya- ko‘rish maydonining markaziy qismini, undagi ko‘rish nuqsonlarini tekis sathga solib, tekshirish usuli. Bu usul yordamida ko‘rish maydonidagi ko‘r dog‘ning chegaralari, shakli hamda ko‘rish maydonidagi markaziy va periferik nuqson (skotoma) larni aniqlash mumkin.

Kampimetr - o‘rtasi oq nishonali yaltiramaydigan qora matodan yasaladi . Bunda ham perimetr bilan tekshirilganidek, kasal yorug‘ nur tushib turgan tomonga orqasini o‘girib, kampimetrdan 1 m narida engagini oq markaziy nuqtaga moslab yasalgan tirgakka qo‘yib o'tiradi. Tekshiruvchi qo‘lidagi qora sim uchiga biriktirilgan 1,5 yoki 10 mm li oq ko‘rsatkichni chapdan, o`ngdan, yuqoridan,pastdan va boshqa tomonlardan markazga tomon sekin yurg‘izib tekshiradi. Aniqlangan chegara nuqtalar bo‘r bilan chiziladi va shunda ko‘rsatkich ko‘rinmay qolgan joyi - skotomaning shakli va uning katta-kichikligi ma’lum bo‘ladi.

Skotomalar fiziologik va patologik bo‘ladi. Ko‘z tubidagi ko‘ruv nervi diskining ko‘rish maydonidagi aksi- fiziologik skotoma - ko‘r dog‘dir. U ko‘rish maydonining chakka tomonida markaziy nuqtadan 12-18 sm narida joylashgan bo‘1ib ko‘rinadi. Normada uning o'lchami - vertikal kattaligi 8-9 va gorizontal kattaligi 5-8 ga teng. Tekshirish vaqtida shu ko‘r dog‘dan boshlanib, 30°-40°masofada paydo bo‘ladigan tasmasimon dog‘la r – angioskotomalar deyiladi. Chunki ular to‘r pardada yotgan qon tomirlaming soyasidir. Ko‘rish maydonida bunday fiziologik dog‘ tekshirilganda kattaligi normadan ko‘p chiqsa, patologiyadan darak beradi. Glaukoma boshlanishida, diskning turg‘unlik patologiyasi boshlanishida va keyin ham bu ko‘r dog‘ning maydoni normadan kattalashadi.Ko‘rish maydonining patologik o ‘zgarishlari ikki xil bo‘ladi. Birinchi xili ko‘rish maydoni chegaralarining torayishi va ikkinchisimaydonining sektoral torayishi bu maydonda turli shakl va ko‘rinishdagi nuqsonlarning paydo bo`lishidadir.Ko‘rish maydoni masofasining torayishi kontsentrikko‘rinishda, ya’ni atrofdan markazga qarab torayishidir .

Boshlanishda buchetlardan markazga suriladi va bora-bora ko‘payib, o‘rtada torgina masofa qoladi. Kontsentrik torayish ko‘ruv nervining yallig‘lanishi, atrofida, to ‘r pardaning pigmentli distrofiyasida bo‘ladi. Tutqanoq, asab-psixik kasallikka mubtalo bo`lgan odamlarda yoki vasvasa, jazavali odamlarda qattiq ruhiy qo‘zg‘alish paytida ham ko‘rish maydoni muvaqqat kontsentrik torayadi. Bunday bemorlarga turli klinik ob’ektiv simptomlar (ko‘rish diskining holati, anamnez) ga asoslanib tashxis qo‘yiladi.

Ko‘rish maydonining torayishi sektor ko‘rinishda ham bo‘ladi Bu glaukomaning boshlanishidagi ko‘rish maydonining burun, burun yuqori va burun pastki tomonida 10°-20°- ga torayishidir. Bora-bora kasallikning oxirida bu hamma tomondan torayib, kontsentrik ko‘rinishga o‘tadi.

Ko‘rish maydonining qoq yarmi ishdan chiqishi gemianopsiya deyiladi. Gemianopsiyaikkalako‘zningbirtomoni – chap yoki o‘ng tomondagi yarmida bo‘lsa, gomonim gemianopsiya deyiladi. Bunda ko‘rish maydonining torayishi bir ko‘zning burun tomoniga to`g‘ri kelsa, ikkinchi ko‘zning chakka tomoniga to‘g‘ri keladi. Bu xiazma orqasida patologik shish paydo bo`lganda ko‘ruv traktlarining biriga tegishli o‘zgarishdan vujudga keladi. Geteronim gemianopsiyada ikkala koz ko‘rish maydonining yo chakka, yoki burun tomoni ishdan chiqqan bo‘ladi. Bu holat xiazma qismida patologiya paydo bo‘lganda vujudga keladi. Ko‘rish maydoni yarmining ishdan chiqib ko‘rmay qolishi gemianopsiya, ikkala chakka tomonda bo‘lsa, bitemporal gemianopsiya deyilib, bu xiazmaning old o‘rta qismidagi kesishgan bog‘ichlar patologiyasidan bo'ladi. Binazal gemianopsiya esa xiazmadagi kesishmagan nerv bog‘ichlarining ishdan chiqishidan vujudga keladi.

13 Mavzu Ikkilamchi glaukoma

Mashgulot vaqti-	Talabalar soni: 10 nafar
Mashqulot shakli	Amaliy mashғulot
Mashqulot rejasi	Glaukoma turlari Ikkilamchi glaukoma Tasnifi davolash taktikasi
O’quv mashqulotining maқsadi:	Talabalar bemorning umumiy axvoliga ob’ektiv baxo berish uchun kuz-a’zolarini ko’rish va tekshirish usullarini o’zlashtirish bo’yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish.
Ta’lim berish usullari	Multimediya.Interfaol usul:
Ta’lim berish shakllari	Jamoaviy
Ta’lim berish vositalari	Uquv-uslubiy ishlanma,elektron darsliklar,kompyuter
Ta’lim berish sharoiti	Metodik jixatdan jixozlangan auditoriya
Monitoring va baxolash	

Amaliy mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
	Kirish	5 minut
	Talabalarni dastlabki bilimini tekshirish a) og’zaki suxbat b)interaktiv usullar yordamida va boshqalar	10 minut 15 minut

	Amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirish a)qabul bo’limi hujjatlari va ularni to’ldirish qoidalari bilan tanishish	10 minut 25 minut
	Talabalar bilim darajasini baholash	10 minut
	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
		80 minut

Klinik mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

№	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
1	Kirish	5 minut
2	Bemorlar kuratsiyasi	30 minut
3	Bemorlarni kasallik tarixi bilan tanishish	10 minut
4	Jamoa bilan bemorlar taxlili	10 minut

5	Amaliy ko’nikma	10 minut
6	Retsept yozish	10 minut
7	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
Jami:		80 minut

Ikkilamchi glaukoma

Xavf omillari va birga uchraydigan kasalliklar

1. Yosh: BOBG ko`proq keksalarda uchrab, ko`pincha 65 yosh dan keyin namoyon bo`ladi. 40 yoshgacha odamlarda BOBG diagnozining qo`yilishi odatdan tashqari holat hisoblanadi.

2. Irq: BOBG qora tanlilarda oq tanlilarga nisbatan ko`proq uchraydi, ertaroq boshlanadi va og`irroq kechadi.

3. Oilaviy anamnez va BOBGning nasldan-naslga o`tishi: BOBG, taxmin qilishlaricha, nasldan-naslga ko`pincha multifaktorial ravishda o`tadi.

Kasallik rivojlanishini belgilaydigan gen ba'zi oilalarda kuchsiz penetrantlikka va o`zgaruvchan ekspressivlikka ega, deb hisoblanmoqda.

KIB darajasi, ko`z ichi suyuqligi chiqib ketish yo`llarining xususiyatlari va ko`-ruv nervi diskining o`lchami genetik omillar bilan belgilanadi. BOBG bilan kasal bo`lgan bemorning eng yaqin qarindoshlarida kasallik rivojlanish xavfi yuqori hisoblanadi. Bemor ota-onasining biri BOBG bilan kasal bo`lsa, kasallikri-vojlanish xavfi ikki marta, sibsi kasal bo`lsa to`rt martaga oshadi.

4. Miopiya va BOBG ko`p hollarda birga uchraydi. Bundan tashqari miopiyali ko`zlarda glaukomatoz o`zgarishlar tezroq rivojlanadi.

Kortikosteroidlarning ta'siri Betamethasoneni 6 hafta davomida mahalliy qo`llash natijasida KIB ning pasayishiga qarab, sog` aholini

3 guruhga bo`lish mumkin:

1. Kuchli ta'sir guruhi. KIB kuchli ko`tariladi (>30 mm sim.ust.).

2. O`rtacha ta'sir guruhi. KIB o`rtacha ko`tariladi (22-30 mm sim.ust.).

3. Ta'sir bo`lmagan guruh. KIB da hech qanday o`zgarish bo`lmaydi.

Steroidlarning mahalliy qo`llanilishiga sezuvchanlik genetik jihatdan belgilangan bo`lib, GKS lar ga sezuvchanlikni va BOBG rivojlanishini belgilaydigan genlar bir-biriga yaqin joylashadi, deb taxmin qilinmoqda. Shu sababli BOBG bilan kasal bo`lgan bemorlarda, ularning sibslarida va bolalarida steroidlar ehtiyotlik bilan qo`llanilishi lozim. Bemor yuqori yoki o`rta ta'sir guruhiga mansub bo`li- shidan

qat'i-nazar, «kuchli» steroidlar (Dexamethsone, Beta methasone, Prednisolone) KIB ni ko`tarish xususiyati bo`yicha bir-birga teng bo`lib, «kuchsiz» steroidlarning (Fluoro methalone, Clobetasone) KIB ni ko`tarishga mo yilligi kamroqdir; KIB ni ko`tarish xususiyatiga ko`ra Fluoromethalone Betamethasonedan ikki barobar kuchsizroqdir. Steroidlarni umumiy qo`llashda KIB ning ko`tarilish ehtimoli juda kam hisoblanadi.

Glaukomatoz o`zgarishlarning patogenezi BOBG bilan kasal bo`lgan bemorlarda ko`z ichi suyuqligining chiqib ketish yo`llarida qarshilik bo`lishi sababli KIB ko`tariladi. Ko`rish maydonida nuqsonlar paydo bo`lishi ko`ruv nervi diskidagi aksonlarning progressiv ravishda shikastlanishiga bog` liq. Bu o`zgarishlarning bir necha mexanizmlari taxmin qilinmoqda, ammo ulardan hech biri har xil bemorlarda glaukomaning turlicha kechishi va o`zgarishlarning har xil ko`rinishda bo`lishini to`liq tushunti rib bera olmaydi. Hozirgi kunda glaucoma- da shikastlanishning quyida keltirilgan ikkita nazariyasi taxmin qilinadi:

1. Ishemik nazariyaga ko`ra glaukomatoz o`zgarishlar patogenezida disk aksonlari mikrosirkulyasiyasi buzilishining hissasi bor. Glaukomatozo`zgarishlar quyidagi mexanizmlar orqali rivojlanishi mumkin:

a) kapillyarlar sonining kamayishi;

b) kapillyarlarda qon oqishining o`zgarishi;

v) aksonlarga oziq moddalarni olib kelish yoki ulardan qoldiq metabolitlarni olib ketish jarayonlarining buzilishiga olib k luvchi o`zgarishlar;

g) qon oqimi boshqarilishining buzilishi;

d) ko`ruv nervi diski qon tomirlariga zararli vazoaktiv moddalarning yetib

kelishi.

2. Mexanik nazariyaga ko`ra KIB uzoq vaqt yuqori bo`lishi lamina cribrosa sohasidagi to`r parda nerv tolalarining bevosita shikastlanishiga olib keladi. KIB yuq ri bo`lishi laminar plastinkalarning buzilishiga yoki aksonal kanallarining noto`g` ri joylashishiga sabab bo`ladigan o`zgarishiga olib keladi. Bu esa nerv tolalarining bevosita shikastlanishiga, qon aylanishining buzilishiga va ko`ruv nervi diski aksonlariga oziq moddalari etib kelishining kamayishiga olib keladi.

Klinik o`zgarishlar

Simptomlar

BOBG bilan kasal bo`lgan bemorlarda odatda ko`rish maydoni kuchli toraymaguncha simptomlar rivojlanmaydi. Buning sababi shundaki, ko`rish maydonining boshlang`ich torayishi burun tomonida bo`lib, boshqa ko`z ko`rish maydoniga to`g`ri keladi. Kasallik deyarli doim ikki tomonlama bo`ladi, lekin asimmetrik kechadi. Shu sababli kasallik ko`pincha ko`rish maydonining bir ko`zda kuchli, boshqa ko`zda esa yengilroq torayishi bilan namoyon bo`ladi. hatto kuzatuvchan odamlar ham ko`rish maydonining katta qismi torayganligini sezmay qolishlari mumkin, ammo ba' zanboshlang`ich davrda ko`rish maydonining torayishi tasodian aniqlanadi. Kam hollarda KIB yuqori bo`lgan bemorlar ko`z og`rishi, bosh og`rishi va hatto shox parda epiteliysining o`tkinchi shishi sabablirivojlangan kamalaksimon halqalarga shikoyat qiladi.

Belgilar

1.Yuqori KIB: bu ob'ektiv ko`rsatkich BOBG diagnostikasida katta yordam beradi, lekin ba'zan shifokorlar faqat KIB ko`rsatkichiga kata ahamiyat beradi.

40 yoshdan oshgan bemorlarning 2% ida KIB>24 mm sim.ust., 7-8% ida KIB>21 mm sim.ust. ekanligi aniqlangan. Biroq ko`rishmaydonining glaukomatoz torayishi taxminan 1% da bo`ladi. Bulardan tashqari, ko`rish maydonining glaukomatoz torayishi va ekskavasiyaningo`zgarishi KIB “normal” (<22mm sim.ust.) bo`lgan bemorlarda ham kuzatiladi.

2. KIBning o`zgarishi: KIB normal bo`lgan taxmi nan 30% odamlarda KIB kun davomida 5 mm sim.ust.gacha o`zgaradi. BOBG da bu o`zgarish kattaroq bo`lib, taxminan 90% hollarda kuzatiladi. Shu sababli KIB bir marta o`lchanganda 21 mm sim.ust.dan kam bo`lishi BOBG diagnozini bekorqilmaydi. Shu bilan birga KIB bir marta o`lchanganda 21 mmsim.ust.dan katta bo`lishi BOBG ga shubhadan boshqa narsaga sabab bo`lmasligi kerak.

KIB o`zgarishini aniqlash uchun KIB ni kunning har xil paytida o`lchash kerak. Ikki ko`zning bosimi orasidagi farq 5 mm sim.ust. yoki kattaroq bo`lishi shifokorni shubhalantirishi kerak. Mutloq qiymatning qanday bo`lishidan qat'i-nazar, KIB yuqoriroq bo`lgan ko`zda kasallik bor, deb shubha qi linadi.

Ko`ruv nervi diskining o`zgarishlari: BOBG diagnozi ko`pincha birincha marta tekshirish paytida ko`ruv nervi diskining shubhali o`zgarishlari topilganda qo`yiladi.

3. Ko`rish maydonida glaukomaga xos o`zgarishlar aniqlanadi.

4. Gonioskopiyada burchak ochiqligi ko`rinib, ikkilamchi glaukomaning hech qanday belgilari ko`rinmaydi.

Skrining

Aholini skrining qilish uchun faqat oddiy tonometriyani ishlatish etarli emas, chunki bu usul ekskavasiya va ko`rish maydonining torayishi kabi BOBG ning boshqa belgilari rivojlangan ko`p bemorlarni sog` odamlar guruhiga kiritib qo`yadi. Bundan tashshqari, 21 mm sim.ust.dan katta bo`lgan KIB va 0,4 dan katta bo`lgan EG`D vertikal nisbati skrining kriteriylari sifatida qo`llanilganda, BOBG bilan kasal bo`lgan bemorlarning faqat 60%i aniqlanadi. Ommaviy skrining uchun aniqroq usulni qo`llash mumkin bo`lguncha skrining selektiv bo`lishi, lekin sinchkovlik bilan bajarilishi va ko`rish maydonini tekshirishni o`z ichiga olishi kerak.

Eng yaqin qarindoshlarida glaucoma rivojlangan bemorlar 40 yoshdan boshlab tekshirilishi kerak. Birinchi tekshiruvda ko`rsatkichlar normal bo`lganda, bemor 50 yoshgacha 2 yilda bir marta, so`ngra har yili tekshirilishi kerak.

Taktika

BOBGni davolashdan maqsad, KIBni boshqarish orqali ko`rish faoliyatini saqlab qolish va shu bilan birga ko`ruv nervi shikastlanishini oldini olish yoki kechiktirishdir. Bemorni muntazam ravishda yaxshi labarator tekshirish katta ahamiyatga ega, chunki bu holda har qanday o`zgarishni erta davrda aniqlash mumkin.

Asosiy tekshirishlar

Kasallik kechishini dinamikada kuzatish uchun quyidagi asosiy tekshirishlar bajarilib, ularning natijalari aniq ravishda qayd qilinishi lozim.

1. Ko`rish o`tkirligi ko`z oynaksiz va ko`z oynak bilan qayd qilinishi kerak.

2. Biomikroskopiyada ikkilamchi glaucoma belgilariga katta ahamiyat berish kerak, chunki ikkilamchi ochiq burchakli glaukomani BOBG bilan adashtirib yuborish mumkin.

3. Applanatsion tonometriya – tekshirish kunning qaysi paytida bajarilganligini ham qayd qilish lozim.

4. Gonioskopiya applanatsion tonometriyadan keyin bajarilishi kerak. Ammo birlashtiruvchi moddani talab qiladigan goniolinza qo`llaniladigan bo`lsa, gonioskopiya ko`ruv nervi diski va ko`rish maydoni tekshirilgandan keyin bajariladi.

5. Oftalmoskopiya bajarilgach, ko`ruv nervi diskining ko`rinishi chizilishi va mumkin bo`lsa, rasmga olinishi kerak.

6. Perimetriya qo`llaniladigan perimetriya turi bemor harakatlanish qobiliyatiga, yoshiga va ko`rish o`tkirligiga bog`liq.

KLINIK MASHXULOT

Oftalmotonusni palpator aniklash

1.Ko`rsatma: tekshirish va diagnostika maksadida

2.Kerakli jixozlar: stul,

3.Tekshirish usulini o`tkazish to`grisida tushuntirish

Bemor tekshiruv xonasida stulga o`tiradi.

Xakim bemor ro`parasida turadi.

Bemordan pastga qarash so`raladi.

Tekshiruvchi ikkala qo`l ko`rsatkich barmoqlari Bilan yukori kovok ustidan navbatma –navbat kuz olmasiga bosib kuradi.Agar engil karshilik sezilsa, TqN,agar karshilik sezilmasa va kuz olmasa kattiklashgan bulsa, TQ1 dan Q3 gacha ,agar aksincha, kuz olmasi yumshoklashgan bulsa, T-1 dan -3 gacha baxolanadi

Izox Bu usul ko`z ichki bosimini sub'ektiv aniklash metodi bulib, ko`z gipertenziyasi yoki aksincha, gipotoniyasiga shubxa qilinganda qo`llaniladi

14 Mavzu Ko`z jarohatlari (kuyishlar)

.

Mashgulot vaqti-	Talabalar soni: 10 nafar
Mashgulot shakli	Amaliy mashgulot
Mashgulot rejasi	**1**.Kontuziyalar klasifikastiyasi,klinikasi,davolash usullari 2.kuzning teshib uchuvchi jaroxatlari Kuyishlar
O’quv mashgulotining maqsadi:	Talabalar bemorning umumiy axvoliga ob’ektiv baxo berish uchun kuz-a’zolarini ko’rish va tekshirish usullarini o’zlashtirish bo’yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish.

Ta’lim berish usullari	Multimediya.Interfaol usul:
Ta’lim berish shakllari	Jamoaviy
Ta’lim berish vositalari	Uquv-uslubiy ishlanma,elektron darsliklar,kompyuter
Ta’lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baҳolash	

Amaliy mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
	Kirish	5 minut
	Talabalarni dastlabki bilimini tekshirish a) og’zaki suxbat b)interaktiv usullar yordamida va boshqalar	10 minut 15 minut
	Amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirish a)qabul bo’limi hujjatlari va ularni to’ldirish qoidalari bilan tanishish	10 minut 25 minut
	Talabalar bilim darajasini baholash	10 minut
	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
		80 minut

Klinik mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

№	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
1	Kirish	5 minut
2	Bemorlar kuratsiyasi	30 minut
3	Bemorlarni kasallik tarixi bilan tanishish	10 minut
4	Jamoa bilan bemorlar taxlili	10 minut
5	Amaliy ko’nikma	10 minut
6	Retsept yozish	10 minut
7	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
Jami:		80 minut

Mavzu bayoni

Kuz sokkasi tumtok buyumlar Bilan shikastlanganda shox parda shishishuvi,yuza varaklari yorilishi,yirtilishi,kuz oldingi kamerasida kon kuyilishi-gifema kuz ichki mushaklarining falajlanishi rangdor pardada korachik chetlarining yirtilishi va tur pardada chegaralangan shishlar paydo bulishi mumkin.Bunday shikastlanishlar urta ogirlikdagi kontuziya xisobidan buladi.

Ogir darajadagi kontuziyada shox parda magzida kon Kirishi ,oksil parda va rangdor pardaning yirtilishi va uzilishi,gavxarning xiralashishi,joyidan biroz yoki tulik chikib ketishi mumkin.Gemoftalm shishasimon tanaga kon kuyilishi,tomirli parda yirtilishi,tur pardaga kon kuyilishi,uning yirtilib joyidan kuchishi,kuruv nervining shikastlanishini kuzatish mumkin.Kuzga yot jismlar tushib,kovok konyuktivasiga,oksil parda konyuktivasiga va shox parda satxiga joylanishiga boglik,Kuz sokkasining teshib kirgan yarasida teshilish shox pardada limbda va oksil pardada joylashishi mumkin.Jaroxatlovchi jism kuzni teshib kirib,ikkinchi joydan teshib chikishi mumkin yoki kuz ichida yot jism kolishi mumkin.Kuz ichiga kirgan metal jismlar magnit tortuvchi va magnit tortilmaydigan bulishi mumkin.

Kuz sokkasini teshib kirgan yarasi 3mmdan kichik bulib,shox parda chetida yoki oksil pardada joylashgan bulsa,yara tulik yopishgan xolda,yaraga kuz ichki pardalari takalgan bulmasa,yara oddiy va chok kuyishni talab kilmasa,bunday yaralar engil darajaga kiritiladi.

Teshib kirgan yara shox parda markazida joylashsa yoki murakkab asoratli bulsa yaraning ulchami 5 mm gacha kuz ichki pardalari yaraga takalib turgan bulsa uni urta darajadagi yara deb xisoblash mumkin .

Ogir darajasida yara uzinligi 5 mmdan kup, yaraga kuz ichki pardalari kisilgan , shishasimon tana kisman tashkariga chikgan, kuz oldingi kismida magnit tortmas yot jism yoki kuz ichkarisidagi magnit tortadigan metal yot jism borligini kuzatish

mumkin . Gavxarning shikastlanishi va kuzda yiringli jarayon avj olishi xam uning ogir darajasidan dalolat beradi.

Yara juda katta bulib shishasimon tananing kup kismini tashkariga chikib ketib, kuruv nervi va sarik dog soxasiga magnit tortuvchi yoki kimyoviy faol yot jism kirishi yoki gavxar tashkariga chikib ketishi , shishasimon tanaga kuchishi , tur parda joyidan kuchishi tulik gemoftalm va yoki endoftalm rivojlanishi uta ogir yaralanish xisoblanib kuzning azo sifatida yokolishi bilan yakunlanishi mumkin.

Kuzi shikastlanib, uning ichiga yot jism tushgan bemor, kuzi xiralashganidan yoki kurmay kolishidan kuzi kizarib yoshlanishidan, yorugga karay olmasligidan kuzi kizarib yoshlanishdan yorugga karolmasligidan shikoyat kilishi mumkin. Tegishli usullar bilan kuzni tekshirganimizda kovoklar splkiganini, konyuktiva kizarganini, kuz oldingi kamurasida kon borligini, ba’zan gavxar xiralashganini, kuz tubidan keluvchi refleks yukolganini kurish mumkin.

Kuzning teshib kirgan yaralanishining anik ishonchli va yordamchi belgilari bor. Ishonchli belgilari: yaraning ochilib turishi, yaraga kuz ichki pardalari yoki gavxar tolalari va kobigining kisilib kolishi, rangdor pardada teshik paydo bulishishubxa koldirmaydi. Yordamchi belgilari: kuz bosimining pasayishi (gipotoniya), kuz oldingi kamerasining sayozlashib yoki chukurlashib ketishi, korachikning chuzik shaklga kirishidan iborat.

Kuz sokkasini teshib kirgan, unda yot jism yukligini aniklash uchun bunday bemorlarda kuz kosasining rentgen suratini olish shart.agar rentgen suratida kuz sokkasida yot jism soyasi aniklansa, unda yaralangan kuzga 0,5%li dikain eritmasi tomizilib, kuzga Baltin indikatori kiritiladi.

Bunda shox parda indikatorning katta teshigida bulishi va indikator kurgoshinli nuktalari soat 6,9, 12, 15 ga tugrilanib, oldindan va yonboshdan ikkita rentgen surati olinadi.

Agar bemor kuzidagi yarada , kuz ichida yot jism topilmasa, yaraga zich tugunchali chok kuyib berkitiladi. Chokning ipi ipak, kapron, alkon va supramiddan tayyorlangan bulishi mumkin.

Kuzdagi yot jism kuzning oldigi kismida, ya’ni kuz oldingi kamerasida, rangdor parda satxida, gavxar yuzasida bulsa, bunday yot jismlarning teshib kirgan yarasiorkali agar iloji bulmasa, yaraga chok kuyib, yot jism joylashgan nukta ustidanshox parda yoki limbni kesib ochib, u olib tashlanadi. Kuz sokkasi ichki-orka kismida joylashgan yot jismlar diaskleral usul Bilan, sklerana kesib ochib, olib tashlanadi.Bunda yot jism magnitga tortiluvchan bulsa, doimiy magnit yordamida, magnitga tortilmaydigan bulsa, kuz pinstetlari – kiskichlari yordamida olib tashlanadi.

Kuzga jarroxlik ishlovi berishda yaraga kisilib kolgan, sog va yalliglamagan kuz ichki pardalariantibiotik eratmasi bilan chayilib, uz joyiga kiritib kuyiladi, agar yaraga kisilgan parda yalliglangan yoki nekrozga uchragan bulsa,uni kesib tashlab yaraga chok kuyiladi.

Jarroxlik ishlovi berishdan avval kuzga dezinfekstion tomchi tomiziladi, bemorga umumiy kuchli antibiotiklar kullaniladi. Bu tadbirlar yirangli jarayonning oldini olishga karatilgan buladi.Agar yara shox parda markazida bulsa, korachikni kengaytirish uchun atropin, chet kismida bulsa, uni toraytirish uchun pilokarpin tomizilib , kuzga doka boglam kuyiladi. Bemor 3-5kun urinda yotishi kerak. Shox pardaga kuyilgan ipak chok12-14kundan sung olinadi, kapron va supramid iplari kuzni kitiklamasa uzokrok koldiriladi.

KO'Z SOQQASI VA UNING YORDAMCHI QISMLARINING KUYISHI

Ko'z va uning yordamchi qismlari kuyishi termik (issiq) vositalar va kimyoviy o'yuvchi moddalar (kislotalar), ham erituvchi (ishqoriy) moddalar ta'sirida vujudga keladi (191-rasm). Bunda faqat qovoq terisigina emas, balki kon'yunktiva va hatto shox pardagina jarohatlanib qolmay, ko'pincha yuz terisi ham kuyishi mumkin.

Ko'pincha kimyoviy moddalardan ohak, qog'oz yelimi, karbid, kaliy permanganat, kir sodasi, sirka, novshadil spirti kabilar kuyishga sabab bo'ladi.

Kuyish darajasi ta'sir etuvchi moddaning quyuq-suyuqligiga va ta'sirining davomiyligiga bog'liq. Kuyish to'rt bosqichda bo'ladi:

I bosqichda - qovoq terisi qizaradi, kon'yunktiva oldin oqarib, so'ngra qizaradi. Shox pardada eroziya va sezuvchanlikning pasayishi kuzatiladi. Ko'zdan yallig'li suyuqlik ajraladi.

II bosqichda - qovoq terisida shish, qizarish va pufakchalar hosil bo'ladi. Kimyoviy kuyishda kon'yunktiva oqarib, ba'zi qismiga qon quyiladi, xemoz va nekrozli sohalar kuzatiladi. Shox parda xiralashib, tirqishli lampada ko'rilganda destsemet qavatining g'ijimlanganini ko'rish mumkin.

III bosqichda to'qimalarda nekroz paydo bo'ladi, shox parda chinnisimon oqarib xiralanadi, xususiy qavatida nekroz sohalari kuzatiladi.

IV o'ta og'ir bosqichda to'qimalarning to'liq nekrozi (o'lishi), shox pardaning erib ketishi, oldi kamerada yiring to'planishi (gipopion), agar ikkilamchi infektsiya qo'shilsa cndoftalmit, panoftalmit bo'lishi mumkin.

Ko'z yengil darajada kuyganda ambulatoriyada davolanadi. Ko'zga dezinfektsion va moyli tomchilar tomiziladi. Ko'z kimyoviy moddalar ta'sirida kuyganda birinchi tez yordam ko'rsatiladi. Bunda

suvning kuchli oqimi (faworacha, rczina ballon, choynak) yordamida uzoq vaqt davomida chayish kerak. so'ngra ko'zga 0,5% li dikain tomizib. qovoqlami ag'darib, kimyoviy modda qoldiqlari tozalanadi. Kimyoviy moddalar kuydirish kucliini cheklash maqsadida, ishqoriy xususiyatli moddadan kuyganda, 2-4% li borat kislotasi bilan chayish, ishqoriy moddaning ko'z chuqur qavatlariga o'tishidan saqlaydi.*Ko 'z kisloladan kuyganda ishqoriy modda bilan chayish faqat zarar keltiradi.* Aniliri bo'yog'idan kuyganda askorbin kislotasining 5% li eritmasida chayish va kon'yunktiva ostiga yuborish, kuyish holatini ancha yaxshilaydi. Kaliy permanganatdan kuyganda 10"/) li tiosulfat natriy eritmasida chayish yaxshi natija beradi.

Ko'z o'rta va og'ir darajada kuyganda (192-rasm) shifoxonada davolanadi. Ko'zga 30% li sulfatsil natriy yoki 0,25% li levomitsetin. vitamin tomchilari, 0,01% li sitral eritmasi, 1% li xinin tomchilari 3-6 marta tomizib turiladi. Ko'zga glyukozaning 40% li eritmasi, 1% li tctratsiklin malhami tomizish va quyish zarur. Keyinroq ultratovush, kortikosteroidlar qo'llaniladi.bironta asorat yuzaga kelsa, uni ham davolash mumkin.

Ko'zning og'ir darajali kuyishida nekrozga uchragan to'qima qismlari o'rniga sog' to'qima kon'yunktiva yoki pastki lab shilliq pardasi, shox parda o'rniga tiniq shox parda ko'chirib o'tkaziladi.

Ko'zning nur ta'sirida kuyishi

Ma'dan eritishda, kvarts lampasi, rentgen nuri, radioaktiv nurlanish va elektr payvandlashda ko'zni saqlovch - muhofaza oynaklaridan foydalanilmasa, ko'z ultrabinafsha nur ta'sirida kuyadi. Quyoshli kunda oppoq qorga uzoq tikilganda, quyosh kuygan kunida unga uzoq vaqt ko'z uzmay qaraganda ham ko'zning to'r pardasi kuyishi mumkin. Shundan 6-8 soat o'tgach, ko'z yoshlanib, qizarib, qamashib, og'rib ochilmay qoladi, ba'zan shox pardada yuza xiralanish kuzatiladi, ko'rish pasayadi.Lazer nuri ta'sir etganda yuqoridagi belgilarlardan tashqari, rangdor parda, to'r pardaning shikastlanishi - to'qimalarning buzilishi va unga qon quyilishi kuzatiladi.

Davolash uchun ko'zga 0,25%-0,5% li dikain eritmasi. moyli tomchilar tomizish va quyoshdan saqlovchi qora oynak taqish tavsiya etiladi. Rangdor va to'r parda kuyganda ko'rish pasayadi, bemor ko'z shifoxonasida davolanishi zarur.

Ko'zning ortigcha nuzlanishini oldini olish. Ko'ruv organi bunday shikastlanishining oldini olishda sanoat korxonalarida ishlash uchun, kadrlarning ko'rish faoliyatini hisobga olib tanlash, ish vaqtida texnika xavfsizligiga to'la rioya qilish zarur. Ishchi va xizmatchiiarni ishga kirishdan oldin, texnika xavfsizligi qoidalari bilan to'liq tanishtirish kerak. Korxonalarda ish joyini yaxshi yoritish, ozoda saqlash, tutun va changdan forig' qilish hamda shaxsiy (193-rasm) va umumiy muhofaza vositalaridan unumli foydalanish zarur. Ishchi va xizmatchilarning ko'zini muntazam ko'rikdan o'tkazib turish kerak.

Bolalar o'rtasida tarbiyani kuchaytirish, zararli va xavfli o'yinlarni ta'qiqlash va uyushgan foydali o'yinlarni yo'lga qo'yish ko'zni shikastlanishdan saqlaydigan asosiy vazifa hisoblanadi.

KLINIK KO`NIKMALAR

Monokulyar va binokulyar boylam qo'yish

Tayyorgarlik

-Yorug' xonada bajarish

-Tekshirishdan oldinbemornitayyorlash,tekshirisho'tkazishto'g'risida bemorga tushuntiriladi

Keraklijihozlar:stul,stolboylam

O'tkazishtexnikasi

Bemorstulgao'tirganholda, vrachbemorningqarama-qarshisida,50smmasofadao'tiradi.

Qo'llashusuli: Bemoro'tirganholdaboshiorqagabirozegilganholatda, birtako'ziyumilgan,ustkivapastkiqismidokadan,ichkiqismipaxtadaniboratboylamustidabog'ichbog'lanadi

Bog'ichningkaltaqismichakkatomonga ,uzunqismiburuntomongao'tkazilibbog'lanadi.

Binokulyarboylamesa ikkala ko'zda xuddishundayusulda ko'yiladi

Izox: Buusulko'zningjarohatlaridavajarroxlikamallaridanso'ngqo'llaniladi

15 Mavzu Ko`rish a'zosi jaroxatlari (shoshilinch holatlarda birinchi yordam).

Mashgulot vaqti-	Talabalar soni: 10 nafar
Mashgulot shakli	Amaliy mashgulot
Mashgulot rejasi	**1**. Ko`rish a'zosi jaroxatlari klasifikastiyasi,klinikasi,davolash usullari 2.kuzning teshib uchuvchi jaroxatlari

	shoshilinch holatlarda birinchi yordam
O’quv mashgulotining maqsadi:	Talabalar bemorning umumiy axvoliga ob’ektiv baxo berish uchun kuz-a’zolarini ko’rish va tekshirish usullarini o’zlashtirish bo’yicha amaliyot bilimlarini rivojlantirish.
Ta’lim berish usullari	Multimediya.Interfaol usul:
Ta’lim berish shakllari	Jamoaviy
Ta’lim berish vositalari	Uquv-uslubiy ishlanma,elektron darsliklar,kompyuter
Ta’lim berish sharoiti	Metodik jihatdan jihozlangan auditoriya
Monitoring va baxolash	

Amaliy mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
	Kirish	5 minut
	Talabalarni dastlabki bilimini tekshirish a) og’zaki suxbat b)interaktiv usullar yordamida va boshqalar	10 minut 15 minut
	Amaliy ko’nikmalarni o’zlashtirish a)qabul bo’limi hujjatlari va ularni to’ldirish qoidalari bilan tanishish	10 minut 25 minut
	Talabalar bilim darajasini baholash	10 minut

	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
		80 minut

Klinik mashg’ulotning tashkiliy tuzilishi

№	Tashkiliy qism	Ajratilgan vaqt
1	Kirish	5 minut
2	Bemorlar kuratsiyasi	30 minut
3	Bemorlarni kasallik tarixi bilan tanishish	10 minut
4	Jamoa bilan bemorlar taxlili	10 minut
5	Amaliy ko’nikma	10 minut
6	Retsept yozish	10 minut
7	Mashg’ulotni yakunlash, vazifa	5 minut
Jami:		80 minut

OFTALMOLOGIYADA TEZ YORDAM

Ko'ruv a'zosi shikastlangan, kuygan va ko'zi turli patologik holatlarga uchragan odamlarga tez yordam ko'rsatuvchi shifokorlar ikki guruhga bo'linadi. **Birinchi guruhga** poliklinikada ishlovchi oftalmologlar bilan bir qatorda boshqa jami mutaxassislar (terapevt, xirurg, stomatolog, nevropatolog) va umumiy oilaviy vrachlar kiradi. Ikkinchi guruhga esa ko'z tez yordam statsionarida ishlovchi katta klinik tajribali oftalmolog va oftlamomikroxirurglar kiradi. Birinchi guruhdagi mutaxassislar shoshilinch holatda murojaat qiladigan, ko'zi to'satdan jarohatlangan kasallarning hammasini so'zsiz qabul qilib, birinchi yordamni berishlari va u agar og'ir darajada bo'lsa, tezlik bilan transport tashkil qilib, ularni tegishli ko'z tez yordam shifoxonalariga joylashtirishlari kerak.

Birinchi shoshilinch yordam nimalardan iborat va u qanday bcmorlarga ko'rsatiladi? Bu savolga tezlik bilan aniq javob topish uchun jadval tuzilgan.(8-jadval).

Jadvalning 1-2-3 bandlariga kiradigan bemorlarni tegishli birinchi bosqichdagi tez yordamdan so'ng uylariga jo'natish mumkin.

Baxtsiz hodisalardan ko'ruv a'zosining kuyishi faol kimyoviy moddalar - kislotalar yoki ishqoriy aralashmalardan yuz bergan bo'lsa, juda tezlik bilan suvning rezina ballon yoki faworachasiga kuchli va ingichka tez oqimi bilan uzoq vaqt davomida qovoqlarini qo'l bilan (zo'rlab bo'lsa ham) ochib yuvish kerak hamda mayda-mayda yot jismlarni olib tashlash, tozalash ham zarur. Agar kuyish kislotadan bo'lsa, iste'mol sodasining 2 foizli eritmasi bilan ham anchagina yuvib, so'ngra ikkala kuygan ko'ziga glyukozaning 40 foizli eritmasidan tomizib

statsionarga yuborish zarur. Glyukoza to'qimalardan kimyoviy moddalarai so'rib chiqarib, unda modda almashinuvini yaxshilaydi. Elektrooftalmiya va termik kuyganda ham glyukoza juda foydalidir. Qilingan yordamdan ko'chirma yozib berish tavsiya qilinadi (Averbax).

Kelgan bemorning ko'z yoshi xaltasi ustida qizarish va ko'z kosasida og'riq va shish topilsa, bo'lajak abses va flegmonaning oldini olish uchun ularni ham tezlik bilan oftolmologga yuborish kerak.

Oftolmologiyada tez yordam berishning yana bir muhim qismi, bu faqatgina ko'zning yordamchi qismlari va uning tashqi pardalarida bo'ladigan o'tkir patologiyalarni aniqlashgina emas. balki kon'yuktivit, iridotsiklit va glaukomaning xuruji klinik simptomlarini ajrata bilish va bu kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yib. birinchi tez yordamni ham sifatli bajarishdir (8-jadval).

Bu farqni talabalar oftolmologiyadan mashg'ulot tsiklini o'tgan davrlarida yaxshi aniqlab, eslab qolishiari zarur.Bu o'rinda ko'zi og'rib, qizarib, yoshlanib kelgan bemorning ko'rish faoliyatiga ham ahamiyat berish kerak.

Glaukoma xurujida ko'zning ko'rish faoliyati pasayadi, kon'yuktivasida vena qon tomirlari kengayadi, shox parda biroz xiralashadi, qorachiq kengayadi, ko'z ichi bosimi juda baland ko'tariladi va boshning shu yarmisida ham og'riq bo'ladi. Bunday bemorga umumiy og'riqsizlantirish uchun analgin, ko'z ichi bosimini tushurish uchun pilokarpinning 1 foizli eritmasidan tez-tez tomizish kerak.So'ngra tezlik bilan statsionarga yuboriladi. Statsionarda bir tabletkadan diakarb beriladi va glitserinning suv bilan barobar eritmasidan 1 kg vaznda 1 gramm hisobidan ichiriladi

Har qanday ixtisosdagi shifokor ko’zning shikastlanishi va bunda ogrik paydo bulishi to’g’risida tushunchaga ega bulishi kerak. Chunki shikastlanishlar na fakatgina ko’zda, balki boshda va butun organizmda paydo bulishi mumkin.

Shifokor bunday xolatlarda bemorlarga to’g’ri tashxis qo’yib davolay olishlari lozim.

Shu bilan bir qatorda kuz olmasi shikastlanishi bilan kechuvchi asoratli kasalliklarini profilaktikasini ham o’tkaza olishlari kerak.

Ko'ruv a’zosi shikastlangan, kuygan va ko'zi turli patologik holatlarga uchragan odamlarga tez yordam ko'rsatuvchi shifokorlar ikki guruhga bo'linadi. **Birinchi guruhga** poliklinikada ishlovchi oftalmologlar bilan bir qatorda boshqa jami mutaxassislar (terapevt, xirurg, stomatolog. nevropatolog) va umumiy oilaviy vrachlar kiradi. Ikkinchi guruhga esa ko'z tez yordam statsionarida ishlovchi katta klinik tajribali oftalmolog va oftlamomikroxirurglar kiradi. Birinchi

guruhdagi mutaxassislar shoshilinch holatda murojaat qiladigan, koʻzi to'satdan jarohatlangan kasallarning hammasini so'zsiz qabul qilib, birinchi yordamni berishlari va u agar og'ir darajada bo'lsa, tezlik bilan transport tashkil qilib. ularni tegishli ko'z tez yordam shifoxonalariga joylashtirishlari kerak.

Oftolmologiyada tez yordam berishning yana bir muhim qismi, bu faqatgina k o ʻzning yordamchi qismlari va uning tashqi pardalarida boʻladigan o ʻtkir patologiyalarni aniqlashgina emas. balki konʼyuktivit, iridotsiklit va glaukomaning xuruji klinik simptomlarini ajrata bilish va bu kasalliklarga toʻgʻri tashxis qoʻyib. birinchi tez yordamni ham sifatli bajarishdir .

Bu farqni talabalar oftolmologiyadan mashgʻulot tsiklini oʻtgan davrlarida yaxshi aniqlab, eslab qolishlari zarur. Bu oʻrinda koʻzi ogʻrib, qizarib, yoshlanib kelgan bemorning koʻrish faoliyatiga ham ahamiyat berish kerak.

Glaukoma xurujida k o ʻzning koʻrish faoliyati pasayadi, konʼyuktivasida vena qon tomirlari kengayadi, shox parda biroz xiralashadi, qorachiq kengayadi, koʻz ichi bosimi juda baland

koʻtariladi va boshning shu yarmisida ham ogʻriq boʻladi. Bunday bemorga umumiy ogʻriqsizlantirish uchun analgin, koʻz ichi bosimini tushurish uchun pilokarpinning 1 foizli eritmasidan tez-tez tomizish kerak. Soʻngra tezlik bilan statsionarga yuboriladi. Statsionarda bir

tabletkadan diakarb beriladi va glitserinning suv bilan barobar eritmasidan 1 kg vaznda 1 gramm hisobidan ichiriladi.

Agar oʻtkir iridotsiklit bolsa, bunda perikorneal inʼektsiya boʻladi, koʻz yorugʻga qaray olmaydi, blefarospazm roʻy beradi va koʻzni ochganda oʻtkir sanchiq seziladi. Qorachiq toraygan boʻladi va koʻz ichi bosimi past boʻlishi mumkin.

Bunday bemor koʻziga qorachiqni kengaytiradigan, shu bilan bir qatorda KIBni koʻtaradigan dori - atropinning 1 foizli eritmasidan tomiziladi va koʻzni bogʻlab, buni ham statsionarga yuboriladi. Agar ilgaridan qon bosimi koʻtarilib

yurgan oʻrta yoshdagi yoki qari bemor: kozim ertalab birdaniga tosatdan kormay qoldi, deb arz qilsa, bu toʻr parda markaziy arteriyasi yoki koruv nem arteriyalaridan birining tosatdan bekilib, tosilib qolganidan darak beradi. Bunday bemorga tezlik bilan

validol, ichish uchun galidor, nikoshpan tabletkasidan berib, statsionarga yuborish zarur.

Agar bemor spirtli ichimlik deb adashib metil spirtini ichgan bolsa, unda birinchidan, uning oshqozoni qayta-qayta yuvib, chayqab tashlanadi. Songra tili ostiga validol, nitroglitserin tashlash va galidor, eutillinning tabletkasidan ichirib, atropinning 0,1 foizli eritmasidan 1,0

retrobulbor yuborish zarur.

Agar bemorda miopiyaning yuqori darajasi bolsa va u kozim tosatdan jimirlashdi va hozir narsalarningyarmini kormayapman, desa bu tor pardaning (biror zarb ostida) teshilganidan va uning oz ornidan kochganidan darak beradi. Bunday bemorni tez yordam mashinasida tegishli navbatchi koʻz tez yordam markaziga shifoxonaga yuborish zarur. Bunday baxtsiz hodisaga uchragan bemorlarga 2-bosqichdagi yordam, dori-darmon jarrohlik va tegishli choralar statsionar sharoitida beriladi. Bunday juda muhim yordamni tezlik bilan ado etish uchun ambulatoriya tez yordami kabinetlarida yuqoridagi bemorga qoʻllaniladigan dorilar doim boʻlishi va ularni

har 2 haftada bir tekshirib, yangilab turish zarur.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI, SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

OTORINOLARINGOLOGIYA ONKOLOGIYA VA OFTALMOLOGIYA KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

O`quv va tarbiyaviy ishlar prorektori dots.
Jarlkasinova G.J.
«_____”2019 y

OFTALMOLOGIYA fani bo’yicha

5- kurs talabalari uchun

ISHCHI DASTUR

(2019-2020 o’quv yili)

Ta’lim shifri – 510000 «Sog’liqni saqlash»

Ta’lim yo’nalishi: 5111000 – Mutaxassislik ta’limi(5510100 -Davolash ishi)

Umumiy soat - 135 soat

Jami soat - 90 soat

Shu jumladan:

Ma’ruza - 12soat

Amaliy mashg'lot - 32 soat

Klinik mashg'ulot - 46 soat

Mustaqil ish - 45 soat

BUXORO-2019 yil

Tuzuvchilar:

1.Odilova G.R. –lor va oftalmologiya kafedrasi katta o`qituvchisi t.f.n.

2.Boboeva R.R.. – lor va oftalmologiya kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

1.Rajabov A.B. – «Topografik anatomiya va operativ jarrohlik» kafedrasi mudiri,t.f.n.

Kafedra mudiri: Narzullaev N.U, t.f.d, dotsent

FUK rahbari: Nurov U.I, t.f.n, dotsent

Ushbu ishchi dastur namunaviy o'quv dasturi va o'quv reja asosida «Davolash ishi» yo'nalish bo'yicha tuzilgan va Buxoro davlat tibbiyot institute markaziy uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Bayonnoma №_____»____»_____2019y.

Uslubchi: Jumayeva Sh .B.

KIRISh

Ushbu dasturda “Oftalmologiya” ijtimoiy klinik fan bo`lib, ko`ruv a'zosi va uning yondosh a'zolarining morfo-fiziologik xususiyatlari va patologiyasini o`rganish bilan shug`ullanadi. Ko`z olmasi va yordamchi apparati turli o`tkir va surunkali kasalliklarda tez-tez zararlanadi. Kasalliklar uzoq vaqt mehnat qobiliyatining yo`qotilishiga olib keladi. Ko`ruv a'zosining zararlanishi ko`pincha organizmning boshqa a'zo va sistemalari zararlanishi bilan birga uchraydi. Bundan ko`rinib turibdiki, tibbiyot oliy o`quv yurtlarida bo`lajak umumiy amaliyot shifokorlari (UASh) oftalmologiya asoslarini, chuqur bilishlari lozim.

Fanining maqsad va vazifalari

Amaliy oftalmologiya bo`yicha dasturning asosiy maqsadi- bo`lajak umumiy amaliyot shifokorlarni (UASh) ko`ruv a'zosining xolatini tekshirish usullarini va shu orqali organizm xolatiga baho bera olishni o`rgatish, tibbiy muassasalarda oftalmologiya fanini o`qitish metodikasini o`rgatish.

Faninng vazifalari– uni o`rganuvchilarga:

talabalarga ko`ruv a'zolarini anatomiyasi, tekshirish usullarini va ko`ruv a'zolarining vazifalarini aniqlashni o`rgatish;
bemorlarga ko`z kasalliklarida birinchi tibbiy yordam ko`rsatish va ko`z statsionariga yotqizishga korsatmalarni berishni o`rgatish;

talabalarga kon'yunktiva va qovoq kasalliklarini davolash usullarini o`rgatish (1 kategoriya xizmati);
oftalmolog konsultatsiyasiga ko`rsatmalarni o`rgatish (2kategoriya xizmatlari);
ko`z va umumiy kasalliklarda ko`ruv a'zolaridagi asoratlarni profilaktikasini o`rgatish (4 kategoriya xizmati);
surunkali kasalliklarda bemorlarni reabilitatsiya va dispanserizatsiya qilishga o`rgatish (4 kategoriya xizmati);

Fan bo`yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko`nikma va malakalariga qo`yiladigan talablar


9.Ampitsilin inektsiyasiga retsept yozing

10.Betoptik eritmasiga retsept yozing

11. Brimoptik eritmasiga retsept yozing

12.Diakarb tabletkasiga retsept yozing

13.Mezaton eritmasiga retsept yozing

14.Levomitsitin eritmasiga retsept yozing

15.Lekrolin eritmasiga retsept yozing

16.Kaliy yod eritmasiga retsept yozing

17.Salkaseril geliga retsept yozing

18.Taufon eritmasiga retsept yozing

19.Tobreks eritmasiga retsept yozing

20.Tetratsiklin malxamiga retsept yozing

Stantsiya №8

Kuz kasalliklarida kuz tubidagi oftalmoskopik kurinish

1 savol: Miopiyada oftalmoskopik kurinish

2 savol: Tur parda markaziy arteriyasi spazmida oftalmoskopik tasvir

3 savol: Tur parda markaziy venasining trombozida oftalmoskopik belgilar.

4 savol: Tur parda kuchishida oftalmoskopik kurinish.

5 savol: Gipertonik angiopatiyada oftalmoskopik kurinish.

6 savol: Gipertonik angiosklerozda oftalmoskopik kurinish.

7 savol: Gipertonik retinopatiyada oftalmoskopik kurinish

8 savol: Gipertonik neyroretinopatiyada oftalmoskopik tasvir.

9.Buyrak retinopatiyasida oftalmoskopik kurinish.

10.Anemik retinopatiyada oftalmoskopik kurinish

11.Leykemik retinopatiyadagi oftalmoskapik tasvir.

12.Makulyar retinodistrofiyaning oftalmoskopik kurinishi.

13.Diabetik angiopatiyada oftalmoskopik kurinish

14. Boshlangich angioretinopatiyadagi oftalmoskopik kurinish

15. Yakkol angioretinopatiyadagi oftalmoskopik tasvirni ayting.

16. Proleferativ angioretinopatiyadagi oftalmoskopik kurinishni ayting

17. Revmatik retinopatiyadagi oftalmoskopik kurinishni tushuntiring.

18. Pigmetli retinitdagi oftalmoskopik belgilar.

19. O’roqsimon qujayrali anemiyada uchraydigan retinopatiyadagi oftalmoskopik kurinish

20. Aorta koarktatsiyasidagi oftalmoskopiyadagi uzgarishlar.

9-STANTSIYA kuz va uning bulimlarining shikastlanishi. Oftalmologik tez yordam

1.elektrooftalmiya nima

2.kontuziya darajalari

3.kuzning ishkor bilan kuyishi

4.kuzning kislota bilan kuyishi

5.gifema nima

6.gemoftalm nima

7.panoftalmit nima

8.Endoftalmit nima

9.shox pardada yot jism tushishi

10.kuzning termik kuyishi

12.kontuziya engil darajasida kuzdagi uzgarishlar

13.kontuziya urta darajasida kuzdagi uzgarishlar

14.kontuziya ogir darajasida kuzdagi uzgarishlar

15.konyuktivada yot jism tushishi

16.gipopion nima

17.kuzning mexanik shikastlanishi

18.kuzning nur ta'sirida kuyishi

19.1darajali kuyishda kuzdagi uzgarishlar

20.kuyishning 4 boskichida kuzdagi uzgarishlar

10 stantsiya vaziyatli masalalar

Vaziyatli masalalar

1. Bemor M. bulimga ung kuzida lukillovchi ogrik, kizarishi, yoshlanishiga shikoyat kilib keldi. Ob-v kurganda: OD perikornial inektsiya, rangdor parda shishgan, rangi xiralashgan, korachik toraygan, reaktsiyasi sust, gavxar tinik, kuz tubi uzgarishsiz.

Savol: Sizning tashxisingiz va kaysi kK bilan dif diag kiladi.

2. Bemor K. uchinchi bulimga kuchli lukillovchi ogrik, yoshlanish, kizarishiga shikoyat kildi. Bemorga ob-v tekshiruvdan sung iridotsikliy tashxisi kuyildi.

Savol: Bemorga kanday tekshiruvlar olib borish zarur.

3. Bemor F. bulimga ung kuzida yukori kismida shishli xosila borligini aytdi.Anamnezidan 2 oydan beri uzini kasal xisoblaydi.Obektiv kurikda OD yukori kovok soxasida nuxat kattaligida shishli xosila , palpatsiyada ogriksiz.

Savol: Sizning tashxisingiz.

4 Bemor kurish utkirligi OD 0,01ga teng.OS 0(nol)ga teng.korretsiya bermaydi

savol kaysi gurux nogironligi beriladi.

5. Bemor U. bulimiga ikkala kuzining xiralashishiga shikoyat kilib keldi, xayvonlar shifokori bulib ishlaydi artrid ob-v kurganda OU engil perikornial inektsiya korachik toraygan kuz tubi kurinmaydi. Bemorda rayta reaktsiyasi musbat chikgan.

Savol: Sizning tashxisingiz

6.Bemor ung kuz kovogining shishib ogrishiga va kizarganligiga shikoyat kildi. Anamnezidan kovogining shamollaganligini aytadi. Ob'ektiv: OD- ung kovogi taranglashgan, shishgan, bosganda ogrik, maxalliy temperatura. OS-tinch, optik muxitlar tinik. VISq OUq1,0. kuz tubi uzgarishsiz. Sizning taxminiy tashxisingiz va davolash taktikangiz.

7.Bemor ikala kovoklarda shish, kizarish, biroz kichishiga. Anamnezidan bemor kuziga xar xil buyovchi moddalar kuygan. Ob'ektiv: OU-kovoklarda shish, bosganda ogrimaydi va kizarish. VISq OUq1,0. Kuz tubi me'yorda.

Sizning tashxisingiz va davo taktikangiz.

8.Bemor ikkala kuz kovoklarda ogrik,kovoklarning yopishishi, kichishi, kipriiklarning tukilishiga shikoyat kildi. Anamnezidan oshkozon-ichak kasalligi bilan ogriydi. Ob'ektiv: OU-kovoklar kizargan, kipriklar usadigan joyda yiringli pustlokchalar, olganda kiprik tuekilib, joyi yaralanadi. OU-tinch, optik muxitlar tinik, kurish utkirligi 1,0ga teng. KIB normada. Kuz tubida uzgarishlar kuzatilmadi. Sizning taxminiy tashxisingiz..

9.Bemor chap kuzida kuchli ogrik, ogrik kechasi zurayadi, kuzining kizarganligiga, kurishining pastligiga shikot kilib keldi. Anamnezidan infektsion kasalligi bilan ogrigan. Ob'ektiv: OS- sklerada aralash in'ektsiya, shox parda orka kismida mayda nuktasimon pretsipitatlar, old kamera urtacha, rangdor parda relefi uzgargan,

korachik tor, gavxar va kuz tubini anik kurib bulmaydi. VISq OD-1,0G` OS-0,7nG`k. KIB normada.

Sizning taxminiy tashxisingiz.

10.Bemor OS-Utkir iridotsiklit xuruji bilan keldi. 1-yordam.

11.Bemor ung kuzida kuchli ogrik, ogrikning boshining ung yarmiga tarkalishiga, kuzining xiralashganligiga, kizarganligiga, yoshlanishiga shikot kilib keldi. Bemor obdon tekshirilgach, OD- Glaukomaning utkir xuruji tashxisi kuyildi. Statsionar sharoitda 1-yordamni ayting.

12.Bemorni ob'ektiv kurganda ung yukori kovok kirgogida chegaralangan, ogrikli kizargan shishli xosila,anamnezida bir ikki kun ichida infiltrat ulchami kattalashgan sababini shamollash Bilan boglaydi .Sizning tashxisingiz va taktika.

13.Bemorni ob'ektiv kurganda OS- kuz yosh xaltasi proektsiyasida giperimiya, shish, palpatsiyada ogrikli, zich konsistentsiyali, bosganda shillik yirinli ajralma ajralishi. Bleforaspazm. VISq OUq1,0. KIB va kuz tubi me'yorda. Sizning taxminiy tashxisingiz va davo taktikangiz.

14.Bemor ikkala kuzida ogrik, kizarishiga shikoyatkilib keldi. Ob'ektiv: OU-sklerada perikorneal in'ektsiya, limb soxasida, sklerada 1-2 ta infiltratlar, palpatsiyada ogrikli. VISq OD-0,8 OS-0,9 Anamnezidan bir necha yillardan buyon poliartrit bilan ogriydi. Sizning tashxisingiz.

15. Bemorni tibbiy kurik vaktida obektiv kurganda ung kuzi sklerasida kobra simptomi musbat, optik kismlari tinik, kuz tubi: KNX och pushti, dumalok chegarasi anik, glaukomatoz ekskovatsiya, tomir tutami burun tomonga siljigan KIB 25, 23 mm.s.u

Savol: Sizning tashxisingizq

16 Ambulatoriyada bemor ung kuzida kuchli ogrik, ogrikning boshining ung yarmiga tarkalishiga, kizarganligiga, yoshlanishiga, kurishining xiralashganiga shikoyat kilib keldi. Bemor tekshirilgach, OD- Glaukomaning utkir xuruji deb taxminiy tashxis kuyildi. Ambulotoriyadan statsionargacha davolanish maksadida kanday xujjatlar yuboriladi.

17.Bemor bir necha yillar davomida yukori darajali miopiya kasalligi bilan davolanib kelyapti. (OU(Rf 18-20 dptr)). Kasbi ukituvchi. Xozirda kuzining judayam xiralashganigi tufayli ishlashda kiynalyapti. Nogironlikka chikishda vrachning tavsiyasiq

18.Bemor 60 yoshda. Bir necha yillar davomida glaukoma kasalligi bilan davolanib kelyapti. Xozirda kurish utkirligi OD- 0,01, OS- dv.ruki. Korrektsiya bermaydi. KIB normada . Kuz tubi: glaukomatoz atrofiya. Bemorga kaysi gurux nogironligi beriladi.

19.Bemor 29 yoshda. Bir necha yillar davomida miopiya yukori darajali tashxisi bilan davolanib kelyapti. Xozirda ung kuzi birdaniga kurmay kolganligini aytdi. Tekshirilgach bemorda OD- Tur parda kuchganligi aniklandi. Kurish utkirligi OD- dv.ruki eksts. OS-0,05 `k (-)13,0D 0,08 Sizning taktikangiz.

20.Bemor 18 yoshda. Anamnezidan ung kuzidan jaroxat olgan. Kurish utkirligi OD- 0(nol) OS-1,0. Tashxis: OD- Kuz olmasi subatrofiyasi. Bemorga kaysi gurux nogironligi beriladi.

21.Bemorning shikoyati ung kuzini ochib bilmaslik yoruglikdan kurkish, yosh kelishi, kurish xiraligiga.Obektiv kurikda OD blefarospazm, shox parda soat 12 da infiltrat, old kamera suyukligi toza gavxar tinik .kurish utkirligi 0,6 ga teng

Savol sizning taxminiy tashxisingiz va davolash usuli.

22.Bemor kasalxonaga murojaat kilib keldi.Obektiv kurikda bemorga surunkali dakriotsistit diagnozi kuyildi.

Savol sizning tavsiyangiz.

23.Bemorning shikoyati ikkala kuzida ogrik, yoshlanish, yoruglikka karay olmaslik.Anamnezidan bemor svarkada ishlagan

Savol sizning tashxisingiz va birinchi yordam.

24.60 yoshli bemor uzok uchun (-)1,0 kuz oynak takadi .Xozirda ukish yozishda kiynalayapti.Bemorga kuz oynak tanlang

25. Ambulatoriyada bemor ung kuzida kuchli ogrik, ogrikning boshining ung yarmiga tarkalishiga, kizarganligiga, yoshlanishiga, kurishining xiralashganiga shikoyat kilib keldi. Bemor tekshirilgach, OD- Glaukomaning utkir xuruji deb taxminiy tashxis kuyildi.Savol bemorga birinchi yordam kursating.

11.stantsiya katarakta

1.gavxar anatomiyasi

2.katarakta nima

3.tugma katarakta

4.gavxar tarkibi

5.tugma katarakta klinik kurinishi

6.oldingi va orka kutb kataraktasi

7.kortikal katarakta

8.kavatma-kavat zonulyar katarakta

9.diffuz katarakta

10.xayotda ortirilgan katarakta

11.asoratli katarakta nima

12.karilik kataraktasi boskichlari

13.gavxarni tekshirish usullari

14.shikastlanish kataraktasi

15.nur kataraktasi

16.tugma kataraktani davolash

17.afakiya nima

18.artifakiya nima

19.katarakta operatsiyasi turlari

20.somatik kasalliklardan keyingi katarakta

“Т А С Д И Қ Л А Й М А Н “

Ўқув ва тарбиявий ишлари проректори

_____ Г.Ж.Жарилкасинова

«_____»_____2019 йил

“К Е Л И Ш И Л Г А Н”

Ўқув бўлими бошлиғи

_____У.И. Қўчқоров.

«_____»_____2019 йил

Талабалар билимини назорат қилиш ва

баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги

“Офтальмология” фани бўйича

Н И З О М

Ушбу Низом Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2009 йил 07 август № 276-сонли “Талабалар билимини назорат қилиш ва бахолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги Низомни амалиётга жорий этиш ҳақида”ги буйруғи билан тасдиқланган “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида “Низом” ва тиббиёт олий таълим муассасалари ректорлари Раёсати томонидан тавсия этилган “Тиббиёт олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида Низом” ва Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2010 йил 25 августдаги 333 – сон буйруғи билан Низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритилган ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазиригида 2010 йил 26 августда 1981-1 сон билан Давлат рўйхатидан қайта ўтказилган “Олий таълим муасссасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида Низом”и ва “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисидаги низомга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги (Давлат рўйхати 1981-2-сон, 13.12.2013 йил), “Олий таълим тўғрисидаги низомга қўшимча киритиш ҳақида”ги (Давлат рўйхати 1222-2 –сон, 13.12.2013й) бўйруқлари ҳамда Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институтида “Талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида Низом”и асосида ишлаб чиқилди ва Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институтида “Офтальмология” фани бўйича талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолашда асосий меъёрий ҳужжат бўлиб ҳисобланади.

I. Умумий қоидалар

1. Талабалар билимини назорат қилиш ва рейтинг тизими орқали баҳолашдан мақсад таълим сифатини бошқариш орқали рақобатбардош кадрлар тайёрлашга эришиш, талабаларнинг фанларни ўзлаштиришида бўшлиқлар ҳосил бўлишини олдини олиш, уларни аниқлаш ва бартараф этишдан иборат.

2. Рейтинг тизимининг асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

а) талабаларда Давлат таълим стандартларига мувофиқ тегишли билим, кўникма
ва малакалар шаклланганлиги даражасини назорат қилиш ва таҳлил қилиб бориш;

б) талабалар билими, кўникма ва малакаларини баҳолашнинг асосий тамойиллари: Давлат таълим стандартларига асосланганлик, аниқлик, ҳаққонийлик, ишончлилик
ва қулай шаклда баҳолашни таъминлаш;

в) фаннинг талабалар томонидан тизимли тарзда ва белгиланган муддатларда ўзлаштирилишини ташкил этиш ва таҳлил қилиш;

г) талабаларда мустақил ишлаш кўникмаларини ривожлантириш, ахборот ресурслари манбаларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш;

д) талабалар билимини холис ва адолатли баҳолаш ҳамда унинг натижаларини вақтида маълум қилиш;

е) талабаларнинг фан бўйича комплекс ҳамда узлуксиз тайёргарлигини таъминлаш;

ж) ўқув жараёнининг ташкилий ишларини компьютерлаштиришга шароит яратиш.

3. Фан бўйича талабалар билимини цикл давомида баҳолаб бориш рейтинг назорати жадваллари ва баҳолаш мезонлари асосида амалга оширилади.

II. Назорат турлари ва уни амалга ошириш тартиби

4. Назорат турлари, уни ўтказиш тартиби ва мезонлари кафедра мудири тавсияси билан факультет ўқув-услубий кенгашида муҳокама қилинади ва тасдиқланади ҳамда фаннинг ишчи ўқув дастурида машғулот турлари билан биргаликда кўрсатилади.

5. Рейтинг назорати жадваллари, назорат тури, шакли, сони ҳамда ҳар бир назоратга ажратилган максимал балл, шунингдек жорий назоратларнинг саралаш баллари ҳақидаги маълумотлар фан бўйича биринчи машғулотда талабаларга эълон қилинади.

6. Талабаларнинг билим савияси ва ўзлаштириш даражасининг Давлат таълим стандартларига мувофиқлигини таъминлаш учун қуйидаги назорат турларини ўтказиш назарда тутилади:

жорий назорат – талабанинг фан мавзулари бўйича билим ва амалий кўникма даражасини аниқлаш ва баҳолаш усули. Жорий назорат фаннинг хусусиятидан келиб чиққан ҳолда, амалий машғулотларида оғзаки сўров, тест ўтказиш, суҳбат, назорат иши, уй вазифаларини текшириш ва шу каби бошқа шаклларда ўтказилиши мумкин;

талабанинг мустақил иши ўқув режасида фанни ўзлаштириш учун белгиланган ўқув ишларининг ажралмас қисми бўлиб, у услубий ва ахборот ресурслари жиҳатдан таъминланади ҳамда бажарилиши рейтинг тизими талаблари асосида назорат қилинади.

оралиқ назорат — семестр давомида ўқув дастурининг тегишли (фаннинг бир неча мавзуларини ўз ичига олган) бўлими тугаллангандан кейин талабанинг билим ва амалий кўникма даражасини аниқлаш ва баҳолаш усули. Оралиқ назоратининг сони (бир семестрда икки мартадан кўп ўтказилмаслиги лозим) ва шакли (ёзма, оғзаки, тест ва ҳоказо) ўқув фанига ажратилган умумий соатлар ҳажмидан келиб чиққан ҳолда белгиланади;

якуний назорат – цикл якунида фан бўйича назарий билим ва амалий кўникмаларни талабалар томонидан ўзлаштириш даражасини баҳолаш усули.

Якуний назорат асосан таянч тушунча ва ибораларга асосланган “Тест синови” ва ОТКС (объектив тизимлаштирилган клиник синов) шаклида ўтказилади.

“6[1]. Назорат турларини ўтказишда холисликни таъминлаш мақсадида талабалар тўғрисидаги маълумотлар уларнинг назорат ишларига олий таълим муассасаси томонидан индентификация коди бериш орқали шифрланиши мумкин”

7. Институт раҳбарининг буйруғи билан ички назорат ва мониторинг бўлими ёки ўқув-услубий бошқарма раҳбарлигида тузилган комиссия иштирокида якуний назоратни ўтказиш жараёни даврий равишда ўрганиб борилади ва уни ўтказиш тартиблари бузилган ҳолларда, якуний назорат натижалари бекор қилиниши мумкин. Бундай ҳолларда якуний назорат қайта ўтказилади.

8. Ўқув йили тугаганидан кейин рейтинг назорати натижаларига кўра талабаларни кейинги курсга ўтказиш тўғрисида белгиланган тартибда қарор қабул қилинади.

III. Баҳолаш тартиби ва мезонлари

10. Талабаларнинг билим савияси, кўникма ва малакаларини назорат қилишнинг рейтинг тизими асосида талабанинг фан бўйича ўзлаштириш даражаси баллар орқали ифодаланади.

11. Фан бўйича талабанинг цикл давомидаги ўзлаштириш кўрсаткичи 100 баллик тизимда бутун сонлар билан баҳоланади.

Офтальмология касалликлари фани бўйича аудитория соатлари 90 соат бўлганлиги сабабли даволаш ва тиббий педагогика факултетларининг 5 курс

гурухларига оралиқ назорат ўтказилади ва ушбу 100 балл назорат турлари бўйича қуйидагича тақсимланади.

жорий баҳолаш - 45 балл;

мустақил иш - 5 балл;

оралиқ назорат - 20 балл

якуний баҳолаш – 30 балл;

Даволаш ва тиббий педагогика факультетларининг 5-курс талабалари учун (90 соат)

№	Баҳолаш тури	Максимал балл	Саралаш бали	Коэффициент
1.	Жорий баҳолаш	45	24,75	0,45
2.	ТМИ	5	2.75	0,05
3	Оралиқ бахолаш	20	11	0.2
4	Якуний баҳолаш	30	16.5	0, 3
	ЖАМИ	100	55,0	1,0

Стоматологияфакултетининг4-курс талабалари учун (54 соат)

№	Баҳолаш тури	Максимал балл	Саралаш бали	Коэффициент
1.	Жорий баҳолаш	45	24,75	0,45
2.	ТМИ	5	2.75	0,05

3.	Якуний баҳолаш	50	27,5	0, 5
	ЖАМИ	100	55,0	1,0

12. Талабанинг рейтинг дафтарчаси ёки талабалар рейтингини ҳисобга олиш электрон тизимига алоҳида қайд қилинадиган малакавий амалиёт, фан (фанлараро) бўйича якуний давлат аттестацияси, магистратура талабаларининг илмий-тадқиқот ва илмий-педагогик ишлари, магистрлик диссертацияси бўйича ўзлаштириш даражаси – 100 баллик тизимда баҳоланади.

13. Талабанинг фан бўйича ўзлаштириш кўрсаткичини назорат қилишда қуйидаги намунавий мезонлар тавсия этилади:

а) 86-100 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

хулоса ва қарор қабул қилиш;

ижодий фикрлай олиш;

мустақил мушоҳада юрита олиш;

олган билимларини амалда қўллай олиш;

моҳиятини тушуниш;

билиш, айтиб бериш;

тасаввурга эга бўлиш.

б) 71-85 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

мустақил мушоҳада юрита олиш;

олган билимларини амалда қўллай олиш;

моҳиятини тушуниш;

билиш, айтиб бериш;

тасаввурга эга бўлиш.

в) 55-70 балл учун талабанинг билим даражаси қуйидагиларга жавоб бериши лозим:

моҳиятини тушуниш;

билиш, айтиб бериш;

тасаввурга эга бўлиш.

в) қуйидаги ҳолларда талабанинг билим даражаси 0-54 балл билан баҳоланиши мумкин:

аниқ тасаввурга эга бўлмаслик;

билмаслик.

14. Намунавий мезонлар асосида “куз касалликлари” фанидан жорий назорат бўйича аниқ мезонлар ишлаб чиқилиб, кафедра мудири томонидан тасдиқланади ва талабаларга эълон қилинади.

15. Намунавий мезонларга мувофиқ “куз касалликлари” фани бўйича таянч олий таълим муассаси (ТТА) томонидан якуний назорат учун баҳолаш мезонлари
ишлаб чиқилиб, институт Илмий-услубий кенгаши томонидан тасдиқланади ва турдош олий таълим муассасаларига етказилади.

16. Талабаларнинг ўқув фани бўйича мустақил иши жорий ва якуний назоратлар жараёнида тегишли топшириқларни бажариши ва унга ажратилган баллардан келиб чиққан ҳолда баҳоланади.

17. Талабанинг фан бўйича цикл давомидаги рейтинги қуйидагича аниқланади:

$$R_f = \frac{V \bullet O'}{100}$$

бу ерда:

V– цикл давомида фанга ажратилган умумий ўқув юкламаси (соатларда);

O' –фан бўйича ўзлаштириш даражаси (балларда).

18. Фан бўйича жорий ва якуний назоратларнинг ҳар бирига ажратилган балнинг 55 фоизи саралаш балл этиб белгиланади ва бунда жорий назоратларнинг ҳар бирига ажратилган баллнинг 55 ва ундан юқори фоизидан ортиқ балл тўплаган барча талабалар ушбу фан бўйича якуний назоратга киритилади.

19. Талабанинг цикл давомида фан бўйича тўплаган умумий бали ҳар бир назорат туридан белгиланган қоидаларга мувофиқ тўплаган баллари йиғиндисига тенг.

IV. Назорат турларини ўтказиш муддати

20. Якуний назорат турлари календар тематик режага мувофиқ деканат ёки факультет тузилмаси бўлмаган олий таълим муассасаларида ўқув бўлими

(ўқув-услубий бошқарма) томонидан тузилган рейтинг назорат жадваллари асосида ўтказилади. Якуний назорат циклнинг охирги кунида ўтказилади.

21. Жорий назоратда саралаш баллидан кам балл тўплаган ва узрли сабабларга кўра назоратларда қатнаша олмаган талабага қайта топшириш учун, навбатдаги шу назорат туригача, сўнгги жорий назоратлар учун якуний назоратгача бўлган муддат берилади.

Касаллиги сабабли дарсларга қатнашмаган ҳамда белгиланган муддатларда жорий ва якуний назоратларни топшира олмаган талабаларга факультет декани фармойиши ёки ўқув ишлари бўйича проректорнинг рухсатномаси асосида, ўқишни бошлаганидан сўнг икки ҳафта муддатда топширишга рухсат берилади.

22. Цикл якунида фан бўйича жорий, якуний ёки ТМИ назорат турларини ҳар бири бўйича саралаш балидан кам балл тўплаган талаба академик қарздор ҳисобланади.

Академик қарздор талабаларга цикл тугаганидан кейин қайта ўзлаштириш учун бир ой муддат берилади. Шу муддат давомида фанни ўзлаштира олмаган талаба факультет декани тавсиясига кўра белгиланган тартибда ректорнинг буйруғи билан талабалар сафидан четлаштирилади.

23. Талаба назорат натижаларидан норози бўлса, фан бўйича назорат тури натижалари эълон қилинган вақтдан бошлаб бир кун мобайнида факультет декани ариза билан мурожаат этиши мумкин. Бундай ҳолда факультет декани тақдимномасига кўра ректор буйруғи билан 3 (уч) аъзодан кам бўлмаган таркибда апелляция комиссияси ташкил этилади.

Апелляция комиссияси талабаларнинг аризаларини кўриб чиқиб, шу куннинг ўзида хулосасини билдиради.

Институтда талабанинг цикл давомида жорий назорат бўйича тўплаган баллари ушбу назорат турлари умумий балининг 55 фоизидан кам бўлса ёки якуний назорат бўйича тўплаган бали ушбу назорат тури умумий балининг 55 фоизидан кам бўлса, у академик қарздор ҳисобланади

24. Баҳолашнинг ўрнатилган талаблар асосида белгиланган муддатларда ўтказилиши ҳамда расмийлаштирилиши факультет декани, кафедра мудири, ўқув бўлими ҳамда ички назорат ва мониторинг бўлими томонидан назорат қилинади.

V. Рейтинг натижаларини қайд қилиш ва таҳлил этиш тартиби

25. Талабанинг фан бўйича назорат турларида тўплаган баллари цикл якунида рейтинг қайдномасига бутун сонлар билан қайд қилинади. Рейтинг дафтарчаси ёки талабалар рейтингини ҳисобга олиш электрон тизимининг “Ўқув режасида ажратилган соат” устунига цикл учун фанга ажратилган умумий ўқув юклама соатлари, “Фандан олинган баҳо” устунига эса 100 баллик тизимдаги ўзлаштириши қўйилади.

Талабанинг саралаш балидан паст бўлган ўзлаштириши рейтинг дафтарчасига қайд этилмайди.

26. Фан бўйича ўтказиладиган назорат турларининг натижалари гуруҳ журналлари ҳамда қайдномада қайд этилади ва шу куннинг ўзида (назорат тури ёзма иш шаклида ўтказилган бўлса, 2 (икки) кун муддат ичида) талабалар эътиборига етказилади.

27. Якуний назорат натижаларига кўра фан ўқитувчиси талабаларнинг фан бўйича рейтингини аниқлайди ҳамда рейтинг дафтарча ва қайдноманинг тегишли қисмини тўлдиради.

28. Талабанинг рейтинги унинг билими, кўникмаси ва малакалари даражасини белгилайди. Талабанинг семестр бўйича умумий рейтинги барча фанлардан тўпланган рейтинг баллари йиғиндиси орқали аниқланади.

29. Талабалар рейтингини ҳисобга олиш электрон тизимига ва рейтинг қайдномасига талабаларнинг фан бўйича рейтинги қайд этилади.

30. Талабаларнинг назорат турлари бўйича эришган натижалари кафедралар, деканатлар ва ўқув – услубий бўлинмаларида компьютер хотирасига киритилиб, мунтазам равишда таҳлил қилиб борилади.

31. Жорий ва якуний назорат натижалари кафедра йиғилишлари, факультет ва институт Илмий кенгашларида мунтазам равишда муҳокама этиб борилади ва тегишли қарорлар қабул қилинади.

VI. Якуний қоидалар

32. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази тест баҳолари ва рейтинг балларининг холислигини текширишни ташкил этади ва назорат қилади.

33. Ушбу Низомда белгиланган масалалар бўйича келиб чиққан низолар қонун ҳужжатлари асосида ҳал қилинади.

Кафедра йиғилишида муҳокама қилинган ва тасдиқланган,

Баённома № 1.

ЛОР ва офталмология кафедраси

мудири, доцент: Нуров У.И.

TECTLAR TO`PLAMI

1. Qaysi mamlakatda qadimgi oftalmologiya ta’limoti haqida dastlabki ma’lumotlar aniqlangan?
A. Vavilon
B. Gretsiya
C. Misr
D. Rim
E. Xitoy

2. Tarixda birinchi vrach oftalmologning ismi nima?
A. Pepi Ank Iri
B. Uadjet
C. Sushruta
D. Haraki
E. Gippokrat

3. Qadimda shifokorlar kataraktani qanday davolashgan?
A. Igna sanchib
B. Gavharni shishasimon tanaga cho’ktirish yo’li bilan
C. Ekstrakapsulyarli katarakta ekstraksiyasi
D. Kuydirish
E. Ko’z oynak tayinlash

4. Qadimgi yunon tibbiyotida kim tomondan birinchi ko’z va ko’z kasalliklari ta’riflangan?
A. Galen
B. Gippokrat
C. Selsiy
D. Platon
E. Aristotel

5. Optika asoslari kim tomondan yaratilgan?
A. Galen
B. Diogen
C. Platon
D. Aristotel

E. Evklid

6. O’zbekistonda nechanchi yilda ilk ko’z kasalliklari kafedrasi tashkil etilgan?
A. 1917
B. **1920**
C. 1932
D. 1945
E. 1949

7. Ko’z tomchilarini tomizishda optimal tanaffus qancha vaqtni tashkil etadi?
A. 1-2 minut
B. 2-5 minut
C. 15-30 minut
D. 1 soat
E. 6-12 soat

8. Qanday tartibda ko’z surtmalari surtiladi?
A. 1-2 maxal kuniga
B. 3-5 maxal kuniga
C. 5-8 maxal kuniga
D. 8-12 maxal kuniga
E. 12-20 maxal kuniga

9. Oftalmologiyada midriatiklar qanday maqsadlarda qo’llanilmaydi?
A. Oftalmoskopiya o’tkazish uchun, ko’z qorachig’ini kengaytirish maqsadida
B. Sikloplegiyaga erishish uchun
C. Akkomodatsiya spazmini davolash uchun
D. Kataraktani davolash uchun
E. Uveitlarda orqa sineyxiya rivojlanishini to’xtatish uchun

10. Gemato-oftalmik to’siq quyidagilardan iborat:
A. Rangdor parda, siliar tana va xoriedeyaning qon-tomir devorlaridan
B. A. caroticus communis devori va to’r parda tomirlari devoridan
C. Ichki uyqu arteriya devori, a. ophthalmica va miya arteriyasidan
D. Konyunktiva, sklera, rangdor parda va a. hyaloidea tomirlari devorlaridan
E. Sklera, ko’zning yordamchi a’zolari tomirlari devori va shox pardadan

11.Ko’z dori-preparatlarini qabul qilganda ko’p kuzatiladigan nojo’ya tasirini sanab o’ting:
A.Ko’z qurishi, allergik reaksiya, rangdor parda pigmentatsiyasi oshishi
B. Psixoz, galyutsinatsiya, qon ivishini buzilishi
C. Tutqanoq, qon bosimi ko’tarilishi, harorat ko’tarilishi
D. Ko’z ichki bosimi pasayishi, depressiya, uyqu buzilishi
E. Ko’z nervi atrofiyasi, potensiya pasayishi, ko’z xarakatlantiruvchi muskul paralichi

12.Glaukomani davolashda kombinirlashgan preparatni ko’rsating:
A. Timolol
B. Spersallerg
C.Fotil
D. Dorzolamid
E. Latanoprost

13.Shox parda tarkibida qaysi qavat yoq?
A. Stroma
B. Boumen kapsulasi
C. Dessement qavat
D.Brux membranasi
E. Endoteliy

14.Shox parda qaysi nervdan sezgi innervatsiyani oladi?
A. Ko’zni harakatlantiruvchi nerv
B. Uch shoxli nerv
C. Yuz nervi
D. G’altaksimon nerv
E. Uzoqlashtiruvchi nerv

15.Makula nechta qavatdan iborat?
A. 2
B. 4
C. 6
D. 8
E. 10

16.Yuqori ko`z tirqishidan qaysi qon-tomir o`tadi ?
A.V. Ophtalmica
B. A. ophtalmica
C. A. Lacrimalis
D. A. ethmoidalis
E. A. ciliaris

17.Shox pardaning qaysi qavati yuqori regenerator xususiyatiga ega?
A. Stroma
B. Boumen kapsulasi
C. Dessement qavat
D.Epiteliy
E. Endoteliy

18.Shox pardaning qaysi qavati ximik reagentlar ta'sirida hosil bo'ladigan yiringli ekssudatni eritish xususiyatiga ega?
A. Stroma
B. Boumen kapsulasi
C.Dessemet qavat
D. Epiteliy
E. Endoteliy

19.Katta odamda gavharni nur sindirish ko'rsatgichi nechaga teng?
A.20 Dptr
B. 30 Dptr
C. 40 Dptr
D. 50 Dptr
E. 60 Dptr

20.Skleraning eng yupqa joyi……:
A. Limb
B. Ekvator
C.Ko'ruv nerv diski qismi
D. Qiyshiq mushak birikkan joyi
E. To'g'ri mushak birikkan joyi

21.Quyidagilardan qaysi biri sklera funksiyasiga kiradi?

A. Akkomodatsiya
B. Refraksiya
C. Trofika
D. Himoya
E. Nur o`tkazish

22. Lagoftalm qaysi nerv falajida kuzatiladi?
A. Ko'zni harakatlantiruvchi nerv
B. Uch shoxli nerv
C. Yuz nervi
D. G'altaksimon nerv
E. Simpatik nerv

23. Midriaz qaysi nerv falajida kuzatiladi?
A. Ko'zni harakatlantiruvchi nerv
B. Uch shoxli nerv
C. Yuz nervi
D. G'altaksimon nerv
E. Simpatik nerv

24. Tishsimon chiziq qayerda joylashgan?
A. Limb sohasida
B. To'g'ri mushaklar payli qismi birikish joyi
C. Kipriksimon tana sohasida
D. Ko'z ekvatorida
E. Ko'ruv nerv diskining oldida

25. To'r pardani eng tashqi qavati:
A. Pigmentli epiteliy
B. Tayoqchalar va kolbachalar qavati
C. Tashqi chegaralovchi glial membrana
D. Tashqi donador qavat
E. Tashqi to'rsimon qavat

26. Ko'z nervi diski sohasidagi tomirli pardaga mustahkam birikkan joyi ?
A. Yirik qon-tomirlar va KND atrofi
B. Sariq dog' va to'r pardaning periferiyasida
C. Tishsimon chiziq va to'r pardaning periferiyasida

D.Tishsimon chiziq va KND atrofi
E. Yirik qon-tomirlar va sariq dog’

27.Orqa kamera quyidagilarning qaysi biri bilan chegaralanmagan ?
A.Shox parda bilan
B. Rangdor parda bilan
C. Siliar tana bilan
D. Gavhar ekvatori bilan
E. Shishasimon tananing oldingi yuzasi bilan

28.Ko’ruv nervini qaysi hujayralar aksoni hosil qiladi?
A. Tayoqcha va kolbacha qavati
B. Tashqi donador qavat
C.Ganglionar qavat
D. Ichki donador qavat
E. Pigment qavat

29.Ko’ruv nervi qismi noto’g’ri berilgan javobni toping?
A. Ko’z ichi qismi
B. Mushaklar orasi qismi
C. Orbital qismi
D. Kanal ichi qismi
E. Miya qutisi ichidagi qismi

30.Xususiy tomirli pardani shakllantiradi:
A. aa. ciliares anterior
B. a. lacrimalis
C. aa. ethmoidales anterior et posterior
D.aa. ciliares posterior breves
E. aa. ciliares posterior longus

31.Normada ko’rish burchagi nimaga teng?
A.1 minut
B. 1 sekund
C. 1 gradus
D. 5 minut
E. 5 gradus

32.Ko’rish o’tkirligi qanday ko’rsatkichlar bilan o’lchanadi?
A.Qiyosiy birliklarda
B. Dioptriyalarda
C. Metrlarda
D. Millimetrlarda
E. Graduslarda

33.Ko’z to’r pardasining qaysi qismi ko’rish o’tkirligining eng yuqoriligini ta’minlaydi?
A.Sariq dog’ning markaziy chuqurchasi sohasi
B. Sariq dog’ning butun yuzasi
C. Ko’ruv nervining disk sohasi
D. Ko’rish o’tkirligi to’r pardaning butun yuzasida bir xil
E. To’r pardaning periferik qismi

34.Ko’rish analizatorida necha turdagi yorug’lik sezuvchi komponentlar bor?
A. 2
B. 3
C. 4
D. 5
E. 7

35.Optotip nima?
A.Ko’rish o’tkirligini aniqlash uchun foydalaniladigan son,xarf yoki biror boshqa belgi
B. Ko’rish qobiliyatining bir turi
C. Optik sistemaning tuzilishining o’ziga xos xususiyati
D. Optik sistemaning nur sindirish kuchini ifodalovchi ko’rsatkich
E. Rang sezish patologiyasi

36.Ko’rish o’tkirligi Snellen formulasi bo’yicha aniqlanadi. Quyidagi formulalar ichidan ushbu formulani toping.
A.visus=d/D
B. visus=D/d
C. visus=dxD
D. visus=Dd
E. visus=Dd

37.To’g’ri rang sezish qanday nom bilan ataladi?
A.Normal trixromaziya
B. Anormal trixromaziya
C. Dixromaziya
D. Monoxromaziya
E. Axromaziya

38.Protanomaliya nima?
A.Qizil rangni ajratolmaslik
B. Yashil rangni ajratolmaslik
C. Ko’k rangni ajratolmaslik
D. Hamma ranglarni umuman ajratolmaslik
E. Sariq rangni ajratolmaslik

39.Yashil rangni ajratolmaslik holati qanday ataladi?
A.Deyteranopiya
B. Deyteronomaliya
C. Protanopiya
D. Protanomaliya
E. Tritanopiya

40.Zaxarlanishdan so’ng bemor hamma narsani sariq rangda ko’ra boshladi. Sizning tashxisingiz:
A.Ksantopsiya
B. Eritropsiya
C. Xloropsiya
D. Sianopsiya
E. Monoxromaziya

41.Skotoma bu…. :
A. To’q rangli ko’z olmasining o’smasi
B. Ko’z tubidagi to’q rangli o’sma
C. Periferik chegaraga yetmaydigan, ko’rish chegarasining o’choqli defekti
D. Ko’rish maydonining konsentrik torayishi
E. Periferik chegaraga yetadigan, ko’rish chegarasining organik defekti

42.Noto'g'ri javobni tanlang. Normal binokulyar ko'rishni ta'minlash uchun quyidagi shartlar bo'lishi kerak:

A. Ikkala ko'zning yetarli darajada ko'rish o'tkirligi (0,4dan yuqori)
B. Ikkala ko'z olmasining erkin harakati
C. Ikkala ko'zda bir xil kattalikda ko'rish – izeykoniya
D. Oliy ko'rish markazlari, o'tkazish yollari va to'r pardaning normal funksional ishlashi
E. Ko'z olmalarining turli xil gorizontal va frontal kesishmada joylashishi

43.55 yoshli emmetropga o'qish uchun qanday ko'zoynak tavsiya etiladi?

A. Spherae convex (+) 2,5 D
B. Spherae concave (+)2,5 D
C. Spherae convex (+) 1,5 D
D. Spherae concave (+)1,5 D
E. Spherae convex (+) 3,5 D

44.Agar bemorda o'rta darajali miopiya, ko'rish o'tkirligi bir xil saqlansa, qanday ko'zoynak doimiy taqish uchun tavsiya etiladi?

A. Spherae concave (-)3,25
B. Spherae concave (-)3,5 D
C. Spherae concave (-)3,75 D
D. Spherae concave (-)3,0 D
E. Doimiy taqish uchun ko'zoynak kerak emas.

45.Ko'z oynak tanlashda ikkala ko'z orasidagi farq nechta dioptriygacha bo'lishi mumkin :

A. 2,0 D gacha
B. 3,0 D gacha
C. 1,0 D gacha
D. 4,0 D gacha
E. Ko'zoynak tanlaganda, ikkala ko'z orasida farq bo`lmasligi kerak

46.Asta-sekin og'riqsiz ko'rish o'tkirligini pasayishi shikoyati bilan kechadigan oftalmologik kasallikni ko'rsating.

A. Katarakta, miopiya, ochiq burchakli glaukoma
B. Konyunktivit, dakriosistit, dakrioadenit
C. Keratit, blefarit, meybomiit

D. Kanalikulit, yopiq burchakli glaukoma, quruq ko’z sindromi
E. Irit , siklit, xoreoidit

47. Qaysi kasallik yaqqol og’riq bilan va ko’rish o’tkirligini keskin pasayishi bilan kechadi?
A. Blefarit, meybomiit
B. O’tkir konyunktivit,dakriosistit
C. Yopiq burchakli glaukoma xuruji, o’tkir iridosiklit
D. Quruq ko’z sindromi,dakrioadenit
E. O’tkir xorioidit, katarakta

48. Qaysi asbob yordamida ko’z olmasining joylashishi baholanadi?
A. Maklakov tonometri
B. Oynali oftalmoskop
C. Gertel ekzoftalmometri
D. Pyezometr
E. Shiots tonometri

49. Yon tomondan yoritib ko’rish tekshiruvini o’tkazish uchun qaysi asboblar zarur?
A. Gonioskop va tirqishli lampa
B. Tirqishli lampa
C. Yorug’lik lampasi va lupa 13,0 yoki 20,0 dptr
D. Yorug’lik lampasi va oftalmoskop
E. Oftalmoskop, 13 dptr lupa va lampa

50. Ko’z tubini tekshirishda qo’llaniladigan usulni ko’rsating :
A. Gonioskopiya
B. Biomikroskopiya
C. O’tkazuvchi yorug’lik yordamida ko’rish
D. Ekzoftalmometriya
E. Oftalmoskopiya

51. Gonioskopiya quyidagini tekshirishga imkon beradi :
A. To’r pardadagi infiltratlarni cho’kish chuqurligini
B. Ko’z oldi kamerasining burchagining holatini
C. Gavhardagi xiralashishning joylashish chuqurligini
D. Qovoqlar va ko’z olmasining konyunktivasini

E. Ko’zning orqa kamerasidagi suyuqlikning tiniqligini

52.Ko’z ichki bosimini palpator tekshirishda aniqlanadigan bosimning darajalari to’g’ri ko’rsatilgan qatorni ko’rsating:
A. T_N, T_1, T_4
B. T_2, T_3, T_4
C. T_1, T_0, T_5
D. T_N, T_3, T_2
E. T_5, T_0, T_5

53.Ko’z ichki bosimini maklakov tonometri yordamida o’lchashda kerak bo`ladigan vositalarni ko’rsating:
A.Lidokain ,applanatsion tonometr (vazni 10,0gramm bo’lgan toshchalar), kollargol,spirt, Polyak lineykasi
B. Lidokain, applanatsion tonometr (vazni 5,0 gramm bo’lgan toshchalar), kollargol
C. Spirt, lyugol, applanatsion tonometr (vazni 15,0 gramm bo’lgan toshchalar), Polyak lineykasi
D. Bupivakain, applanatsion tonometr (vazni 7,5 gramm bo’lgan toshchalar), kollargol, spirt
E. Applanatsion tonometr (vazni 10,5 gramm bo’lgan toshchalar), kollargol, spirt, novokain, Polyak lineykasi

54.Qanday hollarda Maklakov tonometrini qo’llash mumkin emas:
A. Ko’z olmasining subatrofiyasida
B. Yuqori ko’z ichki bosimida
C.Ko’z olmasini ochilishi bilan kechgan operatsiyalardan so’ng va shox parda jarohatlarida
D. Bir ko’z yo’qligida
E. Ptoz va blefaritda

55.Ko’z ichki suyuqligini oqishi va ajralishini miqdorini aniqlash uchun qanday tekshirish usullari qo’llaniladi?
A. Gonioskopiya
B. Sutkalik tonometriya
C.Tonografiya
D. Diafanoskopiya
E. Reooftalmografiya

56.Qaysi kasallikning diagnostikasi uchun flyuoressent angiografiya qo'llaniladi?
A.To'r pardaning markaziy venasining trombozi
B. Gerpetik keratit
C. Shox pardaning o'rmalovchi yarasi
D. Shishasimon tana destruksiyasi
E. Yuqori darajadagi miopiya

57.To'r pardaning ko'chishini aniqlashga imkon beruvchi tekshirish usulini ko'rsating:
A. Transilyuminatsiya
B. Oftalmosfigmografiya
C. Tonografiya
D. Esteziometriya
E. Ko'zni ultratovushli tekshirish(B scan)

58.Ko'z yoshi kanallari va ko'z yoshi qopining funksiyalarini o'rganish uchun qanday sinama o'tkaziladi?
A.Kanalchali sinama
B. Burun sinama
C. Shirmer sinamasi
D. Norn sinamasi
E. Djonson sinamasi

59.Bemor 2 metrdan barmoq sanasa, uning ko'rish o'tkirligi nechaga teng?
A. 0,2
B. 0,02
C. 0,06
D. 0,04
E. 0,4

60.Ko'rish maydonidagi skotoma qaysi tekshirish usuli yordamida aniqlanadi?
A.Kampimetriya
B. Ko'rish maydonini taxminiy aniqlanishi
C. Tonometriya
D. Ko'zni ultratovush yordamida tekshirish

E. Diofanoskopiya

61.5 metr masofadan sog'lom odam Sivsev – Golovin jadvalini qaysi qatorini ko'rishi kerak?
A. 1
B. 5
C. 8
D. 10
E. 12

62.Ko'rish o'tkirligini aniqlash usullarini ko'rsating. Notog'ri javobni tanlang:
A. Golovin – Sivsev jadvali yordamida
B. Forroptor yordamida
C. Orlova jadvali yordamida
D. Qo`l barmoqlarini ko'rsatish va Snellen formulasi yodamida hisoblash
E. Adaptometr yordamida

63.Rot apparatiga joylashtirilgan Golovin – Sivsev jadvali yordamida tekshirish qanday masofadan o'tkaziladi?
A. 1 metr
B. 3 metr
C. 5 metr
D. 10 metr
E. 50 metr

64.Ko'zning fizik refraksiyasida aniqlanadi:
A. Ko'z gavharining nur sindirish kuchi
B. Ko'zning barcha optik muhitlarining nur sindirish kuchi
C. Ko'zning barcha optik muhitlarining nur sindirish kuchi va to'r pardaga nisbatan asosiy fokusni holati
D. To'r pardaga nisbatan asosiy fokusni holati
E. To'r pardaning sindiruvchi kuchi

65.Ko'zning klinik refraksiyasida aniqlanadi:
A. Ko'z gavharining nur sindirish kuchi
B. Ko'zning barcha optik muhitlarining nur sindirish kuchi

C. Ko’zning barcha optik muhitlarining nur sindirish kuchi va to’r pardaga nisbatan asosiy fokusni holati
D. To’r pardaga nisbatan asosiy fokusni holati
E. To’r pardaning sindiruvchi kuchi

66. Shox pardani nur sindiruvchi kuchi . . . . . dioptriyaga teng:
A. 1,5-2,0
B. 40,0-42,0
C. 18,0-20,0
D. 60,0-62,0
E. 28,0-30,0

67. Gavharning nur sindiruvchi kuchi … ga teng:
A. 1,5-2,0 D
B. 40,0-42,0 D
C. 18,0-20,0 D
D. 60,0-62,0 D
E. 28,0-30,0 D

68. Ko’zning nur sindiruvchi kuchi … ga teng:
A. 1,5-2,0 D
B. 40,0-42,0 D
C. 18,0-20,0 D
D. 60,0-62,0 D
E. 28,0-30,0 D

69. Akkomadatsiya tinchligida predmetlar manzarasi emmetropi joylashadi:
A. To’r pardada
B. To’r parda oldida
C. To’r parda ortida
D. Paramakulyar
E. Shishasimon tanada

70. Miopiya kasalligi – bu … miopiya:
A. O’rtacha darajadagi
B. Yuqori darajadagi
C. O’rtacha darajadagi
D. Avj olib boruvchi

E. Ko’z ichki pardalari

71.Miopiya eng yuqori ko’ruv o’tkirligini beruvchi . . . . . linza bilan korreksiyalanadi:
A. Eng ko’p musbat
B. Eng kam manfiy
C. Eng ko’p manfiy
D. Eng kam musbat
E. Korreksiya talab qilinmaydi

72.Gipermetropiya eng yuqori ko’ruv o’tkirligini beruvchi . . . . . linza bilan korreksiyalanadi:
A. Eng ko’p musbat
B. Eng kam manfiy
C. Eng ko’p manfiy
D. Eng kam musbat
E. Korreksiya talab qilinmaydi

73.Emmetropiya eng yuqori ko’ruv o’tkirligini beruvchi . . . . . linza bilan korreksiyalanadi:
A. Eng ko’p musbat
B. Eng kam manfiy
C. Eng ko’p manfiy
D. Eng kam musbat
E. Korreksiya talab qilinmaydi

74.Ko’z refraksiyasi akkomadatsiya zo’riqishida … :
A. Kuchayadi
B. Susayadi
C. O’zgarmaydi
D. Qisman kuchayadi
E. Qisman susayadi

75.Akkomadatsiya zo’riqishida ko’z qorachig’i:
A. O’zgarmaydi
B. Kengayadi
C. Torayadi
D. Ba’zi hollarda qisqaradi

E. Ba’zi hollarda kengayadi

76.Akkomadatsiyaning faol komponenti hisoblanadi:
A.Siliar mushakni qisqarishi
B. Gavharning elastik xususiyati
C. Gavharni nur sindirish ko’rsatkichini o’zgarishi
D. Ichki to’g’ri mushaklarni zo’riqishi
E. Ichki qiyshiq mushaklarni zo’riqishi

77.Sikloplegiya atamasining ma’nosi:
A. Ko’zni xarakatlantiruvchi mushaklar falaji
B. Akkomadatsiya falaji
C. Medikamentoz midriaz
D. Akkomodatsiya susayishi
E. Medikamentoz mioz

78.Mutloq akkomadatsiya nima?
A.Har bir ko’zning aloxida akkomodatsiyasi
B. Binokulyar akkomodatsiya
C. Akkomadatsiyani maksimal zo’riqishida ko’zning klinik refraksiyasi
D. Akkomadatsiyani minimal zo’riqishida ko’zning klinik refraksiyasi
E. Akkomadatsiyani o’rtacha zo’riqishida ko’zning klinik refraksiyasi

79.Presbiopiya quyidagi holat bilan bog’liq:
A.Yoshga bog’liq holda gavharning elastikligini kamayishi va siliar mushakning susayishi
B. Yoshga bog’liq holda siliar mushakni susayishi va gavharning nur sindirish ko’rsatkichini kamayishi
C. Yoshga bog’liq ravishda gavharning nur sindirish ko’rsatkichini pasayishi
D. To’r pardaning farqlovchi xususiyatini kamayishi
E. Yoshga bog’liq holda siliar mushakning susayishi

80.Presbiopiya odatda . . . . . yoshdan boshlanadi:
A. 30-35
B. 35-40
C.40-45
D. 45-50
E. 36-42

81.Presbiopiya quyidagi holatda erta boshlanadi:
A.Gipermetropiyada
B. Emmetropiyada
C. Miopiyada
D. Ahamiyati yo’q
E. Astigmatizmda

82.Gipermetropiya darajasi necha dioptriygacha kuchsiz xisoblanadi?
A. 1. 0
B. 2. 0
C. 3. 0
D. 4. 0
E. 5. 0

83.Gipermetropiya darajasi necha dioptriygacha o’rtacha xisoblanadi?
A. 1. 0
B. 2. 0
C. 3. 0
D. 4. 0
E. 2. 0-5. 0

84.Gipermetropiya necha dioptriydan keyin yuqori hisoblanadi?
A. 1. 0
B. 2. 0
C. 3. 0
D. 4. 0
E. 5. 0

85.Ametropiya kuchsiz darajasi refraksiyasi… ga teng:
A. 2,5 D
B. 3,25 D
C. 2,75 D
D. 3,5 D
E. 3,0 D

86.Ametropiya o’rtacha darajasi refraksiyasi… ga teng:
A. 2,5-5,5 D

B. 3,25- 6,0 D
C. 2,75- 5,75 D
D. 3,5-6,25 D
E. 3,0-6,0 D

87. Tashqi govmichcha – bu:
A. Konyunktiva ichki qismini chegaralangan yallig'lanishi
B. Qovoq qalinligida yallig'lanishli infiltrat
C. Ter bezining surunkali yallig'lanishi
D. Meybomiy bezining o'tkir yallig'lanishi
E. Kiprik ildizi qopchasining o'tkir yiringli yallig'lanishi

88. Tashqi govmichchani keltirib chiqaruvchi mikroorganizm:
A. Diplokokk
B. Stafilokokk
C. Pnevmokokk
D. Streptokokk
E. Kox tayoqchasi

89. Surunkali dakriosistit sababi xisoblanadi:
A. Surunkali meybomiit
B. Ko'z yoshi nayining stenozi
C. Surunkali konyunktivit
D. Ko'z yosh- burun kanaliningstenozi
E. Surunkali kanalikulit

90. O'tkir dakrioadenitda patologik jarayon joylashadi:
A. Yuqori qovoqning tashqi qismida
B. Yuqori qovoqning ichki qismida
C. Pastki qovoqning tashqi qismida
D. Pastki qovoqning ichki qismida
E. Har qanday sohada joylashishi mumkin

91. Govmichchani davolashdagi qanday muolajalar orbita flegmonasi, orbital venalar trombozi kabi asoratlarga olib kelishi mumkin?
A. Choydan tayyorlangan malham (primochka)
B. Quruq issiq
C. Autogemoterapiya

D. Yiringni siqib chiqarishga urinish
E. Kortikosteroidlar instillyatsiyasi

92. Xalazionni jarrohlik usulidan olib tashlangach, to'qima gistologik tekshiruvga yuboriladi, sababi?
A. Xalazion– bu xavfli o'sma
B. Naysimon suyaklarga metaztaz beradi
C. Xalazion o'rniga meybomiy bezi adenokarsinomasi rivojlanadi
D. Hujayralardagi viruslarni aniqlash uchun
E. Xavfli o'smaga aylanish ehtimoli bor

93. Lagoftalm uchun xos:
A. Ko'z tirqishini yopishning imkoni yo'qligi
B. Ko'z tirqishi soxasida qovoq chetlarini bitib ketishi
C. Ko'z tirqishi soxasida qovoqlar chetini qisman bitishi
D. Yuqori qovoqning tushishi
E. Ko'z tashqi burchagi soxasida teri burmasi

94. Ptoz uchun xos:
A. Ko'z tirqishini yopishni imkoni yo'q
B. Ko'z tirqishi soxasida qovoqni to'liq bitishi
C. Ko'z tirqishi soxasida qovoqlar chetini qisman bitishi
D. Yuqori qovoqning tushishi
E. Ko'z tashqi burchagi soxasida teri burmasi

95. Ptozni davolash:
A. Jarroxlik
B. Sol. Atropini sulfatis 1% instillyatsiyasi
C. Qovoq ostiga antibiotikli dori plyonkasini qo'yish
D. Yuqori qovoqni ko'taruvchi mushaklarni mustaxkamlash bo'yicha mashqlar
E. Gipnoz yordamida

96. Surunkali dakriosistitni klinik simptomatikasi:
A. Yosh oqishi va yiringli ajralma
B. Ko'z yoshi qopchasi sohasida og'riq
C. Ko'z yoshi qopchasi sohasida giperemiya va shish
D. Shox parda sindromi

E. Ko’z qurishi sezgisi

97.Entropion bu:
A.Qovoqni buralishi
B. Qovoqni ag’darilishi
C. Ko’z tirqishini qisqarishi
D. Qovoq kolobomasi
E. Ko’z tirqishini qisqarishi

98.Ektropion bu:
A.Qovoqni ag’darilishi
B. Qovoqni buralishi
C. Ptoz
D. Ko’z tirqishini kaltalashishi
E. Ko’z tirqishini qisqarishi

99.Qovoq halqasimon mushagini falaji quyidagi xolat bilan namoyon bo’ladi:
A.Lagoftalm
B. Blefarospazm
C. Ptoz
D. Qovoqni buralishi
E. Qovoqni ag’darilishi

100. Tangachasimon blefarit simptomi:
A. Qovoq chetlarini nisbatan qizarishi
B. Kipriklar asosi kulrang-oqish tangachalar bilan qoplanishi
C. Kasallik kechishi surunkali
D. Yiringli yallig’lanish
E. Tangachalar olib tashlanganda teri yaralanadi va qonaydi

101. Yarali blefarit simptomi:
A. Qovoq terisi chuqur infiltratsiyasi
B. Yiringli qobiqlar, ular olib tashlangandan so’ng qonovchi yarachalar hosil bo’ladi
C. Qovoqlarni chandiqlanishi, qalinlashishi, gipertrofiyasi
D. Kipriklar tagida kulrang-oqish rangli tangachalar
E. Qobiqlar olib tashlangach, gipertrofiyalangan do’mboqchalar hosil bo’ladi

102. Qovoq absessi sababi:
A. Govmichcha
B. Qovoqlar qayrilishi
C. Yarali blefarit
D. Oddiy blefarit
E. Xalazion

103. Infiltratsiya bosqichidagi qovoq abssessini davolash:
A. Quruq issiq
B. Antibiotiklar, umumquvvatlovchi vositalarni qabul qilish
C. Absessni ochish
D. Absess bo'shlig'ini drenajlash
E. Gipertonik eritmali bog'lam qo'yish

104. Oddiy va tangachali blefaritni mahalliy davolash mezonlari:
A. Tangachalarni va tiqinlarni olib tashlash
B. Dezinfeksion va antibakterial malhamlar bilan shisha tayoqcha yordamida qovoq massaji
C. Miotiklar tomizish
D. Tizimli kortikosteroidlar
E. Vitaminli tomchilar,regeneratsiyalovchi malhamlar (solkoseril)

105. Chaqaloqlarda dakriosistitni davolashning asosiy mezonlari:
A. Ko'z yoshi naylarini yuvish va zondlash
B. Dakriosistorinostomiya
C. Medikamentoz davolash
D. Konyunktival qopchani antiseptiklar bilan yuvish
E. Fizioterapevtik muolaja

106. Pterigiumni davolash uchun qo'llaniladi:
A. Operativ davo
B. Fizioterapiya
C. Kontakt korreksiya
D. Lazerkoagulyatsiya
E. Konservativ davo

107. Traxoma klinikasi nechta boskichdan iborat?
108. 2

109. 3
110. 4
111. 5
112. 1

113. Pnevmokokkli konyunktivit uchun xos emas:
A. Qovoq shishi
B. O`tuvchi burma sohasida follikulalar hosil bo`lishi
C. Bulbar konyunktivada nuqtali gemorragiyalar
D. Qovoqlar konyunktivasida oq-kulrang qoplamalar paydo bo`lishi
E. Konyunktiva giperemiyasi

114. Moraks-Aksenfeld diplobatsillalar chaqirgan konyunktivitda spetsifik davo:
A. Nosteroid yallig`lanishga qarshi vositalar
B. Polimiksin
C. Rux sulfat
D. Tetraksiklin qatori preparatlari
E. Kortikosteroidlar

115. Diplobatsilyar konyunktivitni klinik belgilariga xos emas:
A. Ko`z olmasi konyunktivasida kichik qon quyilishlar
B. Asosan surunkali yoki o`tkir osti kechishi
C. Kam miqdorda konyunktiva giperemiyasi shilliq ajralishi bilan
D. Ko`z tirqishi burchaklari lokalizatsiyasi o`zgarishlari
E. Ko`z tirqishi tashqi va ichki burchaklari terisi matseratsiyasi

116. Difteriyali konyunktivit belgisi bo`lib hisoblanmaydi:
A. Kuchli qovoqlar shishi
B. Ajralma xira, seroz-qonli suyuqlik
C. Qiyin ajraluvchi kulrang fibrinoz parda
D. Shox pardada infiltratlar va qon quyulishlar
E. Qovoq konyunktivasi va uning burmalarida ko'plab mayda follikulalar aniqlanadi

117. Tug'ma gonoblenoreya belgilari bola tug'ilgandan keyin nechanchi kunida rivojlanadi?
A. 2-3

B. 5-7
C. 10-12
D. 14-21
E. 1 oydan keyin

118. Ko'zdan quyuq, yiringli, qaymoqsimon konsistensiyali va sariq rangli ajralma tegishli:
A. O'tkir epidemik konyunktivit
B. Difterik konyunktivit
C. Gerpetik konyunktivit
D. Gonoblenoreya
E. O'tkir pnevmokokkli konyunktivit

119. Bakterial konyunktivitlarga kirmaydi:
A. Angulyar konyunktivit
B. Adenofaringokonyunktival isitmalash
C. O`tkir epidemik konyunktivit
D. Gonoblenoreya
E. Difteriyali konyunktivit

120. Virusli konyunktivitlarga kirmaydi:
A. Angulyar
B. Adenofaringokonyunktival isitmalash
C. Epidemik follikulyar keratokonyunktivit
D. Gerpetik
E. Epidemik gemorragik

121. Qaysi kasallik xlamidiya tabiatiga ega?
A. Adenofaringokonyunktival isitmalash
B. Epidemik gemorragik konyunktivit
C. Kox-Uiks o`tkir epidemik konyunktiviti
D. Angulyar konyunktivit
E. Paratraxoma

122. Allergik konyunktivit klinik belgilarga xos emas:
A. "Toshlik yo'l" klinik belgisini beradi
B. Limbda jelatinli infiltrat aniqlanadi

C. Kuchli qichishish kelib chiqadi
D. Steroidlar tomizilishi samarali
E. Ko`p miqdorda yiringli ajralma

123. Kox-Uiks konyunktivitida davolash taktikasi. Noto'g'ri javobni aniqlang.
A. Bemor izolyatsiyasi
B. Kasallik tashuvchi bemorlarni aniqlash
C. Dezinfeksialovchi vositalarni va antibiotiklarni tez-tez tomizish
D. Furatsillin bilan yuvish
E. Binokular bog'lam qo'yish

124. Xlamidiyali konyunktivitni davolashda ishlatilmaydi:
A. Tetrasiklin qatori antibiotiklar
B. Sulfanilamidlar
C. Makrolidlar
D. Dezinfeksiyalovchi eritmalar
E. Mikrosirkulyatsiyani yaxshilovchi eritmalar

125. Kattalarda xlamidiyali konyunktivitlarga nimalar xos emas?
A. Ko'proq ayollarga xos
B. O'tkir boshlanishi, bir tomonlama kechishi
C. Follikulalarning borligi
D. Pastki qovoqning birdaniga qizarib shishib ketishi
E. Qiyin ajraluvchi, kulrang qobiqning borligi

126. Traxomaning asoratiga kirmaydi:
A. Madaroz
B. Trixiaz
C. Simblefaron
D. Kseroz
E. Pterigium

127. Konyunktival ineksiyada qaysi eritmani tomizish mumkin?
A. Adrenalin
B. Pilokarpin gidroxloridi
C. Kollargol
D. Flurossein

E. Atropin sulfati

128. Qanday preparatlar gonoblenariya davosida qo'llanilmaydi?
A. Furatsillin 1:5000 eritmasi bilan yuvish
B. Kaliy permanganat 1:5000 eritmasi bilan yuvish
C. Benzilpenitsillin natriyli tuzi bilan
D. Sulfatsil natriy 30% eritmasi bilan
E. Deksametazon 0,1%eritmasi

129. Gerpetik konyunktivit uchun xos emas?
A. Ko'z tirqishi burchagida qichishish va achishishning bo'lishi
B. Ko'pincha bolalar kasallanadi
C. Bir tomonlama shikastlanishi
D. Qovoqlar terisida ko'plab pufakchalarning bo'lishi
E. Uzoq va sust kechishi

130. Adenovirusli konyunktivit uchun xos emas?
A. Yuqori qovoqda pufakchalar borligi
B. Jag'osti limfa tugunlari kattalashishi
C. Nazofaringit simptomlari
D. Tana harorati ko'tarilishi
E. Bir tomonlama boshlanib, so'ngra ikkinchi ko'zga o'tadi

131. Zamburug'li konyunktivitning umumiy belgilariga nima xos emas?
A. Yallig'lanishni sekin kechishi
B. Konyunktivada tugunli granulemalarning shakllanishi, so'ngra yallig'lanish bilan yakunlanadi
C. Konyunktiva bezlarida cho'kmalarning shakllanishi
D. Qovoq terisi va shox pardaning birgalikda shikastlanishi
E. Uchburchakli vaskulizatsiyalangan burmani hosil bo'lishi

132. Konyunktiva saratoni belgilariga xos emas?
A. Ko'z ichki burchagi yoki limb sohasida joylashishi
B. Sklerani yuzasidan bo'rtib turishi va yuzasi notekis bo'lishi
C. Sklera va shox pardaga qarab o'sishi
D. Och-pushti rangda , keng asosli hosila

E. Tomirsiz, to’q pigmentli hosila

133. Konyunktiva gemangiomalari uchun qaysi belgilar xos emas?
A. Och-pushti rangda, keng asosli hosila
B. Kelib chiqishi tug’ma, angiomatozlar fonida
C. Silliq, yumaloq shaklli
D. To’q qizil rangda yoki kavernozli ko’rinishidagi hosila
